


A DABIYOTIMIZNING
SO'NMAS YULDUZLARI

ABDULLA QODIRIY



Hikoya, ocherk
va hajviyalar
to'plami



81.645.31
3-601


ADABIYOTIMIZNING SO'NMAS YULDUZLARI

ABDULLA QODIRIY

Hikoya, ocherk va hajviyalar to'plami

“Ilm-ziyo-zakovat”

Toshkent – 2023



UDK: 494.375:50.0:29

KBK: 81.645.31

Q 601

Abdulla Qodiriy. Hikoya, ocherk va hajviyalar to'plami.
"Adabiyotimizning so'nmas yulduzlari" turkumi –

T.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2023. – 128 b.

"So'zimning oxirida odil sudlardan so'rayman: garchi men turli bo'hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg'on bo'lib qoralandim. Loaqal, ularning — qoralovchi qora ko'zlarning — ko'ngli uchun bo'lsa ham menga eng oliy bo'lg'on jazoni bera ko'ringiz. Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmag'on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so'rayman".

1926-yil 15-iyun, Samarqand. (Abdulla Qodiriyning suddagi nutqidan.)

O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'zbek romanchiligining asoschisi, Abdulla Qodiriyning asarlarini o'qir ekansiz, darhaqiqat, adibning qo'rqmasdan, haqiqatni ayta olganiga, o'z davrining muammolarini ko'tarib chiqqaniga, guvoh bo'lasiz.

Adib ushbu to'plamdan o'rin olgan hikoya, ocherk va hajviyalarida asosan o'z davrining muammolarini ko'tarib chiqqan. Masalan, "Uloqda", "Juvonboz", "Tinch ish" hikoyalarida insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydi, behuda narsalarga umrni sarflamay, ma'rifatga, ma'naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g'oyasini ilgari suradi.

Marhamat, zavqlanib o'qing.

UDK: 494.375:50.0:29

KBK: 81.645.31

ISBN: 978-9943-9375-8-1

© Abdulla Qodiriy.

© "Ilm-ziyo-zakovat", 2023.

ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA IJODI

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Samarqand darboza mavzeyida "bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada..." tug'ilgan. U dastlab eski usul maktabda, so'ng yangicha xat-savod chiqaradigan rus-tuzem maktabida o'qiydi. 12 yoshlarida bir boy savdogarga xizmatga yollanib, yozuv-chizuv ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Shu davrlarda Rossiyaning turli shaharlaridan keladigan va bevosita Toshkentning o'zida ham milliy ziyolilar tomonidan nashr etiladigan gazeta va jurnallar bilan tanisha boshlaydi. Mana shu o'qib, o'rganganlari ta'sirida o'zi ham ma'rifatparvarlik g'oyalarini tashuvchi, qoloq turmushni, bid'at va xurofotni tanqid qilib, ilm olishga, taraqqiyotga chorlovchi she'rlar, hikoyalar yoza boshlaydi. Uning "Ahvolimiz", "To'y", "Millatimga bir qaror!", "Fikr aylagil" she'rlari, "Baxtsiz kuyov" pyesasi, "Juvonboz", "Uloqda" hikoyalari 1913-1916-yillar oralig'ida yozilgan va e'lon qilingan ilk asarlaridir. Bu asarlarning aksariyati Julqunboy taxallusi bilan chop qilingan.

Abdulla Qodiriy 1918-yillardan boshlab turli idoralarda ishlaydi, gazeta va jurnallar tahririyatlarida xizmat qiladi. 1924-yili Moskvaga borib, jurnalistlar tayyorlaydigan institutda tahsil oladi.

20-yillar yozuvchining eng ko'p ijod qilgan davridir. 1922-yilda uning "O'tkan kunlar" romani e'lon qilina boshlaydi va 1925-1926-yillarda har bir bo'limi uchta alohida kitob holida nashr etiladi. Shu yillar yana "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?" hajviy asarlari, 1928-yili "Mehrobdan chayon" tarixiy romani va o'nlab kichik hikoya va ocherklari e'lon qilinadi. 30-yillarda zamonaviy mavzudagi "Obid ketmon" qissasi yaratiladi, yana ko'plab hikoya, ocherk, publitsistik maqolalar yozadi. Gogol, Chexov

kabi rus va g'arb adabiyotining turli namoyandalari asarlaridan tarjimalar qiladi. "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri" nomli romanlar yozish uchun ijodiy tayyorgarlik ko'radi. Biroq 1937-yillarga kelib yana avj olgan qatag'on siyosati milliy ziyolilarni – xalqning o'zligini tanitishga xizmat qiluvchi adib, shoir, olim va muallimlarni, boshqa ko'plab soha kishilarini qurbon qila boshlaydi. Ana shu to'liqda Abdulla Qodiriy ham "xalq dushmani" degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, uzoq qiynoq va so'roqlardan so'ng 1938-yil 4-oktabrda otib o'ldiriladi.

XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarida Abdulla Qodiriy nomi oqlanib, asarlari nashr etila boshlaydi, filmlar suratga olinadi. Lekin adib asarlaridagi hurfiylik, o'z yurtini mustaqil ko'rish orzulari, Rossiya istibdodini qoralash g'oyalari qaychilanib, qisqartirib tashlanadi. Faqatgina yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bu asarlar asl holida to'liq nashr etildi, adib haqidagi tarixiy haqiqatni ochiq-oshkora bayon etgan kitoblar, maqolalar bosildi, filmlar yaratildi.

Adib Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991), "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi (1994). Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Toshkent Davlat Madaniyat institutiga, Toshkentdagi madaniyat va istirohat bog'iga, respublikaning turli shaharlari ko'chalariga, respublikamizdagi ko'plab madaniyat muassasalariga uning nomi berilgan. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari asosida kinofilmlar (1969, 1996, 1973) va ko'p seriyali telefilmlar yaratilgan. Oilalarda farzand tug'lsa, Abdulla Qodiriy romanlari qahramonlari nomlarini qo'yish rasm bo'lgan. Eng muhimi, Abdulla Qodiriy, uning hayoti, ijodi haqidagi bor haqiqatni aytish, yozish, asarlarini asl holida "tahrirsiz" chop etish uchun yo'l ochilgan.

ULOQDA¹

(hikoya)

I

Kecha dadamdan so'rag'anim uchun bu kun akam ham: "Kerak emas, borma!" degan so'zini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonag'a yugurdim. Orqamdan: "Oyog'ing olti, qo'ling yetti bo'lub qoldi-a!" — deb dadam bilan oyim kulishub qolishdilar. Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqamni qashlay boshladim. Jonvor tipir-tipir qiladir, bosh chayqaydir, yer tepinadir, dum silkitadir. Shuning ila manim ko'nglimga: "Xudo xohlasa, kelar yilga biror uloqlar chopayki, hamma mani "Turg'un chavandoz" deb yurutsunlar", — degan tilaklar tushadir.

Katta hayitdagi, hayitlikka olg'an mo'g'or egarcha² bilan g'alaticha qilub toyni egarladim. Tog'amg'a yalinub oldirg'an o'rus yuganni artib-surtib soldim-da, o'zim chetroqdan turub kam-ko'stini kuzatdim:

Quyushqoni ham o'rnida, egar ham yaxshi qo'ng'an. Qorinbog'i ham jifs, yugani ham to'ralarnikidak, lekin o'mildirug'ining yo'qligi biroz ko'ngilga yoqmaydi. Anchagina o'ylanib turgandan so'ng akamning yugan uchun saqlab qo'yg'an tasmasi esimga tushub, sekingina yerto'ladan haligi tasmani olub chiqib, o'mildiruq yasadim.

Endi toycham juda ham gijinglar, xuddi to'ralarnikidak

¹ Bu hikoya 1915-yilda yozilgan edi. Bolalik davrimning yodgori bo'lgani uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim (A. Q.).

² Mo'g'or — mo'g'ul.

bo'lub ketkan edi. U yoq-bu yog'ini tozalab, ustunga qantarib qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulni, o'ruscha shimni, amirkon etukni, duxoba to'ppini kiyish... Ana shundan keyin otqa minsak, chin to'racha bo'lamiz.

Oyimning bir qiziq udumi (odati) bor: "Yangiroq kiyimni kiyaman", — desam ko'zini ola-kula qilub: "Qaqshag'ur, kir qilasan, to'y-po'yga borg'anda kiyarsan", — deb qarg'iy boshlaydir. Ozroq shayton yig'isi qilmaguningcha ish o'ngig'a kelmaydir. Bu gal ham ozroq haligi yig'idan qilub olg'andan so'ng kiyimlarimni kiyub, shohi qiyig'cha bog'lab oldim. Oyimg'a bildirmasdan, sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqub, tashqarig'a chiqdim.

Xizmatchi go'sht kelturib turgan ekan, otixonadan qora qashqani ko'chaga chiqarib turishka buyurub, o'zum go'shtni oyimg'a kirguzib berdim. Tashqarig'a chiqishimda orqamdan oyim:

— Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, uloqchilar orasig'a kirib, biror hodisaga yo'luqma, o'rtoqlaring bilan bir chekkada tomosha qil! — deb jovrab qoldi.

Xizmatchidan otni olub mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirub, bir-ikki qamchi berib edim, qashqacham shatoloq otub ketdi. Xizmatchining: "Xab barakalla, chavandoz!" — degan so'zini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, qashqacham tushkur ko'tarib ketayozdi.

II

Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotib edim, bir to'da uloqchi chavandozlar kelub qo'shildilar. Ularning ba'zisi akamning oshnalari bo'lg'ani uchun man bilan so'rashdilar. Ulardan birisi akamni so'rab edi, men:

— Ertalab uloqg'a ketdi, — dedim.

Ul kulub oshnalarig'a:

— Bizning Mahkamboy uloqg'a juda ham ishqiboz-da! — dedi. .

Yana biravi mandan:

— Yo'l bo'lsun, boybachcha? — deb so'rag'an edi, men uyolinqirab:

— Uloqg'a! — dedim.

Besh-oltisi birdan: "Barakalla, chavandoz, barakalla, Tur-g'un chavandoz!" — dedilar. Ularning "chavandoz" degan so'z-lari menim juda hushimga kelib, ichimdan: "Otangg'a rahmat", — deb qo'ydim.

Biz — bir durkum otliq — boramiz. Ular o'tkan-ketkandan so'zlashib boradirlar. So'z urunub, yana Mahkam akam to'g'ri-sig'a taqaldi.

— Shu choqg'acha ko'b uloqchi ko'rdum, lekin Mahkam-dan uloqg'a serzavqini ko'rmadim.

Sobir tegirmonchining o'g'li To'g'onboy:

— Mahkam boybachchaning ota-bobosi uloqchi bo'lub kelgan-da! (Meni ko'rsatib.) Axir, o'n ikki yashar ukasini ko'r-maysizmi, halitdan uloq chopmoqchi! — dedi.

Bu so'zga manim butun tanam jimirlashib ketdi va kula-yozdim.

Yana bir mo'ylabi shopdak yigit:

— Dadam Mahkamning bobosining uloq chopishini gapu-ra bersa, kishi hayron qoladir: yuz-ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'uz uloqni ajratub chiqar ekan!

Yana birisi:

— Ul vaqtning odamini uloqning piri desangiz-chi! — dedi.

Man bo'lsam bobom maqtovini eshitib, g'ururlanub bora-man. Orqadan ot shatolog'ini eshitib, ortqa qayrilub edik, oldig'a

bir ola echkini o'ngargan, ko'kragi ochiq, yaxtakchan, saman o'tliq bir yigitni ko'rduk. Ul bizga yetib to'xtadi.

To'g'on aka kulumsirab:

— Bu hafta ko'maklashasiz-da, karvon, — degan edi, u:
— Sizdek og'aynilarga ko'maklashmasan bo'ladimi?! Qani, to'xtamanglar, — dedi.

Yurub ketdik. Biroz yo'l borg'ach, haligi yigit tuzimsizlana boshlab otig'a qamchi berdi. “Man tezroq boray”, — deb otini choptira ketdi. Endi so'z haligi oldig'a uloq o'ngarganning oti to'g'risida boshlandi.

Boychachalardan birisi:

— Valadning oti juda ham chopqur-de, uloqchi bo'l-g'aningga yarasha shundaqangi oting bo'lsa! — dedi.

Boyag'i mo'ylabi shopdakning:

— Bodirafrafdek uchadir, — deyishi hamon birdan bosh-qalar kulushub yubordilar.

Kulgiga uning o'zi ham birgalashdi.

III

Akamga M... guzarida uchrashdik. Akamlar samovorchiga jarkob pishirub qo'yish uchun o'rtadan pul yig'ub bergach, tag'i yo'lg'a tushdik.

Ko'cha qishdan boshqa vaqtda suv ko'rmagani uchun ikki gaz kelaturg'an, bilq-bilq turpoq; ellik-oltmish uloqchilar birdaniga yo'l bosub, qaysi otini chopturub, qaysi lo'killatib borg'ani uchun butun ko'chani to'zon qoplag'an. Kishi-kishini tanimasliq holga kelgan edi. Man uyga qaytub borg'anda, oyimning: “Ki-yimlaringni moxov qilubsan!” — deb qarg'ashidan qo'rquv boraman.

Anchagina yo'l borg'andan so'g'un u chopilaturg'an yerga

yetdik; huvv... to'rt tomoni ko'z ilg'amayturg'an darajada ulug' bir qir ekan. Munda uloqchi otliqlar ila tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo'q edi.

Katta sadaqayrag'ochning tegida ikki zo'r samovorg'a o't qalab qaynatadirlar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to'rt qop bodringni bir-biriga suyab: "Mirzaqiron bodring, kasir-kasir bodring!" — deb maqtashadirlar. Akamlar sadaning ostig'a — choyxonag'a otdan qo'nishdilar. Kun qizig'ida turish qiyin bo'l-g'ani uchun man toychamdan tushmasam-da, sadaqayrag'och-larning bir bag'rig'a borub turdim.

Yonimdag'i kishilar to'zimsizlanib, uloqning boshlanishini kutadirlar. Birisi: "Bu kun uloq qizimaydir", — desa, ikkinchisi: "Yo'q, bu kun uloq juda ham qiziydir. Salim chavandoz bilan Murod ham kelar emish!" — deydir. Yana oradan birov:

— Ha-ha! Agar ular kelsa, uloq qizimay qolmas. Salim-ning oti qozoqi ot, qamchi ko'tarmaydir, "hayt", desa, bas!

— Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko'rinmiy bosh-ladi, ana shunisiga to'g'ri kelmas edi!

— Ha-ha, man ham ko'bdan beri ko'rmayman: girdig'um-dan kelgan qora to'ruq yigit edi-a?

— Bali-bali, otangg'a rahmat! Ana, o'sha yigit, shuncha so'rog'lasam-da, anig'ini bilmadim!

— Shu yigiting, to'g'risi, anchagina janjalg'a-da sabab bo'ldi. Birovi: "O'lub ketkan!" — desa, ikkinchisi: "Tirik!" — deb, qichqiradir, munga kimdir birisi qarshi tushub: "Ot boskan, do'xturxonada o'lgan!" — deydir. So'firog'i: "Birovga yomon nafas qilmanglar! — desa, allakim: "O'lsa-o'lgandir, bunga nima janjal?!" — deydir. Tag'i birov: "Bekor ham o'lturubbiz-da!" — deb kuladir.

Tag'i: "Sirasi-sirasi!" Tag'i shovqun-suron, tag'i: "Ha-ha!" "Yo'q-yo'q!" Bir kishining: "Ana, uloq keldi!" — deb yuborishi bilan hamma tib-tinch bo'lub, xalq uloqg'a qariy boshladi. Tag'i

birozdan keyin: “Ulog‘i yosh ekan!” — “Shunisi tuzuk, shunisi!” — degan so‘zlar boshlang‘an ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o‘ynatib kirishi oradag‘i tovishlarni o‘chirdi. Sekin-sekin: “Salim bilan Murod chavandoz”, — degan shivirlashuvlar maning ham diqqatimni shu ikki otliqg‘a jalb etdi. Ularning birisi ko‘k, ikkinchisi ola otqa mingan chapan yigitlar edi. Endi tomoshachilar uloqni to‘zumsizlanib kuta boshladilar. Xalq ichidan allakim!

— Ana endi chin uloq ko‘rasan! — deydir.

Tag‘i birov:

— Bu kun qiyomat ulog‘i bo‘ladir! — deb boshi bilan yanib qo‘yadir.

Chavandozlar to‘g‘risida yana guvr-guvr so‘z boshlandi:

— Murodning otini ko‘r, xudda qanoti borg‘a o‘xshaydir!

— Chovkarni aytasanmi, to‘ruqnimi?

— Ikkisiga ham ot yetmaydir, ikavi ham yaxshi zot!

— Qulog‘i chimirilgan ot chopqur bo‘ladi!

— Quloqda gap yo‘q, gap zotda!

— Yo‘q-yo‘q, serkishnovda, o‘zim sinab ko‘rdim!..

— “Qora ot chopqur bo‘ladir”, — deganlar. Qorasi yaxshi, qorasi!

— Dadam ot olganda, tuyoqig‘a qarab olur edi, gap tuyoqda!

Bahslashadirlar. Har kim o‘z tanishi bilan talashdi. Man ham shu to‘g‘rida o‘ylab, ularning degan nishonlarini qora qashqamdan qidirib, topsam, suyunib — topolmasam kuyunib turaman.

Bizning mahalladagi uloqchilar ham kelishdilar. O‘rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqlar ham bor edi. Ular mening yonimga kelishdilar.

Nurxon dadasidan ola yo‘rg‘ani so‘rag‘anda, qilg‘on bahonasini aytub kuladir. Haydar soqov saman otining yo‘lda Shokir

mishiqining baytaliga kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladir. Kulishamiz. Shokir mishiqi burnini torta-torta: "Uyalib ketdim. Mundan so'g'un biya minmayman", — deb qizarib bo'zara-dir. Otamning umildirug'iga ularning havaslari kelub, bahosini so'rashadirlar, man: "O'n besh tanga", — deb kumush qamchini ham ko'rsunlar uchun o'ynagansumol egarning qoshig'a taq-taq urib qo'yaman. Ular: "Qani-qani", — deb qo'limdan olub ko'radirlar. Man sekingina boshimni qimirlatub, o'zimda allanima sezinaman. Ularning otlarig'a, o'zimmikiga, kiyimlariga, kiyimimga qarab, o'zimni ulardan allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov .tutla-tutla: "Kelinglar, bir choptirayluk", — dedi.

Nurxon ko'nmasa ham yuganidan tortub olub ketdi. Chidab turib bo'lmas ekan: ularning ketidan qora qashqang'a bir-ikki achchig' qamchi berub yuborishim bormi, jonvor o'n odumida ularni yo'lda qoldirib ketdi. Anchag'ina uzoqlab, ortimdagi xalqg'a qarab edim, ko'zlari manda ekan, yana qattig'roq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib, otni to'xtatdim. Bir talay vaqtdan keyin ular otlarini lo'killatishib manga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqurlig'i to'g'risida so'zlashdik. Nurxon otining chopmaslig'ig'a akasining issiq holda suv berganini sabab ko'rsatadir. Haydar soqov bo'lsa, Eson ko'knorining o'g'lini so'ka-so'ka:

— Bozorg'a un uchun borayotqanimda, bexos tom boshi-dan guvala tashlab yubordi. Otim shundan beri qamchi birla yuz ming ursang xam, qulog'ini chimirib, hurkub turadir! — deb so'kinadir.

Manim otim to'g'risida Haydar aytadi: "Saning, — deydi, — otingg'a hech ot bolasi yetmaydi..." — deydi. Nurxon aytadi: "Otdan saning baxting bor ekan" — deydi. Shu yerda uzoqqina so'zlashib turg'andan so'ng yana otni keying'a qarab qo'ydiq. Tag'i ulardan o'zib ketdim. Xalqg'a yaqinlashg'ach: "Mani ham

tanib qo'ysinlar-chi", — deb toyimni qitnab yuborishim bormi, shomol-de, shomol... Endi xalq bir o'zimga, bir qora qashqamg'a tikila boshladi. "Mana, endi taniysan", — deb toyimning yolini qamchi sofi bilan tarab tura berdim.

IV

Yonimizdagi tomoshachilar:

— Ana-ana, uloqning solig'ini yig'ub yetibti!

— Uloq hozir boshlanadir!

— Murod chavandoz ham turdi!

— Salim qalpog'ini kiydi!

— Tursun qassob uloqni bo'g'uzlamoqchi, ana pichog'ini qayradi!

— Boybachchalar ham turishdilar!

— Salim choponini yeshmoqchig'a o'xshaydir!

— Hab, barakalla, shovvozlar!

Juvir-juvir boshlandi. O'rtoqlar bilan biz ham to'zimsizlanib, uloq boshlanishini kutamiz.

Chavandozlarning qaysisi to'nini chechmakda, qaysisi oti-ning ayilini mahkamlamakda va qay biri uloqg'a soliq bermaqda edi. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to'nini manga berib, o'zi o'rtağa ot o'ynatib ketdi. Endi uloqchilar ma'rakaga jurm bo'la boshlag'an bo'lsalar ham, lekin hamon uloq boshlanmag'an edi.

Butun tomoshachilar sabrsizlanib: "Uloqni so'yib bo'lmadimi, yaxlab qoldimi?" — deyishadirlar.

Huv, oradan talay vaqt o'tkandan so'g'un bo'g'uzlang'an uloqni oldig'a o'ngarib, Orif sarkor va uning ketidan boyagi mashhur chavandozlar ham qalpoqni chakkaga qiya qo'yub, egarga qiyshuv o'lturub, o'rtağa kirdilar. Tomoshachilar uloqni

ko'rgan on: "Xah, jonvor, bormisan?" — deyishdilar. O'rta-dagilardan allakim:

— Uloqning qoni yaxshi yuvildimi? — deb so'ragan edi, Orif sarkor:

— Xotirjam! — deb uloqni shalq etib yerga tashladi. O'zi bizga yoqinroq kelib:

— O'rtoqlar, bola-chaqalarni chetka chiqaringlar, ot oyog'ida qolmasunlar, o'zlaringiz ham ehtiyotroq joyda turinglar! — deb vag'iz qildi.

Orif sarkor fotihani olub, otini yugurtirib, to'daga ketdi. Tomoshachilar o'rtadagi bilish-tanishlariga: "Bugun g'ayratinglarni ko'ramiz-da!.." — deb baqirishdilar.

Endi uloq boshlandi. Birisi oladir, ikkinchi birisi tortadir... Ikkinchining yonig'a uchunchi, to'rtinchisi tushib, birdan hamma uloqchilar o'rtaga olub tortishadirlar... Har kim o'ziga olish harakatida... Biri uloqning dumidan tutsa, ikkinchi, uchunchilar oyog'idan, yolidan tortadirlar. Shu ravishda yarim soat tortishuv — echkini yoq-yoqdan buydashuv borg'andan so'ng qaysi bir xudo yarlaqag'ani o'rtadan uloqni olub chiqsa, ketidan uloqchilar chug'urchuqdek yopirilub, tag'i tortish boshlanadir.

Tomoshachilardan: "Taqimga bos, taqimga!", — "Boshini qo'y, chovig'a qamchini shig'ob ber!" "Bo'sh kelma, mahkam tut!" "Yuganni bo'shat, qamchini tishlab tut: yoningga alaqisma!" "Tutding-tutding, berma, chapka burul, chapka!.." — degan tovishlar halidan hali eshitilib turadir. Uloq yerga tushib-netib qolsa, tomoshachilardan qaysi biri yugurib borub, uloqni yerdan oladur. Ukasimi, o'rtog'imi — kim bo'lsa ham o'z yaqinig'a tutquzmoqchi bo'ladir. Lekin boshqa uloqchilar uloqni undan olmoqchi bo'lub ustiga yig'iladirlar. Ul bermaydir. Boshqalar o'rtaga siqadirlar...

Anchadan keyin bechora oqsoqlanub yoki qo'lini silab o'rtadan chiqadir. Tortg'an azobini so'zliy-so'zliy bir chekkaga

ketadir.

Ota bolani, aka ukani tanimaydir, chang-to‘zon, terlangan-pishilgan; har kim uloqni taqimga bosmoq qayg‘usida... Bosh yorilub, ko‘z chiqg‘an bilan, otdan yiqilub, qo‘l singan bilan ish yo‘q — ishqilub, uloqni taqimga bosilsa bo‘lg‘ani!.. Taqimga bosish o‘zi nash‘alik-da!

Taqimga bosmoq har kimga ham muyassar bo‘lmaydir. Taqimga ko‘broq bosg‘uvchilar haligi chavandozlar: azoblanub bo‘lsa ham taqimga bosg‘ach, otqa qamchi berib, ellik-oltmish gaz nariga qochub, boshqalar tarafidan yana tutiladirlar. Yana tortish...

Uloq boshlang‘anig‘a biror soat vaqt o‘tkan edi. Birdan uloqchilar suv quyg‘andek tinchib, tortish o‘rnida to‘planishib qoldilar. Biz otliq, yayov tomoshachilar hammamiz ham o‘rtag‘a yugurishdik; man keyinroq borg‘anim uchun otliq yayov xalq o‘rtani sirib olg‘anlar va man bir chekada qolg‘an edim. O‘rtag‘a kirishning ebi bo‘lmag‘ach kishilarning so‘ziga quloq solub turdum. Lekin uloqchilar orasidag‘i gap barchaga ham noma‘lum bo‘lub, har kimning yuzida taajjub va og‘zida yonidag‘idan: “Nima gap-a?” — degan savol edi.

Bir qanchadan keyin o‘rtadan: “Qimirlatmang-qimirlatmang!” — degan tovish eshitilub, xalq yana to‘zimsizlanib ketdi.

— Nari, bo‘linglar-o-o-av! — deb o‘rtadan birov baqirdi.

Xalq bir chetlik bo‘lub, yo‘l ochdi.

— Nima gap? Nima gap?!

— Hech narsa emas, Esonboyni ot bosibdir!

— Qo‘rqunch emasmi?

— Yo‘q.

— Sag‘al...

Qishilar bir-birovlarig‘a: “Falakat-falakat”, — deyishdilar.

“Nari tur, beri tur” bilan besh-olti kishi otqa bosirug‘ bo‘lg‘anni o‘rtadan olub chiqdilar va sadaning tegiga keltirub, yot-

quzdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi. Bittasi: “O‘ziga kelarmikin?” — deb, ot bosqan Esonboyning yuziga suv sepub ko‘rgan edi, qimir etmadi.

— Besh-olti otning tegida qoldi-da, bechora!

— O‘nta otning tegida qolsa ham hech narsa emas-a: qaltisroq yeridan bosqanga o‘xshaydir...

— Umri boqiy bo‘lsa, hech gap emas...

Bechora bultur, hayitda manga yarim so‘m hayitlik bergan edi. Shuning uchun: “Ilohi, yaxshi bo‘lsun”, — deb ko‘ngildan o‘tquzdim.

Arava keldi. Esonboy akani aravaga olub yotquzdilar. Akam uch-to‘rtta o‘rtoqlari bilan arava yonida Esonboyini kuza-tib, shaharga jo‘nadi.

— Sho‘r paxta qilsun, kepak qizitub bossun! — deb dori buyurishib qoldilar.

Ular jo‘nag‘andan keyin uloq tag‘in boshlanib ketdi. Man uloq tugaguncha tomosha qilub turdim. Lekin, yaxshiki, endi hech kimni ot bosmadi...

Kecha mani ot qoqqan ekap. Chunki o‘rnimga kirib yotishim bilan tarrakdek qotub uxlabman. Ertalab oyim: “Tur-tur tezrak, dadang kelsa, urushadir”, — deb ustimdan ko‘rpani tortub tashladi. Man uyquliq ko‘zim bilan: “Dadam bozor ketmadimi?” — deb so‘ragan edim:

— Esonboyini janozasida! — deb javob berdi.

Manim uyqum o‘chdi...

TINCH ISH

(hikoya)

I

...Endi bu zot ham ulamodan biri edi.

O'z ahli tarafidan varasat ul-anbiyo qatorig'a kiritilgan uchun mertik-sertiklarning falon-tuganiga quloq solishning ham keragi yo'q edi. Yigirma besh-o'ttuz yilni madrasa turpog'i yalab o'tkazgan bir kishini, tabiiy, bizda ulamo qatoriga kirgizmay hol yo'q. Ham ana shu madrasa turpog'ini o'ttuz yil yalab, shul turpoq yalovchi ajrini¹ olgan edi. Avom o'rtasida bo'lsun, ulamo orasida bo'lsun ul: "Domla Sharif Oxund" bo'lib tanilg'an va bu otni eshitkan yetti yashardan yetmish yasharning ko'z oldiga katta salla, uzun chopon, semiz gavda, o'ng qo'lining yengidan to'rt ellik tasbeh uchi ko'runub turg'an, qip-qizil barkash yuz, mosh-birinchi soqol bir kishi kelib bosar edi.

Bu zot diniy olim bo'lish ustiga siyosatdan ham xabarsiz emas edi. Amerika, Olmoniya (Germaniya), Angliya, Yopo'niyo, Faransiya, Belgiya va shuning kabi har davlatlarni yodla bilar edi. Bularning hunarlarigacha ayrim-ayrim ajratar edi. Masalan, Amerika — o'zi faranglarning bir aymog'i; hunari: amirkon, teri ishlaydir. Amirkon paxtani ham shu chiqarg'an. Germaniya — to'p, to'pxona, urush aslahalarini ishlaydir. Osmon popo'rini² ham shu kofir chiqarg'an. Angliya — bu juda hunarmand, biroq

¹ Ajr — mukofot, evaz.

² Osmon popo'ri — samolyot.

o'zining yer yuzida joyi yo'q; ammo dengizga shaharlar bino qilg'an, shuning uchun dengizlar podshosi, deb ataydirlar. Faransiya yoxud farang — bu o'zi mayda-chuyda ishlashga juda ham usta bir kofir; farangi igna moshina, farangi ip, garmafun va shunga o'xshash allahancha qiziq-qiziq narsalarni chiqarg'an. Yopo'niyo o'rusdan Po'rt-Orturni olg'an...

Ana bular endi chet qironlar to'g'risida bilgan siyosati. O'zimizning yaqin qironlardan, masalan, Xitoy, Turkiya to'g'risida yetti yoshlik chog'idan beri ma'lumoti bor.

Xitoy — hunari xitoy qog'oz, ipak jujum, jonon piyola... Nufusi¹ juda ham ko'b: na sanoqda bor, na kitobda bor. Samar-kentni olmog'qa qo'shun tortg'anda, yo'l ustida Nil daryosimi, Jayxunmi degan bir daryog'a to'g'ri kelar ekan, daryoni ko'pruksiz ko'rganda, sira qarab turmay, chirigini (askarini) suvg'a bosib, odamdan ko'pruk qilib o'tub ketar ekan. Mana, ko'pligi shuncha ekan!

Turkiya — yer yuzining sultoni; kofirlardan boj-xiroj oladir. Qahr-u g'azabidan zamin-u zamon, makin-u makon tit-raydir. Odamlarini uch yuz oltmish kun ro'za, yigirma to'rt soat namoz o'qug'uvchi avliyo deb biladir. (Bu yerda muallimchilik qilib yurgan asir turklarni ul turk deb bilmaydir. Balkim, yolg'ondaki turk oti ostig'a yashiringan kuffor, deb buzuvchi, armanni deb bilganidan ushbu mal'unlarga ergashib yurgan musulmon bolalarig'a chin ko'ngildan achinadir...)

Buxoro to'g'risida so'ylash kerak emas: barchamizga belgili, islomning boshqa shaharlariga ko'kdan nur yog'ilg'an holda, shu shaharlarga yog'dirmoq uchun Buxoroyi sharifdan farishtalar orqali ko'kka nur chiqarilur ekan!..

Mana, uning siyosatdan ma'lumoti.

O'zi mudarrislikka saylanmasdan ilgari oq podshohg'a

¹ Aholi.



nima uchundir, mastravoylar kabi, yovliq-dushmanliq saqlab yurar edi. Allanarsa-mov degan to'ra tomonidan mudarrislikka "ukaz" berilgach, oq podshohning yashamog'ig'a qo'l ko'tarib, duo qilg'an kundan boshlab, o'zida Nekalayga bir yaxshi istak seza boshlaydir. To'g'ri kelgan yig'inlarda: "Podshohlar — nisfi-nubuvvat¹", — deganlar, "Kofir bo'lsa ham nabaviyat, ya'ni payg'ambarlikning yarim kuchi bor", — deb oq podshohi yuqori ko'tarib qo'yadir.

Orada urush boshlanib, Turkistonda rabochiy masalasi qo'zg'olg'onda, alg'ov-dalg'ovg'a kelgan kishilarga:

"Podshohning amri vojib, ma'non vojib-farzlig'ida ozg'ina shubha bor. Ma'non farz — amri ilohiy", — deb elni shovshuvdan to'xtatmoqqa tirishadir. "Germon unday hunar ko'r-satibdir, oq podshohning buncha shahrini olibdir", — degan xabarlarg'a sira ishongisi kelmay: "Germonning yuz o'n besh gaz to'pi bor, men buni Germonning o'zidan-da yaxshiroq bilaman. Ammo u qanday hunarmand bo'lsa-da, Rusiyaning birta tukini kam qila olmaydir. Rusiya bunga o'xshash Germonning bir yuzi bilan urushib ko'rgan; oq podshoh endi er nazar qilgan", — deb yuradir.

II

1917-yil fevral so'ngg'idan o'zgarish boshlanib, oq podshohimiz taxtdan tobutg'a olinur. Birinchi martdan boshlab el og'zida "Nekalay taxtdan tushurilib, yangi hukumat tuzulubdir", — degan xabarlar yura boshlaydir. Biroq bu xabarlarg'a bizning Oxund domla sira ishonmaydir. Shu xabarlarni so'zlag'uvchiga qiziq bir turush bilan: "Ey, sen ahmoq bo'lub qoldingmi? Oq podshohni o'rnidan tushurub bo'lar emish? Yaxshikim, bu so'zni

¹ Yarim payg'ambar.

manga aytding, yomonroq kishiga aytsang, boshing ketadir, boshing! Damingni chiqarma! Bu xabar — mastravoylarning xabari!”¹

— “Mastravoy” degan kim, taqsir?

— Ha, ko‘chalarga tosh teradiganlar-chi, ana shularni mastravoy derlar. Bularning xabariga ishonib bo‘ladirmi?

Oradan o‘n besh kun o‘tub ketadir...

Nekalayning politsa-mirshablari, qozilari, mingboshilari o‘rundan chiqarilib, boshqalar saylana boshlar. Yurtning turushi o‘zgaradir. Saylov yig‘inlarning bir nechasida Oxund domlamizning ham qatnashishlari bo‘ladir. Oxund domlamizg‘a endi oq podshohning chindan-da taxtdan tobtug‘a oling‘ani seziladir, Biroq bu ishka, nima uchundirkim, uning ichi bir turli g‘ash bo‘lub: “Ey xudoyo tavba, bu nima degan gap endi?! — deb qo‘yadir. — Oq podshoh o‘rnidan tushurilibdir, yangi hukumat degan hukumat bo‘lubdir. Ammo mana bu “saylov” degan — nima degan noma‘qulchiliq? Xudoyo tavba!.. Xudoyo tavba... Odamlarning og‘zidag‘i “hurriyat” degani — nima degan so‘z, yerdan “hurriyat”, ko‘kdan “hurriyat”? Bu kun saylov, erta saylov! Xudoyo tavba, xudoyo tavba!..”

El og‘zidag‘i “hurriyat-hurriyat” degan so‘zg‘a birinchi eshituvda tushunilmasa ham lug‘at ko‘rulgandan so‘ng biroz tushunildi,

Oxund domlamiz oq podshohni o‘rundan tushurilib, Kerenskiyning podshoh ko‘tarilganini “bo‘lubdir-bo‘lubdir endi” bilan zihniga sig‘dirsa-da, haligi “yangidan saylov”ni sira miyasiga sig‘dira olmadi. “Elning istagicha yangidan saylov qo‘yish” degan gap uning ichini ari kabi talay boshladi. Nechun ari bo‘lub talamasin? “Madradasining birinchi mudarrisi etilib, Allanarsa-mov yog‘indan berilgan “ukaz”ni bo‘shg‘a chiqarib,

¹ 1914-yilda isyon etuvchi rabochiylar domlamizga masteravoy bo‘lib tanig‘liq (A. Q.).

Oxund domlamiz o'rnig'a boshqani saylaymiz", — desalar!.. Uh-uh!

III

Otun oyimg'a "ukaz"ni olib chiqishni buyurib, o'zi ayvonga o'lturdi. Shu vaqtda chin ko'ngildan oh tortib yuborg'an ham edi. "Ukaz" qog'ozidan bundan bir yil ilgari sanduqqa tushishda Oxund domlag'a qanday umidlar bergan bo'lsa, bukun sanduqdan chiqishda shu daraja umidsizlik tug'dirdi.

Otun oyimdan "ukaz"ni olib, ocha boshladi. Bu qog'oz yaxshi saqlang'ani uchun har qabatini ochilg'an sayin shaldirar va bu shaldirash Oxund domlani allaqanday ma'yus etar edi.

"Ukaz" ochilib bo'ldi. Domlamizning ruschadan xabari bo'lmasa ham hokim mehkamasining mirzosi yog'indan "ukaz"ni berishda: "...Madrassinskiy pervoy mudarris-u gospodinu Mulla Sharif Axundu Mulla Zarif Axunovu", — deb o'qub berishi esiga tushub, o'shal vaqt butun gavgasi til bilan onglatib bo'lmasliq bir lazzat bilan jimirlashib ketkani esiga kelib ketdi. "Gospodin pervoy mudarris"ni ta'yin etib, chiroyli qilib qo'yulg'an burmacha imzolar bilan semurug' qumli tamg'alarg'a ko'zi tushub o'tdi. "Ukaz" qo'lidan yerga tushub ketayozdi... Endi bir necha vaqt hushidan ham ketkan edi...

Esi o'ziga kelgach, "ukaz"ni bukliy boshladi. "Ukaz": "Meni ko'rma ham kuyma!" — degan kabi bo'lub o'z-o'zidan shaldirovsiz buklana boshladi. Otun oyim "ukaz"ni sanduqqa olib ketmak bo'lg'anida, ortidan: "Yaxshi qol", — degan kabi ma'yusona qarab turar edi. Yana bir qattiq "oh" tortg'andan so'ng oq podshohni o'rnidan tushurg'anlari uchun mastravoylarga la'nat o'qudi. Shunday la'nat o'qudikim: "Shul soat mastravoylarni yer yutsa, oq podshoh o'z o'rnig'a o'lturub, "hurriyat", "saylov"ni yo'q qilsa, "ukaz" ukazliqda qolsa!..

Ammo Oxund domlanning duosi qabul bo'lishdan o'tkan edi...

Biroq domlanning bu "saylov" tashvishi va mastravoylarga duoyi badi o'rinsiz bo'lub chiqmadi. Negakim ish domlanning foydasig'a qumorila boshlag'an, yangi oq podshoh (Kerenskiy) vaqtida domlalarimizg'a o'xshag'an "saylov" sichqonlari uchun har qancha ish qilinsa, maydon ochiq edi. Yolg'uz... yolg'uz... "yosh..." degan bir firqani ish boshidan haydalsa...

IV

Endi el orasig'a din otidan yoshlarga qarshi qo'zg'olon yurguza boshlamish edi.

Hozir bizning Oxund domlamiz nima qilar edi!

Domlamizning o'zi siyosiy emasmi?! Ishning tubiga allaqachon tushunib, yoshlarga qarshi elni qo'zg'atish dengizida yuzar edi.

Ish Oxund domlamiz kabilarning foydasi bilan natijalandi.

Endi Oxund domlamizning og'zi qulog'ida! "Din buzg'uvchi dahriy yoshlar" degan jaho og'zidan sachrab chiqib turadir. Domlamiz xuddi mast, hozir domlag'a Nekalay zolim, Kerenskiy odil, "ukaz"ning ham bir tiyinliq qiymati yo'q, istasa — mudarris, tilasa — do'ma¹ vassalom...

V

1918-yilning sentyablari edi kabi... "Yangi hukumat qarshisig'a bolsheviklar qo'zg'almoqda..." — degan xabarlar yura boshladi. Ilgarirak domlamiz bu xabarg'a ko'pda ishonmasa ham keyinrak o'ylay boshladi. Bolsheviklar to'g'risida ma'lumot egasi bo'lmag'ani uchun undan-bundan surishtirmoqqa turdi.

¹ Do'ma — deputat.

O'ho'o'o'... bolshevikni yer yutsun, dinni bilmasa, boy va ulamoni yer bilan yakson qilmoq istasa, mol-mulkni mushtarak o'rtada, deb bilsa!...

Bu ma'lumotni olg'ach, kecha-kunduz: "Ey bor Xudoyo, Kerenskiy hukumatini qiyomatg'acha oyog'idan yiqitma!.." — deb duo qilmoqg'a kirishdi. Voqi'an, hazrat Oxund domlamizning bisotidag'i bor dastmoyalari shulgina edi.

VI

Yigirma nechanchi... oy edi; olamni to'p gum-gumi, pulemut tartaragi bosgan edi. Ikki firqa, ya'ni ulamo bilan ishchi-yo'qsul jon berib, jon olmoqda edi. Oxund domlamiz-da boshqa yoshqa kamolot kutkandan ortiq bir ravishda bo'lsa ham yurak degan ne'matdan mahrum bo'lg'anlari uchun birinchi miltiq tovshi bilan uzlatni ixtiyor qilg'anlar edi. Har bir to'p tovishi Oxund hazratimizga eshutilgan sayin uzlatxonada ichlari shuvillashmakda edi.

Natijada yo'qsul, qashshoq boy va ulamoni yetti qat yerning ostig'a kirguzub yuboradig'an darajada yengdi... Bu xabar Oxund domlamizning uzlatxonalarig'a yetishmish domlamiz jondan umid uzub, har minut kalimai tayyiba va kalimai shahodatni tillaridan qo'ymasdan o'lturar edilar...

VII

Oradan o'n kun o'tdi. Oxund domlamiz yo'q. Yigirma kun o'tdi — daraksiz, o'ttuz kun deganda, ayovli jonni hovich qilib, uzlatxonaning eshikidan o'raladilar. O'ttuz birinchi kunda atakchek qilib uzlatxona atrofida sinash uchun yurib ko'rdilar.

Sekin-sekin bola-chaqalari yoniga borish tinchlik bilan Oxund domlamizg'a nasib bo'ldi. To'p bilan pulemut, bolsheviklarning chin ko'ngul bilan tutqon siyosati va, ayniqsa, siyosiyun-

liq Oxund domlamizning yuragini olib qo'yg'anlikdan bundan so'ng siyosatg'a oralashmasliq bola-chaqa o'rtasida ahd etildi. Tinchgina imomgarchilikda davom etila boshlandi; ilgari bolshevik oralarning kimning otini, kimning yerini tortib olishlarig'a qanday so'z deyishka ojiz bo'lgan Oxund domlamiz "Miftoh ul-jinon" va shuning kabi kitoblardan istihroj chiqarib: "Zamona oxur bo'lub, qiyomat yaqinlashgan ekan, bu kungi bolshevik deganimiz ya'juj-ma'juj¹ va yo dobbat ul-aro bo'lur", — deb o'ylar. O'shal vaqtda bunday demakka, balkim, uning haqqi ham bo'lg'andir. Biroq bu kunda uning ya'juj-ma'juj, dobbat ul-aro haqqindagi fikrlari o'zgarib, bolsheviklarning ham inson ekanligiga ishondi.

Yaqinda... madrasasiga Oxund domla o'rnig'a boshqa bir mudarris belgilandi: ammo bunga domlamizning sira iltifoti bo'lmadi, shuning bilan birobbar "ukaz" ham sandiqda unutilib yotadir, balkim, esiga kelganda, yirtib ham tashlar. Shunday qilib, domlamiz tinchgina imomgarchiligida davom etadir.

Siyosiyunliq vaqti esiga tushg'anda, seskanib ketib: "Yo'q, shayton ozdirgan ekan va yo es ketgan ekan", — deb qo'yadir. Bu kungi imomgarchiligiga kelganda: "Buning o'zi xo'b tinch ish-de!" — deb aytadir.

Voqi'an, Oxund domlamizning o'ziga loyiq ish shunisi edi.

¹ Afsonaga ko'ra, xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi odamxo'r mahluhlar (A. Q.).

O'ho'o'o'... bolshevikni yer yutsun, dinni bilmasa, boy va ulamoni yer bilan yakson qilmoq istasa, mol-mulkni mushtarak o'rtada, deb bilsa!...

Bu ma'lumotni olg'ach, kecha-kunduz: "Ey bor Xudoyo, Kerenskiy hukumatini qiyomatg'acha oyog'idan yiqitma!.." — deb duo qilmoqg'a kirishdi. Voqi'an, hazrat Oxund domlamizning bisotidag'i bor dastmoyalari shulgina edi.

VI

Yigirma nechanchi... oy edi; olamni to'p gum-gumi, pulemut tartaragi bosgan edi. Ikki firqa, ya'ni ulamo bilan ishchi-yo'qsul jon berib, jon olmoqda edi. Oxund domlamiz-da boshqa yoshqa kamolot kutkandan ortiq bir ravishda bo'lsa ham yurak degan ne'matdan mahrum bo'lg'anlari uchun birinchi miltiq tovshi bilan uzlatni ixtiyor qilg'anlar edi. Har bir to'p tovishi Oxund hazratimizga eshitilgan sayin uzlatxonada ichlari shuvil-lashmakda edi.

Natijada yo'qsul, qashshoq boy va ulamoni yetti qat yer-ning ostig'a kirguzub yuboradirg'an darajada yengdi... Bu xabar Oxund domlamizning uzlatxonalarig'a yetishmish domlamiz jondan umid uzub, har minut kalimai tayyiba va kalimai shahodatni tillaridan qo'ymasdan o'lturar edilar...

VII

Oradan o'n kun o'tdi. Oxund domlamiz yo'q. Yigirma kun o'tdi — daraksiz, o'ttuz kun deganda, ayovli jonni hovich qilib, uzlatxonaning eshikidan o'raladilar. O'ttuz birinchi kunda atakchechak qilib uzlatxona atrofida sinash uchun yurib ko'rdilar.

Sekin-sekin bola-chaqalari yoniga borish tinchlik bilan Oxund domlamizg'a nasib bo'ldi. To'p bilan pulemut, bolsheviklarning chin ko'ngul bilan tutqon siyosati va, ayniqsa, siyosiyun-

liq Oxund domlamizning yuragini olib qo'yg'anlikdan bundan so'ng siyosatg'a oralashmasliq bola-chaqa o'rtasida ahd etildi. Tinchgina imomgarchilikda davom etila boshlandi; ilgari bolshevik oralarning kimning otini, kimning yerini tortib olishlarig'a qanday so'z deyishka ojiz bo'lgan Oxund domlamiz "Miftoh ul-jinon" va shuning kabi kitoblardan istihroj chiqarib: "Zamona oxur bo'lub, qiyomat yaqinlashgan ekan, bu kungi bolshevik deganimiz ya'juj-ma'juj¹ va yo dobbat ul-aro bo'lur", — deb o'ylar. O'shal vaqtda bunday demakka, balkim, uning haqqi ham bo'lg'andir. Biroq bu kunda uning ya'juj-ma'juj, dobbat ul-aro haqqindagi fikrlari o'zgarib, bolsheviklarning ham inson ekanligiga ishondi.

Yaqinda... madrasasiga Oxund domla o'rnig'a boshqa bir mudarris belgilandi: ammo bunga domlamizning sira iltifoti bo'lmadi, shuning bilan birobar "ukaz" ham sandiqda unutilib yotadir, balkim, esiga kelganda, yirtib ham tashlar. Shunday qilib, domlamiz tinchgina imomgarchiligida davom etadir.

Siyosiyunliq vaqti esiga tushg'anda, seskanib ketib: "Yo'q, shayton ozdirgan ekan va yo es ketgan ekan", — deb qo'yadir. Bu kungi imomgarchiligiga kelganda: "Buning o'zi xo'b tinch ish-de!" — deb aytadir.

Voqi'an, Oxund domlamizning o'ziga loyiq ish shunisi edi.

¹ Afsonaga ko'ra, xunuk bashara, bahaybat, hamma narsani nobud qiluvchi odamxo'r mahlulhar (A. Q.).

JUVONBOZ

(ro'mon)

Hamal oyini o'n beshlari bo'lub, bahor avvali edi. Havolar isib, bahor shamollari daraxtlarni har tarafg'a egmaqda edi va har xil parrandalar daraxtlarda bir-birlari bila o'ynashib yoqimlik ovozlari bilan sayramaqda edi. Qishi bilan tanchada yotib zerikkan Soliha ham oftobga qarshi solingan ayvong'a uyidan ko'chib chiqib, yolg'uz o'zi do'fi tikmaqda, ba'zi ashulalardan bilgani-cha aytmaqda edi. Goho-goho erini savdodan kelmay kechikanig'a xavf qilub, "Erimg'a nima bo'ldi, savdodan har yili bu vaqtdan ilgari kelur edi va xat ham yozmadi", — deb qo'rqub ham qo'yar edi. Ham o'g'li Sa'dulladan hafa bo'lub: "Sa'dulla tushkur na madrasada turmasa, na uyiga kelmasa, na dadasig'a xat yozub omon-esonlig'ini bilmasa, bola bo'lub aqli kirmadi; Sa'dullani qurib ketkur Rahim shayton aldab yo'ldan chiqardi, unga ota ham kerak emas, ona ham kerak emas, uy ham kerak emas; Rahimjon besoqoli o'lgur bo'lsa bo'ladi; Rahimjon o'lgur, munga bir balo bo'ldi, kecha-kunduz samovorda, uloqda, takyada, bilmayman, yana qayog'larda! Nahotki, o'g'lumni bir kun uyig'a yubormasa, endi mundoq Rahimjon bilan yura bersa, issiq-sovuqchi domlaga borub, uch tanga bilan o'g'lumni "Rahimjondan sovutib qo'ymasam bo'lmaydigan o'xshaydi", — deb xo'rsinib qo'yar edi. Shul vaqtda birov eshikni qoqdi, Soliha oyog'yalang yugurganicha yo'lakg'a borub: "Kimsiz?" — dedi. Eshikdagi: "Man Raufboy akamni oldidan xat keltirdum, hovlisi shulmi?" — dedi. "Ha, uylari shul, o'zlari eson-omon yurubdir-larmi?". "Ha, sog'-salomat yurubdurlar, sizga va o'g'ling'izga

salom deb yubordilar, shul hafta ichi kelub qolsalar kerak. Mana, bu xatni oling”, — deb eshikni tirkishidan xatni tashlab, jo‘nab ketdi. Soliha yerdan xatni olub, shoshib-pishib ochib, o‘qumoqqa boshladi. Solihani onasi katta otun bo‘lganlikdan qizi Solihani ham o‘qutib, otinbibi qilgan edi; Soliha ulkan joylarga borib, diydiyo kitoblaridan o‘qub, avoma xotunlarni yig‘latib yurgani uchun shaharda Otun nomi bilan ismi chiqq‘an edi. Soliha yarim soatg‘acha xatni o‘qub, zo‘rg‘a shul adrurona mazmunni topdi:

“Duoyi salom, Raufboy padaringizdan mulla Sa’dulla o‘g‘limizg‘a ma‘lum bo‘lsunki, bul yerda, alhamdililloh, sihat va salomatdurmiz va sizni ham onda Xudovandi a‘lam salomat saqlasun. Yana so‘z shulki, necha vaqtdan buyon sizg‘a salomatligimizni xat yozub ma‘lum qilolmaganimizning sababi xat yoza-durgan odam topilmaganidur. Bu xatni ham no‘g‘ay maktabig‘a borub, bir bolag‘a yozdurdim. Biz yanaki haftalarda, Xudo xohlasa, borib qolsamiz kerak. Bizdan onangiz va boshqa so‘ragan qavm-qarindoshlarga salomimizni aytasiz.

Mehribon otangiz RAUFBOY.

...yilda, hamalda, ...shahrida”.

Soliha suyinganidan xatni qayta-qayta o‘qumoqda edi. So‘ngra uy asboblarini yig‘ishtirub supurmoqg‘a va choynak, piyola, samovorlarni yuvmakg‘a boshladi. Chunki Raufboy iflos joylarni yomon ko‘rar edi.

Sa’dullani bu dadasidan kelgan xatdan xabari ham yo‘q, madrasadan chiqqandan buyon Raufboyini ro‘zg‘origa xarajatga yuborgan 150 so‘m pulini samovorlarda, goho pevaxonalarda, Rahimjon besoqoli bilan sarf qilub, uyig‘a o‘n, o‘n besh kunda bir kelsa kelub, kelmasa samovor va nomerlarda Rahimjonni ayshini surub yurar edi. Bu kunlardagi aysh-u rohatlari butun bu dunyoda yurganlig‘ini esidan chiqarg‘an va o‘zini bir boshqa

dunyoda yurg'an kabi ko'rar edi. Ham dadasi Raufboyini kelurini poylamaqda edi. Shul sababdan Rahimjon: "Besoqolim pul to-pub ber yoki falon joyg'a olub bor, — desa, qandoq qilaman, pulimni yo'qligini bilub, mendan arazlab qaytib qolsa, be-soqolimdan ajralib qolaman", — degan xayol bilan: "Dadam kelsa, bir hiyla bila ko'broq pulidan olub qolurman", — deb Raufboyini poylar edi. Sa'dullani baxtig'a, G'oyibboy aka o'g'li Rahimjonni madrasadan chaqirib olg'an edi. Chunki madrasada Rahimjon "sovuqroq" bo'lg'ani uchun mullabachchalar yaxshi ko'rushub, bir-birlarig'a g'ashlik qilub, G'oyibboy akag'a: "O'g'lung falon mullabachcha birlan mundog' ish qildi va falon-fiston", — deganlari uchun G'oyibboy akani achchig'i chiqib: "Bul vaqtini mullabachchalari ham qursun, o'zi ham qursun, mulla bo'lub manga nima foyda qilub berar edi; mundog' malo-mat bo'lub yurgandin o'qumagani yaxshi", — deb madrasadan chiqarib olg'an edi. Sa'dulla madrasadagi mullabachchalar ichida Rahimjonni eng yaxshi ko'radurganlardan edi. Sa'dullani yoshi yigirma to'rtlarda bo'lub, to'qquz yoshida maktabg'a kirub, yigirma yoshida bazo'r savodxon bo'lg'an edi. Raufboy aka o'g'lum mulla bo'ladirgang'a o'xshaydur, degan xayol bilan madrasag'a bergan edi. Sa'dulla to'rt yildan buyon "Qofiya" o'qumaqda bo'lub, ko'bda darsg'a ishtahasi bo'lmay, doim umri sheriklari bilan besoqolbozlik ilmida o'tub, o'qugan saboqlari falonni o'g'li xo'b yetilibdir, anuvni o'g'lini bir kechasi bazm qilishni iloji bormikan... lardan iborat edi. Raufboyini qarib ko'r-gan yolg'uz o'g'li bo'lganligidin mudarris afandig'a: "Koyi-mang, ko'ngli ogrimasun", — degani uchun mudarris afandi Sa'dullani ba'zi beadabchiliklarini nazar vaqtig'a olmas edilar.

Raufboy o'zi aytkan kunida uyiga yetub keldi. Xotuni va Sa'dulla bilan ko'rushdi. Bonkadan to'lovi borlikdan olub kelgan oqchasini to'ladi va o'rnig'a to'rt ming besh yuz so'mlik veksil qo'ydi. Raufboyini yoshi oltmish to'rtlarda bo'lub, yoshlik vaqti-

da zamonani yigitlarig'a o'xshab, besoqolbozlik, qimorbozlik va shunga o'xshash ichkuliklarga o'rganmay, topkan oqchasini to'flab, tugib, ko'payturgan edi. Buni baxtig'a, xotuni Soliha ham o'ziga tuzukroq kishini qizi bo'lganlikdan bir ming so'mg'a yaqin o'z merosidin kelturub bergan edi. Raufboy uch-to'rt ming so'mlik bo'lub, Turkistonning mashhur katta shaharlarida savdogarchilik qilur edi, hamma shaharlarg'a Raufboy deb ot tanitgan edi. Boylig'iga mag'rur bo'lub, o'g'li Sa'dullani karnay qo'yub, necha kun osh berub, to'y qilgan edi. Va bu to'yning sharofatidan shahar boylarini sa'ylari bilan bir-ikki bonkadan kredit ham ochqan edi. Ucho't (bonkag'a qo'yilgan veksilini ko'ruvadurgan kun) kuni o'lub, bonkag'a chiqib qo'ygan veksilini o'tkan-o'tmaganligini so'raganida, ikkinchi ucho'tg'a qolganligi uchun ikkinchi ucho't kunini kutib turdi. Savdogarchilik qiladurgon shahridagi do'stidan bir xat keldi, mazmuni shundan iborat edi:

"Duoi salom, kamina Karimboy do'stingizdin, hurmatli Raufboy do'stimizg'a ma'lum bo'lsunki, siz munda ekanlig'izda bozorimiz kasod edi, hozirda savdolar yaxshi bo'lub ketdi, xususan, sizni ba'zi matolaringizni oladurgan Chin (Xitoy) savdogarlari keldilar; man keluringizg'a to'xtatub turubman. Agar-da janobingizg'a foyda kerak bo'lsa, shul xatni olgan zamon kechani erta olub jo'nang. Ikki-uch kun hayollab qolsangiz, savdogarlarning ketuvi muqarrardur.

Do'stingiz KARIMBOY.

O'ninchi hamalda, Turkiston shahrida".

Bu xatka Raufboy hayron bo'ldi. Bosh-olti kun to'xtab, bonkadan pulni olub ketay, desa kechg'a qoladir, so'ngra Sa'dullag'a natorisdin doverens (vakolat) qilub berdi. Va ham pulni bonkadan olgandan so'ng: "Menga yuborarsan, chunki arzon bahog'a mol olaman, ko'b foyda qilaman; Xudo xohlasa,

yana kelganimda, seni uylanturub qo'yaman", — deb ta'kidladi. Yana Sa'dullani madrasag'a borub o'quvini, bekor yurmasligini o'tunub, savdoga jo'nadi. Ucho't ertasi Sa'dulla bonkag'a chiqib, to'rt ming so'mlik veksil o'tkan ekan, xushvaqtlik bilan oldi. Har vaqt o'ylar ediki, dadamdan ko'broq oqcha olub, Rahimjon bilan tamosha qilsam, deb. Lekin dadasini ko'b oqcha bermasligiga aqli yetub, noumid bo'lur edi, Shul sababdan: "Dadam koyirmukin, pul so'rasam", — deb oqcha so'ramagan edi. Mana endi qo'liga mo'maygina pul tushdi. Sa'dullani xursandligig'a bois bo'ldi. Rahimjonni yonig'a olub, avvalgi tomoshalarig'a mashg'ul bo'ldilar. Sa'dullani shahri musulmonlarni katta shahri bo'lganligidan musulmonlar g'ayrati bilan bir minglab pevaxona, besh yuzlab bangixona, bir yuzlab nasha, ko'knorixona, elliklab xufya qimorxona, o'ttuzlab bachchalik takya, yana mundin boshqa allanimalar, choyxonalar, yana har jum'a kuni musulmonlar o'zaro yig'ilub, oqcha yig'ib, uloq chopar edilar. Rahimjonni uloq chopug'a xohishi borlikdan Sa'dullag'a aytub, uch yuz so'mg'a ot oldurub, har jum'a kuni uloq chopug'a boshladi. Shaharda ba'zi yigitlarga: "Falon boybachcha juvonig'a uch yuz so'mg'a ot olub bergan emish", — degan ovozarlar ham bo'lub turganig'a Sa'dulla chin ko'ngildan juvonbozlikni o'lguncha tark qilmasligig'a qaror berub qo'ygan edi. Bir jum'a kuni Rahimjon uloq chopkan vaqtda oti bir narsag'a qoqilib yiqilib, ma'yub bo'lg'ani uchun Sa'dulla olgan pulidan necha hissa kamig'a, sotib, yana bir ot olub bergan edi. Yana bir kun uloq chopkan vaqtda oti bir narsadan hurkib, olib qochib yiqitdi, Rahimjonni qo'li sindi.

Sa'dulla: "Besoqolimni o'ldirib qo'ysa, qandoq qilaman?" — deb otni yarim bahosig'a sotib, bir necha kun Rahimjonni tabibg'a ko'rsatmoqg'a boshlab, qancha puli tabibga ketdi. Rahimjon tuzalgandin keyin uloq chopuni tashlab, shahardagi takyalarda, qimorxonalarda, pevaxona, nomer resto'ranlarda Sa'-

dulla ikkalasi yurmoqg'a boshladilar. Bir necha vaqtdan keyin Raufboydan o'g'li Sa'dullag'a bir xat keldi, shul mazmunda edi:

"Ma'lum bo'lsunki, mulla Sa'dulla o'g'lumg'a. Agarda bonkadan pulni olgan bo'lsangiz, yoningizda saqlamay, tezlikda po'chtadin menga yuboring. Chunki munda oqchag'a nihoyatda zarurmen, arzon narxlik mollar bor; shu mollarni olsam, ko'b foyda qilsam kerak. Albatta, shul xatni olgan zamon yuboring".

Bu orada Rahimjonning dadasining ko'b qarzi bo'lub, puldorlar qattig' qistaganlikdan G'oyibboy aka Sa'dullag'a: "O'g'lum siz bilan yurub, bir tiyin bo'lsun foyda qilmasa, bekor siz bilan yurub nima qiladur? Endi bir boshqa kishiga xizmatka qo'yub yuboraman", — deganida, Sa'dulla: "Manga hamisha bir odam kerak, bo'lmasa men qarzingizni berayin", — deb yetti yuz so'm pul bergani uchun, bonkadan olgan oqchasi tamomlangan hisobig'a yetib qolgan edi. Shul sababdan otasig'a shul ravishda javob yozdi:

*"Men ham munda savdogarchilik qilub, anchagina foydalik bo'ldum. Mollarimni sotib, oqcha qilub tezlik ila sizg'a yuboraman, mundan xotirjam bo'lasiz"*dan iborat xat yozdi.

Mundan so'ng Rahimjon bilan avvalgi aysh-ishratda davom etmakda edi. Ba'zi vaqtlarda resto'randan mast bo'lishib yarim kechada qaytishlarida, yo'lda yomon odamlar ushlab, urub, so'kub, o'ttuz, qirq so'm pullarini olur edilar. Shunday qilub, oz vaqtg'a bonkadan olgan oqchalar tamomlandi. Sa'dullaning karmonidan birda xabari yo'q edi. Yana bir kun resto'rang'a chiqishib ichishib, jo'namoqchi bo'lub, Sa'dulla karmonig'a qaraganda, puli odo bo'lganlikdan resto'ranchi Sa'dullaning to'n, kamzullarini garovg'a olub qolg'anig'a nihoyatda tajang bo'lub, yana Rahimjonning ikkinchi kuni yonig'a kelmaganig'a chiday olmay, bir necha og'a-inilaridan oqcha so'raganida,

“yo‘q” javobini eshitgach, onasi Solihadan berkitib sanduq, samovor, namad, yana boshqa nimarsalarni uyidan o‘g‘urlab, sotmoqg‘a boshladi. Bul oqchalar ham tugallangach, noiloj bo‘lib, bog‘idagi terakni hech kimg‘a bildurmay arzonig‘a sotkani uchun pulg‘a serobgarchilik bo‘lub qoldi.

Jum‘a kuni kechqurun Sa‘dulla, Rahimjon yangi kamzul, yangi to‘n, yangi kafsh-mahsilarini kiymoqg‘a boshladilar. Chunki Karim pahlavon gapig‘a taklif qilgan edi. Gapg‘a bordilar, bularg‘a mehmonxonani to‘ridan joy tegdi, taomlar yeyildi, dasturxonlar ko‘tarildi, biroz lutfbozlik ham bo‘lub o‘tdi. Sa‘dullag‘a bir hodisa ish ro‘y berdiki, agar mundog‘ ish bo‘lurini ilgaridan bilsa, o‘zi va besoqoli Rahimjon ming so‘m foyda bo‘lganda ham bu joyg‘a qadam bosmas edilar va Sa‘dulla bir necha gapxo‘rlarning “Sa‘dulla boybachchalikni davrini xo‘b survotdida, yana mundog‘ chiroylik bolani yonig‘a solib yurubdur”, — degonlarig‘a va boshqa gapxo‘rlarning: “Bu bolaning ko‘yida qancha ming pulni barbod berdi, har qancha qilsa Sa‘dullag‘a yarashadur, chunki otasi ko‘rgan”, — deganlarig‘a birda shishinmas edi. Bu hodisa ham Rahimjong‘a gapxo‘rlarning kokil solurlari, Sa‘dulla: “Besoqoling‘a kokil soldurmayman”, — deganida, kaltaklab, oyog‘-qo‘lini bog‘lab, oshxonag‘a yotquzub qo‘yuvlaridur. Gapxo‘rlarning Sa‘dullag‘a bu qilg‘an ishlari juda qattig‘ ta‘sir qilmish va o‘zini uruvchilarning, “xo‘b, sizlarnimi?!” deb yaningan va urub bog‘lovchilarning boshchilari Eshnazar, Boqi sarkor, Kichik xo‘ja jo‘raboshi ekanliklarini ham bilib qo‘ymish edi. Subh vaqtida Sa‘dullaning oyog‘-qo‘lini bo‘shatib, Rahimjon besoqoli bilan jo‘natib yubordilar. Kechasidagi gapxo‘rlarning qilg‘an noshoista ishlarini kishig‘a aytmassliqg‘a gapxo‘rlardan Rahimjon va‘da olgan edi. Rahimjonning bu alamlarg‘a chiday olmay, Sa‘dullag‘a qattig‘ qarshu so‘zlarila: “Agar mani xo‘rlikg‘a soluvchilarni o‘ldurmasang, sen bilan yurmayman”, — deganig‘a Sa‘dulla: “Manga ham juda ta‘sir

qildi. Sen aytmasang ham bularning ishini bajaraman”, — deb xotirjam qilmish edi. Yana bir muhimroq ishi Sa’dullag’a ro’y bergan bo’lsa, ul ham gapxo’rlarni o’ldurmoqlikni plonini tuzmak edi. Bir kuni Sa’dulla bilan choyxo’rlikda o’lturganida, yuqorida ismlari zikr edilmish chapan yigitlarni ko’rub, so’ylashib, chahorshanba kuni og’a-inilarini chaqirib, ichkulik majlisi qilmak bo’lganligini bildurib, bularni ham ul majlisg’a chaqirg’anida, chapanlar Sa’dullag’a uzr aytub: “Yigitchilik-da, u kuni sizga beadabchilik qilib, besoqolingizg’a kokil solduk”, — deganlarida, Sa’dulla: “Nima bo’lmaydi deysiz yigitchilikda, munga xafa bo’lmayman, kishini shayton yo’ldan chiqarganda, otasi bo’lsa ham ko’zig’a ko’runmaydur”, — deb xafa bo’lmagan bo’lib, bog’ida ziyofat qiluvini va bog’ga boruvlarini qattig’ o’tingan edi.

Mundog’ plonni ilgaridan Rahimjonga ham bildurub qo’y-gani uchun Rahimjon ham Eshnazar, Boqi sarkor, Kichik xo’ja jo’raboshilarga: “Albatta, boqq’a chiqarsizlar, chunki men madrasadan bir necha xushro’y mullabachalarni olub, chiqaman”, — deganiga chapanlar: “Bu o’ladurgan dunyoda bir mazalashib kelaylik-a”, — deb ziyofatg’a bormoqq’a va’da berganlar edi.

Sa’dulla choyxonadan qaytub, Rahimjonga: “Xo’b ish qildimmu? Xudo xohlasa, hammasining tegig’a yetaman!” — degan va yanigan edi. Chapanlarning ziyofat qiladurgan kuni Sa’dulla bog’iga chiqub, taraddud qilib va uyidagi araq qo’shilgan musallasni xumchasi bilan olib chiqq’an va Rahimjon ham bir necha xil taomlarni pishurmoq harakatida qozong’a olovni yoqmoqda edi. Mehmonlar va’da qilgan vaqtlarida kelishdilar. Sa’dulla va Rahimjon qarshu olib o’tquzdilar va taomlarni mehmonlar oldig’a qo’ydilar. Taomlar yeyilib, dasturxon ko’tarildi, musallasni xumchasi bilan kelturub, Rahimjon kosagul bo’lib, mehmonlarg’a quyub bermoqqa boshladi. Chapanlar: “Xo’b o’tkur bo’libdi-da” va “hozirim — huzurim”, deb mayni suvdek

simurmoqg'a boshladilar. Xumchadagi may tamom tugadi, mehmonlar ham har tarafka yiqilib, yotib qoldilar. Mundan keyingi bog'da bo'lgan voqeani bila olmaganimizdan yoza olmaduk.

Oradan bir-ikki kun o'tdi: Eshnazar, Boqi sarkor, Kichik xo'ja jo'raboshilar ko'rinmadilar ham uylariga kelmadilar. Otalari har tarafg'a xabar yuborib: "Ko'rgan kishilar bo'lsa, xabar berilsun", — deb politsiyaga ham ma'lum qilub qo'ydilar, Politsiya taftish qilmoqqa boshlab ba'zi gapxo'rlar so'ziga qarab, Rahimjon, Sa'dullalarni chaqirub: "Yo'qolganlardan xabarlarining bormi?" — deb so'rganida: "Yo'q, ko'rganimiz yo'q", — deb tonganliklaridan politsiya: "Ilgari yo'qolganlarni tanir edinglarmi?" — deb so'radi. Rahimjon, Sa'dulla: "Yo'q, tanimas eduk", — deb umrlarida bir martaba bo'lsun mundog' yigitlarni tanimgan va gaplashmaganliklarini bildurdilar. Lekin, baxtga qarshu, mazkur yo'qolganlar bilan ilgari gaplashib va samovor-choyxonalarda birga choyxo'rlik qilib yurganlarini bir necha yigitlar ma'lum qilganlikdan politsiya fahmlab, har ikkisining uylarini taftish qilib, ikkisidan ham qonlik ko'ylaklar topdi. Politsiyaga bu katta nishona bo'ldi va Rahimjonning bunga bir sabab ko'rsatib berolmay, yig'lamoqg'a boshlagani va Sa'dullaning qochib ketkani, o'ldurganliklarig'a katta dalil bo'lurday bo'lub qolg'ani uchun politsiya to'g'ri ikkisini turmaga yopdi. Ishi okrujnoy sudga chiqdi. Rahimjon, Sa'dulla tonmoqg'a boshlab, ish yetti, sakkiz oyg'a sudraldi, har bir so'rovda sud qattig'-qattig' qiyonovlar bilan so'rganlikdan Sa'dulla, Rahimjon bu azoblarg'a chidolmay, mundan o'lumni yaxshiroq bilub: "Koshki, o'lumga buyurulsoq edi", — deb Sa'dulla tubandagi so'zlari bila iqror qildi: "Yo'qolganlarning yo'qoluvlarig'a o'zlari sabab bo'ldilar. Nega bironi besoqoliga zo'rlik qilub kokil soladurlar? Va nega ming so'mlarni besoqol ko'yida barbod berub yurgonni kaltaklab, behurmat qiladurlar, mundoq beadablarning jazolari shu bo'lsa kerak", — dedi. Va Rahimjon ham o'ldurganligig'a ochiq

iqror qildi.

Bu soʻzlardan sudga maʼlum boʻldiki, batahqiq shular oʻldurganlar. Sudda bir necha vaqt maslahat qilinib, juvonboz birlan besoqolni oʻn besh yilgʻa Sibirgʻa hukm qildilar. Turkistonda munday ishlar hamisha davom etub turganini koʻruvchi va biluvchi har bir aqlli musulmon kishi sharʼiyati islomiyatda man qilinmish mundogʻ besoqolbozlik odatini davom etdiruvchi Turkiston musulmonlari ahvollarigʻa afsuslar qilib, bekorga necha mingcha pullarni isrof qiluvchi, besoqol talashida musulmon musulmonga dushmanlik ortdiruvini va bir-birlaridan qon toʻkuvni va besoqolbozlik sababi birlan jinoyat koʻpoyub, yosh-yosh yigitlar oʻn-oʻn besh yillarini Sibirda ming turlik azob va xorlik bila zoye qiluvlarini ham dunyodagi gʻayri millatlarga musulmonlik ismini bulgʻatib koʻrsatuvlarini va oʻzlari kulki boʻlmoqlarini, yana bu dunyoda xor va oxiratda xudoning qahrgʻazabiga giriftor, Muhammad alayhissalomning oldilarida sharmsor va shafotlaridan benasib boʻluvlariga achinib, mundogʻ xilofi sharʼiy boʻlgan Turkistondan boshqa shaharlarga qochib ketkusi kelur edi.

JINLAR BAZMI

(mavhum hikoya)

Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: "Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma", — deb tangriga yolborib qo'yar edim.

Kecha xolam bizning uyga mehmon bo'lib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib o'tirar va o'tgan-ketgandan so'zlashar edilar. So'z aylanib kelib, yana o'sha jinlar, parilar, devlar to'g'risida to'xtadi. Otam bo'lsa o'zi ko'rgan jinlar bazmini so'zlashdan yana tiyilolmadi. Otamning bu hikoyasi, yuqorida so'zlaganimcha, mening uchun ortiqcha vahimalik bo'lganidan darrov o'rnimga kirib, ko'rpamga burkanib, yotib oldim. Otam menga bir kulib qaradi-da, jinlar bazmidan so'z ochdi:

— "Yangi uylangan vaqtlarim edi, Tirikchilik bilan ovoza bo'lib, bog'ning poyasiga o'z vaqtida qarolmadim. Bir kun payt topib boqqa bordim, tok juda ham o'sib ketgan, bardidan hatto ikki qarichg'acha o'sib chiqqan edi. Shuning uchun ishkamlarni shitobroq tikkaytirishga to'g'ri kelar edi. Boqqa bora boshlaganimning to'rtinchi kuni kechasi biroz yomg'ir yog'ib chiqdi. Go'yo yomg'irni kutib turgan toklar yana ham o'sib ketdilar; sho'ralar bardi ustiga engashib, ishkam ustiga olmaganim uchun go'yo mendan arazlagandek ko'rinur edilar. Men nima bo'lsa ham poya ishini bugun bitirmoqchi bo'ldim. "Ertaga tokni ochmasam, ham o'zim uchun, ham tok uchun jabr qilg'an bo'larman", — deb o'yladim.

Istakni ozroq olgan ekanman, Oxir peshin vaqtiga istak tamom bo'lib qoldi. Istak uchun bozorga boray, desam, bir

ishkomgina yamoq qoldi, undan keyin bozordan qaytib chiqquncha kech ham bo'ladi. Nima qilish kerak? Uzoq o'ylab turmay, tut, qayrag'och va tol kabi daraxtlardan istak chilpidim. Chilpigan istaklarni yig'ishtirguncha ham bir choy qaynar vaqt o'tdi. Istaklarni belbog'img'a qistirib, ishqomga kirdim.

Qosh qorayib, qorong'i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim. Yuz-qo'llarimni yuvib, salla-choponimni kiyganimda, obdon qorong'i bosgan edi. Bog' ishlagani kelgan qo'shnilardan hech birisi qolmag'an, hamma shaharga jo'nab ketgan, ko'chada chigirtkalarning chirillashi, qurvaqalarning qurullashidan boshqa tovush yo'q edi.

Men bog'dan chiqqanda xufton bo'lmasa ham shunga yaqinlashib qolg'an edi. Qorong'ida turtinib-surtinib yo'lga tushdim...

Otam xolamga xitoban dedi:

— ... Siz bilasiz, bizning bog'ning tevaragi quyuq daraxtlik maydonlar bilan o'ralgan. Katta ko'chaga tezroq chiqib olish uchun men shu maydonlardan yurdim. Maydon nihoyatda qorong'i va vahimali edi. Lekin men qorong'ida beparvo borar edim, yolg'iz qorong'ida turtunib qiynalar edim. Katta ko'chaga chiqib olmog'im uchun orada bittagina Hamdam xumdonchining chakalagi qoldi...

Otam hikoyasini shu yerga keltirib taqagach, men ko'rpaga yaxshiroq burkanib oldim.

Otam so'zida davom etdi:

— ... Bir-ikki qadam Hamdam xumdonchining maydoniga tomon yurdim ... Yiroqdan kelgan yorug'likni sezib, tevaragimga qaradim-da, hayron bo'lib qoldim... Qarshimdag'i maydondan o'tkir nur sharpasi tushar edi. Bugina emas, kishilarning chag'irchug'ur so'zlashib, kulushlari, gijdang-gijdang bilan childirma, ora-chora dutor, tanbur, g'ijjak kabi sozlarning zaif, ammo yurakni qitiqlayturg'an tovushlari eshitilar edi.

Men dong qotib, bir necha vaqt turib qoldim. Darhaqiqat, boyqushlar uyasi bo'lgan bir vayronada bunday voqeaning yuz berishi kishini, albatta, hayron qilar edi. Holbuki men shu kun ertalab ham shu maydondan o'tgan edim. Bu yerda biror ziyofat bo'laturg'an bo'lsa, erta bilan uning bir asari ko'rinar edi. "Yosh-yalanglar kunduz kuni harakat qilganlar-da, hara ko'chalar", — deb fikrimdan o'tkazdim.

Men bazm bo'layotgan maydon orqali o'tmoqchi bo'lib, devor naxnasidan oshib tushdim... O'h-ho'-o'-o', maydon ichi kunduzgidek yorug', daraxt shoxlariga chiroqlar osilgan, yerlar-ga ipak gilamlar yozilg'an. Bir chekkaga katta oq samovorlar qo'yilgan, bir tarafda katta qozonlar qurilg'an, jaz-biz davom etar edi. Maydonning o'rta yerida yuz chog'liq yosh-qari kishilar qur-shalib o'ltirib, dutor, tanbur, childirma, nog'oralar chalib, bazm qilar edilar.

Shu choqda bir kishi oldimga yugurdi va bazmdagilarga kichqirib:

— Mana, O'sar akam ham keldi! — dedi.

Bazmdagilarning hammalari ham menga qaradilar.

— Keling, keling, O'sar aka, poyadan qutuldingizmi? — deyishdilar.

O'sha onda ularga nima deb javob berganimni hozir eslayolmayman, chunki juda ham garangsigan edim.

Ular meni o'z ixtiyorimga qo'ymay, sudrab, tortib, to'rga chiqardilar. Odatda majlisga kirib o'ltirgandan keyin fотиha o'qilar edi. Biroq ularning har turli savol va muomalalari bilan ovora bo'lib, fотиha o'qish ham yodimdan chiqqan. Biroz esimni yig'ib olgandan keyin majlisdagilarni ko'zdan kechirib chiqdim. Ko'plarini qaysi joydadir ko'rgandek bo'laman... Aniqlab qarasam, umrimda ko'rmagan-tanimagan yot kishilarga o'xshaydilar, faqat ularning men bilan xuddi tanishlarcha muomala qilishlari, otimni atab chaqirishlari, qilg'an ishlarimni so'rab, hatto boyagi

istak chilpib yurganimni bilishlari meni juda ham ajabga qoldirgan edi.

Oradan kimdir, bilmadim, g'olibo majlisning boshlig'i bo'lsa kerak:

— O'sar aqamga dasturxon yozilsin, — dedi.

To'lda o'tirganlardan yana birisi unga qarshi chiqdi:

— Ilgari bir bazm qilib olaylik, so'ngra dasturxonga hammamiz baravar qaraymiz! — dedi va menga yuzini o'girib:

— Siz ham bazmni sog'inib qolgandirsiz. Ilgari bazm qilaylik-a? — deb so'radi.

Mening qornim och bo'lsa ham, mehmonligim vajhidan, uning fikriga qo'shilishdan boshqa choram yo'q edi.

Sozandalar sozlarini to'g'rilay boshladilar. Sozlardan tanbur, dutor, g'ijjak, rubob, chang, nay va daf kabilar menga tanish bo'lsalar ham, yana men ko'rmagan va bilmagan bir qancha sozlar ham bor edi. Sozlar sozlandilar, bir xil bosiq, og'ir mashq chalina boshladi.

Mashq sehrlik edi... Men yerga singib ketarlik darajada ezilmoqqa, asirlanmoqqa, ichimdan bir to'lg'in kelib, o'zimni qayerga urarimni bilmay, entikmakka boshladim. Sozandalar hamon haligi bosiq mashqni sekin-sekin avjga chiqarib bordilar... Axir, chidab turolmadim, piq-piq yig'lay boshladim. Nega va nima uchun yig'lar edim, — buni o'zim ham bilmayman. Uzoq yig'ladim. Nihoyat, mashq bitdi. Bitdi, lekin meni ham o'zi bilan birga bitirdi. Ikki tegirmon toshi orasida yanchilgan kishidek majruh edim. Qimir etgali majolim yo'q edi. Ko'zimni ochdim. Majlisdagilarning barchasi ham go'yo bir ko'zdan mening holimga kulib qarab turar edilar. Men o'z holimdan uyalib, yerga boqdim.

Sozlar yana ikkinchi mashqni chalish uchun tayyorlanar edilar. Lekin men haligidek mashqni eshitishdan bezor bo'lgan edim. Yuragim gup-gup urib qoldi. Boyagidek mashqni yana

birini tinglasam, ehtimol, ajalimdan burun o'lar, yer bilan yakson bo'lar edim.

Ikkinchi mashq boshlandi. Mashq boshlanishi bilan butun vujudimga hayot suvi yugurdi. O'zimda allaqanday bir lazzat his qildim. Mashq g'oyatda shodlikli edi. Bu mashqqa ne deb ism berishni bilmayman.

Shu vaqt o'rtaga o'n besh-o'n olti yoshlik bir qiz kelib kirdi. Uning sochlari jingila-jingila, yuz va ko'zlari do'nduq, ustida yashil baxmaldan burma qilib tikilgan chiroyli delvagay kiyimi bor edi. Bir necha qadam chalishib o'rtada yurgan edi, oyog'idagi qo'ng'iroqlari jing'irab ketdi. Qiz mashq bilan baravar o'ynay boshladi.

Mashq davom etar, go'yo nafis soz tovushining yeli o'yinchi qizni g'ayriixtiyoriy bir harakatga keltirardi. Dunyoga bir shodlik, bir ruh yog'adi, go'yoki o'liklar tirilar, yerlar silkinarlar, tog'-toshlar kularlar, yulduzlar ucharlar, daraxt shoxlari titragandek bo'larlar.

Axir, shodliklarim yuragimga sig'madi. O'z erkim bilan emas, allaqanday kuch o'tirgan joyimdan turg'uzib yubordi. Qizning yoniga kirib, men ham o'ynab ketdim...

Oyim bilan xolam o'zlarini tutolmay, kulib yubordilar. Mening bo'lsa ko'z o'ngimga dadamning o'ynagandagi ahvoli kelib to'xtagandek bo'ldi.

Dadam davom etdi:

— ... Shunday, men o'ynay boshladim. Nima bo'lsa ham qiz bilan birdek o'ynamoqqa tirishaman. Qiz men bilan biroz o'ynab turgandan keyin o'rtadan chiqib, bir chetga ketdi. Lekin men o'yinni to'xtatmadim, to'xtatish xotirimga ham kelmagan edi. Kishilar qars urib turadilar va meni masxaralagandek qiyqirib, og'iz-burunlarini qiyshaytiradilar, lekin men ularga parvo qilmay, o'yinni davom ettiraman.

Bir vaqt allanarsaga turtinib, yerga yiqildim. O'zimni

o'nglab olib, yana o'yinga harakat qilg'an edim, tag'in mukkamcha yiqildim.

Bir qancha vaqtdan so'ng o'nqlanib, o'nmndan turdim va ko'zimni ochib, tevaragimga qaradim.

Orada na kishilar, na sozlar va na boshqalar — hech kim, hech gap yo'q!.. Qop-qorong'i maydon, bir ariq ichida turibman...

* * *

Men otamning bu ko'rgan hodisasini muallim afandiga so'zlagan edim, kuldi:

— Vahima, xayolot! — dedi.

— Chindan ham vahimmi, vahim bo'lsa, kishida qanday voqe' bo'ladi? — deb so'ragan edim, afandim:

— Kelasi juma bolalar o'rtasida bu to'g'rida ma'lumot beraman, sen ham shu majlisda hozir bo'lsang, vahimning qanday voqe' bo'lishini bilib olasan! — dedi.

Men, albatta, juma kuni maktabga borib, afandimizdan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtingiz bo'lsa, juma kuni siz ham boringiz.

OTAM VA BOLSHEVIK

(kulgulik)

Otam 1242-hijriy — 1823-melodiy yillari Toshkandda tug‘ulub, alhol, 99-100 yoshlaridadir. Ruslar istilosi vaqtida 42 yoshida bo‘lub, Toshkendni ruslardan mudofaa qilg‘an qahramonlarning biridir.

Turkiston xonlaridan Sheralixonni, undan so‘ng Xudoyorxon, Mallaxon ham, bu orada yillab va oylab xonliq qilub o‘tgan Murodixon, Said Sulton va boshqa xonlarni, Toshkand beklari-dan (hokimlaridan) Muhammad Sharif otaliq — Salimsoqbek (bu zot Buxoro amiri tomonidan Toshkand bekligig‘a qo‘yilg‘an edi. Musulmonqul tomonidan o‘ldirildi), Azizbek, Normuhammad qushbegi, Shodmon o‘roq, Qanoatshoh, Mirzo Ahmad qushbegi, Mallaxon (Mallaxon og‘asi Xudoyorxonning xonlig‘i vaqtida Toshkandda uch yillab bek bo‘lub turg‘andir), eng oxir-dan Qo‘shdodxohlarning bekligini ko‘rub o‘tkuzgan. Xonlikning bosh noziri va qo‘mondoni o‘rnida bo‘lg‘anlardan Musulmonqul va Mulla Alimqullarni ko‘rgan va urushlarida bo‘lg‘an, piskaglik Qashg‘ar amiri mashhur Yoqubbekni Qashg‘arg‘a kuzatkan.

Shundoq qilub, qirq yillab musulmon xonlari zamonini, elli yillab Rusiya chor istibdodini va endi besh yillabdirki, mehnatkashlar hokimiyatini ko‘radir.

Tabiiy, otam Rusiya chor hukumatini sira ham tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o‘zi istiqbol etkan, chorning achchig‘-chuchugini xo‘b tatig‘an; bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do‘st emas. Buning ham sababi ma‘lum. Ammo xon zamonlarini o‘ylagan choqlarda: “Ep... xo‘b zamonlar bor edi: tilla jabduqlik otlar, basavlat beklar-u, o‘rdalarda har

kun qarasa bazm-u... O'tub ketdi endi bu zamonlar..." — deb afsus yeb qo'yadir.

Chorlar zamoni to'g'risiga kelganda:

Xoh xoh, xoh, xoh! Xo'b oq podshoh ekan-ku, oq podshohni hech kim yengolmas emish. Oq podshohga hech bir qiron bas kelmas emish!.. Kushandasi duch kelganda, shunday ham dumini xoda qilar ekanki... Xoh, xoh, xoh, xoh, ho-o! Hoy, Abdi: "Hali "Oq podshohni bolshevoy otub yubordi", — dedingmi? Barakalla bolshevoyingga, balli bolshevoyingga, xo'b qilubti-da, oq podshohligini burnidan chiqaripti... Xoh, xoh, xoh, ho-o-o...

Sho'rolar hukumati to'g'risida ul hech bir tushuna olmaydir. Sho'rolar hukumati haqida yuz qat istifos qilub unitadir. Uningcha, oq podshohni yengib, o'rniga o'lturguvchi bolshevik otliq bir qahramon yigitdir.

— Bolshevoying necha yoshda borikin?

— Bolshevik bir kishi emas, dada... Bolshevikning ma'nosi ko'pchilik, kambag'al degan so'zdir. Misol, siz kambag'alsiz. Siz ham bolshevikdan sanalasiz, hozirgi bolshevik hukumatidan murod kambag'allar hukumati deyishdir. Ilgarigi oq podshoh hukumati boylardan iborat edi. Ammo bu hukumatning oq podshosi ham yo'q va bunda boylarg'a ham o'run berilmaydi. Yolg'uz siz va bizga o'xshagan kambag'allar hukumati...

— Ha-a-a, shundoq degin-chi...

Oradan yo uch kun o'tadir va yo o'tmaydir, eski turmush bilan zaharlanib qolgan cholingiz boyag'i bir mirilikdan qilub ro'molg'a tugub berilgan tushundirishni unutadir-da, bolshevikni bir shaxs, kambag'aldan chiqq'an ulug' bir oq podshoh, deb bila boshlaydir.

— Bolshevoying juda ham boturboy yigit ekan-da, askari ham bir-ikki lak bordir?

— Ha. Besh-olti lak bor!..

— O'bbo, bachchataloq... O'zi ham hirs qo'pg'an ekan.

O'zimning biroz darmonim yo'qroq-da, o'g'lum. Bo'lmasa, bolshevoyingga yigit bo'lub kirar edim. Agar bolshevoying oldi-g'a chiqsang, mendan salom degin. "Sani, — degin, — boboy duo qildi", — degin... Bachchatalog'ingni bechoraparvar, deb eshitaman: ko'ynak-ishtonga besh-o'n olchin mata so'rasang, berarmikin?.. Xayr, bermasa ham go'rga. Ishqilub, soliqlardan darhon qilsa bo'ldi. Hammadan ham boqqa ko'z olaytira ko'r-masun...

Ba'zan cholingiz istiqbol qo'msay boshlaydir.

— Xudoning xohlagani-da! Kofirning qo'lida qolub ket-dik. O'zimizda g'ayrat yo'q. Agar yurt bir og'izg'a tupurub, yarog' topolmaganda ham qora kaltak bo'lub chiqsa, isni-bisga qo'ymas edi. Qadimgi zamonning yigitlaridan shu kunda ham bo'lg'anda-chi, ey-ha, o'rusingga yo'l bo'lsun...

— Qora kaltak bo'lishning nima keragi bor, dada? Bol-shevoyning kattasi o'zimizning musulmondan. Qushbegilar, ota-liklari, o'zimizdan, o'rtada ulardan bitta-yarimta dodxohlar bo'lsa bor!..

Bu so'zni eshitish bilan chol taajjub va taxayyurda qoladir:

— Nima deding?..

— Bolshevoyning ulug'i o'zimizning yigitlardan...

Chol hozir boshi berk ko'cha ichida... Shu holda bir-ikki tamshanib olg'ach, uzundan uzoq bolshevikning asli-nasli haqida istifsoir talab qiladir...

— Tuzuk-tuzuk, ko'b yaxshi. Bolshevoying odamoxun ekan. Sarbozdan kel, sarbozdan. O'zimizdan sarbozlar bormi?

— Bor, lekin, bo'lsa ham, yo'q hisobida.

— Attang, shunisi chakki ekan.

— Nima zarari bor, dada?

— Ey-y, o'g'lum, odam bo'lg'andan keyin har narsaning ham boshida bo'lishi kerak. Non qo'yinimda, it keyinimda!..

Shundoq qilub, otam bolshevoyga yigit bo'lmoqchi-ya.

Biroq biroz darmoni yo'qroq-da... Ehtimolki, bahorg'a chiqub, darmoni yaxshilanur, sochlari qorayub, boshqa o'g'lon tishlari chiqub bo'lsa ham, lekin hozirga endigina milk yorub kelmaqda bo'lg'on ikkita jag' tishlari ham chiqub bo'lur-da, cholni bolshevoy ham yigitlikka qabul qilur va ul bolshevoyga chin sarboz bo'lur.

SHUBHA

(hikoya)

— Kolxozimizda va qishlogimizdagi yakka xo'jaliklar orasida bunchalik jipoyatga jasorat qila olaturg'an dushmanlar topilar, deb o'ylay olmayman, — dedi kolxoz raisi G'oziyev so'zining oxirida, — balki men yanglisharman... Yanglishgan bo'lsam, mana, o'rtoqlar yana bu to'g'rida o'z-fikrlarini aytsinlar!

Idora a'zolari va yacheyka kotibi ham G'oziyevning fikriga qo'shilishg'andan so'ng komissiya uzoq o'ylanib qoldi...

— Xayr, — dedi komissiyaning raisi Xoldorov, — qishlog'ingizg'a shu o'n kunning ichida chetdan hech kim kelgan-midi?

Bu savolga oradan hech kim javob bermadi, ammo javob berish o'rninga, idora a'zolari va yacheyka kotibi so'z qo'yishg'andek kolxoz xo'jalik mudiri Zuhurovga qaradilar... Zuhurov o'ng'aysiz holga tushgandek sezildi, gardaniga o'ng qo'lini ko'tarib, qirt-qirt qichina boshladi. Komissiya Zuhurovni kuzatdi.

— Sakkiz kundan buyon mening bir mehmonim bor, — dedi Zuhurov biroz o'zini yo'qotgan aft bilan, — menga qolsa, bizning qishloqqa shu voqiadan ilgari va keyin hech kim kelgan emas... Biroq bu mehmon shubhalanadigan...

Xoldorov uni to'xtatib, bir necha savollar berdi.

— O'zi shaharlik, ishchi! — dedi shoshinqirag'an Zuhurov. — "Qizil Sharq" zavodining elektrik sexida ishlaydi, kommunist...

Xoldorov o'chib qolg'an popiro'sini tortib, ovora bo'l-

gandan so'ng kuldonga tashladi.

— Sizning bu mehmon bilan qanday yaqinlig'ingiz bor?

— Men kolxoz tuzulguncha "Qizil Sharq" zavodida qora ishchi bo'lib ishladim, shunda bu mehmon — To'ychiboyev bilan o'rtoqlashdim.

Xoldorov yangi popiro's tutatib ovora bo'ldi. Boshqalar iltifot bilan Xoldorovning og'zig'a tikilib qoldilar.

— Mehmoningiz, ya'ni To'ychiboyev, — dedi og'zidan tutun burqitgan holda Xoldorov, — nega zavodni sakkiz kundan buyon tashlab, sizga mehmon bo'lib yotadi?

— Bir oylik istirohat olgan, — dedi Zuhurov. — Men uni har yil istirohat chog'ida bizning qishloqqa chiqib, dam olishini taklif qilar edim. Bu yilgi istirohatini bizning qishloqda o'tkazish fikri bilan menga mehmon bo'lgan.

Xoldorov komissiyaning ikkinchi a'zosi Sultonovga qara-di.

— Mehmoningiz istirohatni qanday o'tkazadi? — degan savolni berdi Sultonov.

— Men aksar kunduz kunlari kolxoz ishlari orqasida yurganligimdan uning nimalar va kimlar bilan mashg'ul bo'lganligini yaxshi bilmayman, — dedi Zuhurov, — ammo o'z so'zi va bundagi o'rtoqlarning aytishlariga qarag'anda, ba'zan qizil choyxonamizda, goho ishlab turgan kolxozchilarimiz orasida, qaysi vaqt menim ov miltig'imni ko'tarib, qirlarda bo'lar emish. Kechalari bo'lsa hamma vaqt men bilan birga bo'ladi, birga uxlaydi.

— Kechagi va o'tkan kungi voqialar to'g'risida mehmoningiz qanday fikrlaydi?

— Quloqlar ishi, degan mulohazani bildiradi.

— Siz o'zingiz mehmonning bu fikriga qo'shula ola sizmi?

— Yo'q, men qo'shula olmayman, — dedi Zuhurov, — Chunki oramizdagi chet unsurlarni yaxshi tozalaganmiz!

— Shu holda uch gektar g'o'zangizning suvga bostirilishi,

ikki ming bog' quruq bedangizga o't qo'yilishi sizning fikringizcha, kimlardan bo'lishi mumkin?

Zuhurov bu savolga epaqaliq javob bera olmadi, Boshqalar ham bundagi omilga, loaqal, ehtimol ham ko'rsata olmadilar. Rayondan maxsus belgilanib kelgan komissiya quruq akt yozib, qaytishga majbur bo'ldi.

Qo'sh otliq izvoshka o'lturar ekan, Xoldorov kolxoz yacheyka kotibini bir chetga eltib, nimadir uning qulog'iga shivirladi. Izvosh jo'nar ekan, kolxoz idora a'zolariga xitob qildi:

— Shu xil lattachaynarlikda turar ekansiz, bukun g'o'zangiz suvga bostirilib, bedangizga o't qo'yilgan bo'lsa, kelasi kun yana bundan ham kattaraq falokatni kutib turingiz!

Komissiya jo'nab ketdi, idora a'zolari ham o'z ishlariga mashg'ul bo'ldilar, biroq idora a'zolaridan har kimning ham ko'ngli bir turli g'ash bo'lib qoldi.

Zuhurovning ko'ngul g'ashlig'i ikki qat edi. Chunki uning eng yaqin do'sti va qadrlı mehmoni bo'lgan To'ychiboyevga ham shubha qaratilgan edi. Zuhurovga qolsa, To'ychiboyevdan kolxozga qarshi bunday zararkunandalik aslo mutasavvur emas. Holbuki agar komissiyaning "Qishlog'ingizga shu zararkunandalik asnosi chetdan kimlar kelgan?" savolining ahamiyatiga tushunganda...

Zuhurov vasvasa va tashvish ichida kundalik vazifasiga mashg'ul bo'ldi. Miyasi juda ham shishgan holda qanday ishlar qilayotganligini farq qilolmas edi.

* * *

Kechki payt Zuhurov qo'rg'oniga qaytganda, To'ychiboyev hovuz yonidagi sufada chalqancha yotib, qandaydir bir kitobni o'qur edi. Zuhurov uning o'qushig'a xalaqit bermaslik uchun astagina qo'rg'onga o'tib ketdi. Oradan yarim soatlar

vaqt o'tkandan keyin Zuhurov ko'ylakchan va yalanoyog' holda qo'rg'ondan chiqib, sufa yoniga keldi.

— O'qushingizg'a xalaqit bermadimmi?

To'ychiboyev yotgan joyidan qo'zg'almasdi, ko'zini bir necha soniyaga kitobdan uzub, Zuhurovga qaradi.

— Hozir! — dedi va yana o'qushida davom etdi.

Zuhurov hovuz bo'yida turgan ruh chilobchinni olib, tevarakka suv sepa boshladi. To'ychiboyev kitobning bir betini uzunasiga bukib, qaytadan ochishga tanig'liq qilg'andan so'ng yastiqning tegiga tiqdi, chiranib kerishdi va yastiqdan turib o'lturdi.

Zuhurov chilobchinda suv olib, sufaga chiqdi. To'ychiboyevga sachratmaslikka tirishib, kiyiz tevaraklariga sekin-sekin socha boshladi.

— Nima gaplar bor? — dedi To'ychiboyev sher kabi g'o'rqirag'an tovush bilan:

— Qanday gaplardan so'raysiz?

— G'animsiz ko'rsata oldilaringmi, komisiya qanday fikrga keldi?

— G'animsiz ko'rsata olmadik, — deb Zuhurov iljaydi. — G'animsizni biz ko'rsata olmasak ham komisiyaning o'zi topdi...

— G'animsiz kim ekan? — deb To'ychiboyev tizzasiga urib qo'ydi.

— G'animsiz siz ekansiz...

To'ychiboyev jiddiy vaziyatda komisiyaning boyagi savol-javoblarini eshitib o'lturdi.

— Komisiya juda to'g'ri shubhalangan, — dedi To'ychiboyev tovushini yana ham do'rullatib, — modomiki, siz o'z ichingizdan g'animsiz ko'rsata olmangansizmi, komisiya shu o'rtada qishloqqa chetdan kelguvchini so'ragan, bunda komisiya juda haqli, juda!

Zuhurov To'ychiboyevning maqsadig'a tushunib yetol-

madi, baharhol yana unga savol nazari bilan qarab qoldi.

To'ychiboyev davom etdi:

— Komisiyaning keyingi achchiq-tizig'i juda to'g'ri: agar siz o'z ichingizni sidirg'a gunohsiz ko'rsatish bilan birga qishlog'ingizga chetdan kelguvchilarga ham qo'l tegizdirmasliq tarafida kelsangiz, kolxozning ertaga yana bundan ham kattarak falokatga yo'luqishi aniq, men bunga so'z beraman...

Zuhurov, chamasi, yana tushunib yetmadi, hayrat ichida To'ychiboyevga bir necha vaqt qarab turdi.

— Sizdan shubhalansak, sizni tutub, qamashg'a bersak, to'g'ri ish qilgan bo'larmidik?!

— Albatta, albatta, — dedi To'ychiboyev, — Zuhurov endi bu yigitga boshqacha bir nazar bilan qarashg'a majbur bo'ldi: devona, darvesh, yo'qsa...

— Yanglish fikrga borasiz, — deb kuldi To'ychiboyev va o'z manglayiga qo'li bilan urib qo'ydi, — bu yaxshi ishlaydi, bu hali joyida...

Zuhurovning miyasi juda ham qotdi, qarshisidag'i devona emas, hozir, uning nazarida, shaytonga o'xshab ko'rina boshlagan edi. Darhaqiqat, To'ychiboyev bir necha vaqt u bilan shaytonlarcha o'ynashgandek ko'z qorachug'ini g'ildir-g'ildir g'ildiratib, kulimsib turdi.

— Hayron qolmang! — dedi To'ychiboyev, — Modomiki, kolxozingiz, umuman olganda, qishlog'ing'iz g'animdan xoli bo'lsa, undan keyin shu zararkunandalikni o'zim bilan birga olib kelgan men ham gunohsiz bo'lsam, shu holda... shu holda bu zararkunandalikni kim qiladi? Ko'kdan shayton tushgan, deb o'ylaysizmi? Ishni tekshirgan komisiyani men juda bo'sh kishilar, deb bilaman. Men agar shu komisiyada bo'lsam, idora a'zolarini birini ham qo'ymay qamatar edim, azbaroyi Xudo, qamatar edim!

Bu devsfat mehmonning komisiyadan chetda turg'anig'a

va bu kungi majlisda ishtirok qilmag‘anig‘a ichidan shukur qilib o‘lturgan Zuhurov endi biroz maqsadg‘a tushuna boshladi...

To‘ychiboyev chordanasini buzub, o‘choq qurib oldi va ikki qo‘li bilan tizzalarini bag‘rig‘a tortib ushladi. Hozir uning ko‘zida muhum bir sirni ochishga tirishg‘uvchi tergovchining holati bor edi.

— Men sizga bir necha savollar beraman! — dedi To‘ychiboyev butun a‘zosi bilan old va orqasig‘a tebranar ekan. — Raisingiz o‘zi qanday odam?

— Raisimiz yersiz, koranda.

— Firqada bormi?

— Bor.

— Uning qarindosh-urushlari qanday kishilar?

Zuhurov yaxshigina o‘ylab olgandan so‘ng, javob berdi:

— Kambag‘al kishilar.

— Ularning ichida quloq bo‘lganlari yo‘qmi?

— Yo‘q.

Shu yo‘sunda To‘ychiboyev muovin, rais va idora a‘zolari ni birma-bir surishtirib bordi. Boshqalari To‘ychiboyevning diqqatini jalb etolmasalar ham idoraning beshinchi a‘zosi o‘rta dehqon, firqasiz Tursun Xoliqovning ba‘zi jihatlari unga qiziq-roq tuyulganga o‘xshadilar.

— Tursun Holiqov quloqning qizig‘a uylangan, deng-chi? — deb takrorladi savolini.

— Ha.

— Qachon uylangan?

— ... To‘rt yil bo‘lgan chiqar.

— Kim, hali qaynotasini Nishon bo‘rsuk dedingizmi?..

Shu odamning quloqqa tortilganiga ko‘p bo‘lganmi?

— Ikkinchi yil.

— Hozir qayerda?

— O‘zi va ikki o‘g‘li bilan Andijon tevaragidagi

Yangiobod joyiga surgun qiling'an.

To'ychiboyev biroz boshini qashib o'ylagandan so'ng yonidagi xaltasini qo'lig'a olib, tamaki o'ray boshladi.

— Tursun Xoliqovning xotini bo'lmush — quloqning qizi... O'zi ochilganmi, apti qalay?

Zuhurov kuldi erinibgina javob berdi:

— Ochilgan... Apti bejirim — qishloqning ko'rkam kelinlaridan...

— Holiqov bilan totuk tursalar kerak?

— Bilmadim, — dedi Zuhurov va birozdan so'ng ilova qildi, — avzoyig'a qarag'anda, xotin eriga ancha o'tkur bo'lsa kerak.

— To'g'ri, bunisi to'g'ri, — dedi To'ychiboyev tamaki-ning kulini chertar ekan. — Men buni kutgan edim!

Zuhurov keyingi jumladan hech narsa onglamadi. To'ychiboyev ham "tergovchilik"ni shu yerda to'xtatib, yangi mavzudan so'z ochdi.

Qo'rg'on eshigida Zuhurovning xotini ko'rundi, eridan kechki oshni suzub chiqarishga izn so'radi. Xotin suza berishga izn olib, ichkariga kirgach, To'ychiboyev bu kunning juda ham dimlig'idan shikoyatlandi. Shikoyat qilar ekan, o'lturgan joyida ko'ylagini asta boshidan chiqarib tashladi va shalop etkan tovush chiqarib, o'zini sufa ostidagi hovuzga tashladi. Hovuzning ko'm-ko'k suvi tashlanuvchini o'z bag'rig'a olib chayqaldi, suv betida qubbalar zohir bo'lib, uzoq vaqt To'ychiboyev ko'zga ko'runmay qoldi; Zuhurov ko'z ochib yumgunchaliq vuqu'g'a kelgan bu usta harakatdan kulumsiradi va To'ychiboyevni hovuzning qaysi burchagidan bosh ko'tarishini kuzatib turdi.

* * *

Tun qorong'u. Tevarakdan behisob chigirtkalarining chiril-

lashi bu qorong'uliqqa yana ham boshqacha bir ohang bermaqda, uzoq-uzoqdan eshitib turgan haqchi qushning "haaq-xaah" degan tovushi ko'ngulga sababi onglashilib bitmagan bir mahzunlik bag'ishlamoqda.

To'ychiboyev o'rniga chalg'ancha yotib, barmoqlari orasi-da tutab turgan tamakisini ora-chora chekib qo'yadi. Uning qatorig'a yondosh solingan o'ringa yonboshlagan Zuhurov qo'lidag'i piyolasidan goho qultullatib choy ichadi.

Nihoyat, oradagi uzoq sukutni To'ychiboyev buzdi:

— Tursun Holiqov bilan orangiz qanday?

— ... Tursun Holiqov bilan yaxshimiz, o'zi jondek yigit.

To'ychiboyev indamadi, yana uzoq vaqt tamakisini tutatib yotdi.

— Yo'q, men choyga qondim, — dedi To'ychiboyev uzatilgan piyolani qaytarib. — Siz, Zuhurov, firqag'a kirganingizga necha yil bo'ldi?

— Uch yil.

To'ychiboyev o'rnidan turub, mushtugidagi qoldiqni qoqib tashladi; yana to'shagiga yotib oldi.

— Siz, Zuhurov o'rtoq, firqaning g'oyasini yaxshi tushunasiz-a?

— Bilaman: mamlakatimizda sotsializm qurush!

— To'g'ri, lekin sotsializm qurush yengil ish emas; o'zimizdagi yetishmovchilik, qola bersa, bu g'oyag'a ochiqdan ochiq dushmanlik ko'rsatuvchi unsurlar... Siz bu yoqni ham yaxshi tushunsangiz kerak?

— Albatta.

— Endi bir masala bor, — deb To'ychiboyev yastuqqa yonboshladi. — Masalan, birov o'zi mehnatkash, ustiga firqali, lekin ongsizligidanmi yoki boshqa sababdanmi, haligi siz aytgan sotsializm g'oyasig'a zarar yetkazmaqda... O'zi bizning eng yaqin do'stimiz bo'lgan shu zararkunanda kishining kori-badini biz

sezib qolg'animizda, biz shu do'stimiz bilan qanday muomalada bo'lishimiz kerak?

— Nasihat qilishimiz, to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak bo'ladi.

— Juda yaxshi... Basharti, nasihatga quloq solmasa-chi?

Zuhur biroz javobsiz turdi, piyolasini ichib, bo'shatdi.

— Nima qilishimiz kerak? — deb taraddudlandi Zuhurov.

— Albatta, sirini fosh qilishimiz kerak bo'lar?

— Albatta! — dedi jiddiy turda To'ychiboyev. — Men sizning qishlog'ingizning va rayoningizning dushman bilan kurasha bilish iqtidorini sinab qarash uchun shu uch-to'rt kunning ichida ikki zararkunandalik qildim; ulardan birisi uch gektar g'o'zani suvga bostirish, ikkinchisi ikki ming bog' qurug' bedani yondirish bo'ldikim, bu sizga ma'lum!

Zuhurov bu so'zdan hech narsa onglamadi yoki misol o'rinda so'zlaydi, degan kabi tushundi:

— Xo'sh?

— Qishlog'ingiz ham "xo'sh" deb qola berdi, — dedi kulib To'ychiboyev. — Dushmanni tutush iqtidoringiz yo'qlig'i ustiga hatto komisiyaning mening ustimdagi to'g'ri shubhasiga ham e'tibor etmadingiz, aksincha, meni oqlashga tirishdingiz...

Zuhurov keyingi jumlar bilan tomom hayronliqqa tushdi...

To'ychiboyev davom etdi:

— Endi men uchinchi zararkunandalikka o'taman...

Bir oy sizning qishlog'ingizda dam olaturgan bo'lsam, kolxozingizning kulini ko'kka sovurishimda shubham yo'q... Men bu ishda yolg'iz ham emasman...

— Sinash uchun kolxozga zarar berish! — dedi hayrat ichida Zuhurov. — Men bunday sinashga tushuna olmadim...

— Albatta, tushunolmaysiz, shu bilan birga siz mening zararkunandaligimni bila turib ham sirni ochmaysiz... Chunki siz

— qishloq xalqi — oshnalikka qurbon bo'lgan xalqlarsiz, men buni yaxshi bilaman!

To'ychiboyev Zuhurovni lol va mahbut qo'yg'andan so'ng vahshiy bir tovush chiqarib, xaxolab yubordi... Zuhurov darmon-sizlangandek uzoq tin olib, ichini bo'shatdi.

— Men sizning fe'lingizga... sira ham tushunolmadim!

— Men: “Boya tushunolmaysiz”, — deb aytdim-ku! — dedi To'ychiboyev yana zaharxanda bilan. — Agar tushun-sangiz, ertaga emas, hoziroq issig' o'rningizdan turib, mening to'g'rimda kolxoz idorasiga xabar berar edingiz!

— Zuhurov yana uflandi.

— Men sizning da'voingizga ishonmayman!

— Ishonmaysizmi? Men hoziroq sizga hujjat qilsam ham ishonmaysizmi? Men boya aytdim: “Mening bu ishda yordam-chilarim ham bor”, — deb. Agar yordamchilarim biror sabab bilan turgan joylarini o'zgartmagan bo'lsalar, hoziroq men ular bilan sizni tanishtirishga tayyorman!

Bu keyingi so'z Zuhurovning taraddudini bartaraf qilg'an-dek bo'ldi.

— Xo'b, tanishtiring! — dedi qat'iy.

— Ular bilan sizni tanishtirg'unchalik bir shartim bor: tanishganingizdan so'ng bu sirni mening ruxsatimsiz hech kimga so'zlamaysiz!

— Nega so'zlamayman?! — dedi taajjub bilan Zuhurov. — Zararkunandalar ochiq ma'lum bo'lgandan so'ng nega xabar bermayman?!

— To'g'ri, — dedi To'ychiboyev kulub, — yordamchilarim faqat mening majbur qilishim orqasida bu ishga qadam qo'y-g'anlar, ular bu ishda gunohsizlar... Tutub berganingizda ham fa-qat meni ko'rsatasiz, shunda ham faqat men ijozat bergan vaqtdag'ina!

Zuhurov ko'ndi, biroq endi unda borib ko'rish va ko'rmas-

lik to'g'risida ikkilanish boshlangan edi. To'ychiboyev o'rnidan turib, kiyina boshladi. Yastuq ostiga yashirgan to'pponchasini olib, ichidan osdi.

— Nega qo'zg'almarysiz? — dedi Zuhurovning ustiga kelib. — Turing, kiyining, siz ham miltig'ingizni olib chiqing!

— Chindan aytasizmi?

— Chindan, chindan, men sizni biror marta aldaganmidim?

— Men ishonchim.

— Siz ko'rmasdan ishonmang. Qo'zg'aling tezrak. Nima, siz meni ahmoq qilmoqchisizmi?

Jekirinib aytilgan so'ngg'i jumla bilan Zuhurov chor-nochor turib, kiyinishga majbur bo'ldi va: "Qanday baloga yo'luqqanman", — deb ko'nglidan kechirdi.

Zuhurov kiyinib bo'lgach, ichkaridan miltig'ini olib chiqishg'a borar ekan, To'ychiboyev o'qdan ko'prak olishga, ehtiyot uchun bir arqon ham olib yurishka tavsiya qildi.

— Arqon nima uchun kerak?

— Keyin bilasiz, hozir ola bering.

Zuhurov ichkaridan chiqti; yo'lg'a tushdilar; besh-o'n qadam qo'rg'ondan yiroqlashg'anda, To'ychiboyev Zuhurovga qayrilib to'xtadi:

— Men ular tura turgan qo'rg'onni kechasi topib borolmayman, — dedi. — Siz boshlab borasiz!

— ?..

— Ular kimning qo'rg'onida turishlarini, hozir aytaman... Ilgari shuni bilib qo'yingizkim, bu ishimiz xayrli gap emas, shuning uchun siz yo'lni kishisiz, pasqam joylar bilan boshlang!

Zuhurov "xo'b" deyishdan boshqa so'z aytmadi, chunki hozirgi qorong'u kecha kabi qora bu ish bilan miyasi aynagan, muhokamasi cho'zilgan edi. O'zi ham To'ychiboyev oldida ilon tomonidan avralgan chumchuqdek ixtiyorsiz qanot qoqar edi.

Tevaragi g'o'za va jo'xori kabi ekinlar bilan o'ralgan bu qo'rg'onning yaqinig'acha bir qancha itlar akillashib keldilar. Itlarning hujumidan qo'rqqan bir mushuk irg'ib, bo'g'otni tirnoqlari bilan tirnab, qo'rg'on tomiga chiqib ketdi. Qo'rg'onning muyushidagi katta tup daraxtda tinch uxlab yotgan parrandalar qanot qoqishib patirlashdilar. Itlar hujumidan qo'rqqan kimdir birov o'zini jo'xorilar ichiga oldi chog'i, uzun bo'yli jo'xorilar shitirlashkan tovush chiqardilar. Yoqimsiz, ohangsiz itlar tovushi ostida tevarakdagi chigirtkalar chirillashi eshitilmas bo'ldi...

Itlar besh daqiqa chamasi hurib, so'ngra birin-sirin qo'rg'onidan uzoqlasha boshladilar. Birozdan so'ng qo'rg'on tevaragi tinch holga aylanib, hasharot tovushlari eshitildi. Jo'xorilarning qo'rg'onga yaqin joyi yayaa shaldirab ketdi. Oradan ikki ko'laga chiqib, sekin-sekin qo'rg'on devori ostigacha yurib keldi. Shunda ikkisi ham biroz to'xtab, nedir shivirlashgandan so'ng qo'rg'on ihotasi bo'yincha yura boshladilar. Qo'rg'onning uch tomonidan aylanib bo'g'otning qaddi yerga yaqinroq ko'ringan bir joyida oldinda boruvchi ko'laga to'xtab, bo'g'otni kuzatdi.

— Shundan.

Ikkinchisi ko'laga javob bermadi. Birinchi ko'laga yana nimalar g'o'rungladi. Ikkinchi ko'laga qo'lidag'i tayoq kabi narsaga suyanib, orqasini tutdi. Birinchi ko'laga ikkinchining orqasig'a mindi. Ostidagini tentiratib yubormaslik uchun asta-sekin uning yelkasigacha chiqib, qaddini rostladi-bo'g'otdan qo'l-tug'ig'acha yuqori ko'tarildi. O'zini tomga olish uchun chamalab ko'rdi, bo'ldirolmadi.

— Biroz qaddingizni rostlang! — dedi shivirlab.

Ostdagi inqillag'an tovush chiqarib kuchandi, ustdagi irg'ib, o'zini tomga oldi. Bo'g'ot shitirlashib, ostga tuproq to'kul-

di. Tomdagi biroz o'zini rostlab, tevarakka razm qo'ydi. Atrof yorishib ketdi — ko'kda yulduz uchkan edi, uzoqroqdan it hurgan tovush eshitildi. Onda-sonda xo'roz qichqirgan tovushlar quloqqa to'qunar edi.

Ko'laga tom bo'ylab emaklab ketdi. Qo'rg'on tomi chor devorning sharqi bilan janubida bo'lib, shimol va g'arb quruq paxsadan iborat edi. Emaklovchi sharqiy tomdan o'tib, janubiy tomning o'rtasigacha keldi va shunda biroz to'xtab olgandan so'ng hovli tomonning bo'g'otig'a qarab surula boshladi; bo'g'ot labiga yetkach, boshini juda ham quyi qilib, hovliga mo'raladi; tun obdon qorong'u bo'lsa ham hovlidagi qora ko'lagalardan ba'zi narsalarni belgilash mumkin edi: to'g'ridagi paxsa devor ostida qora bir sigir bog'lanib turmoqda; hovli o'rtasidagi zo'r yog'och katda birov uxlab yotmoqda; bulardan boshqa sahnning turli joylarida qora-qura narsalar ko'zga chalinmoqda. Bo'g'ot yonidan mo'ralovchi bularni ko'zdan kechirar ekan, go'yo o'z yonida birovning tovushlanganini eshitkandek bo'ldi... Tovushlanish quyidan, quyidagi binodan kelar edi. Kimdir xurullagan tovush chiqarib, uxlar edi. Shundan so'ng emaklovchi yana emaklagan holda orqasig'a qaytdi.

Quyidagi ko'laga hanuz bo'g'ot ostida so'rrayib turar edi.

— Zuhurov! — dedi shivirlab tomdagi.

— Men...

— Miltiqni menga uzating.

Miltiq uzatildi.

— Arqonning bir uchini menga tashlang!

Arqonning uchi tashlandi.

— Arqonni ushlab, yuqorig'a!

Zuhurov epchil emas edi. To'ychiboyevga ko'p mashaqqat berib, bazo'r bo'g'ot yoniga o'lturub oldi. Bu yoqdan xotir jam bo'lgan To'ychiboyev ustidagi qora tujurkasini o'lturgan ko'yi yeshib tashladi va oyog'idagi etigini ham ikki harakatda yeshib

qo'ydi.

Zuhurov bir narsa onglamas edi. Kechalik ovga yangi chiqqan yosh o'g'rudek ko'ngli tashvishlar bilan to'la edi.

To'ychiboyev yechilgan tujurkasini kovlab, gugurt oldi. Uning tamaki chekish uchun gugurt yoqishidan qo'rqqan Zuhurov: "Bunda yoqmang", — deb tanbeh yasashga majbur bo'ldi. To'ychiboyev gugurt yoqmaganidek unga javob ham berib o'turmadi.

— Siz ana shu qorayib ko'rungan tarnovgacha emaklab boring! — dedi shivirlab To'ychiboyev. — Men hovliga tushaman!

— Nima uchun?

— Katda birov uxlaydi... Men uning betiga gugurt yoqaman, siz uni tanib olishga harakat qilingiz!

Zuhurovning a'zosiga sirqiroq kirib ketdi.

— Nima uchun bu?

— "Tanib olish uchun", — dedim-ku.

Zuhurov, nomus kuchli, To'ychiboyev ko'rsatkan tomonga qarab emakladi.

To'ychiboyev sharqiy tomning devor boshlangan joyiga kelib, shundan qo'rg'ong'a tushushni muvofiq ko'rdi. Chunki bu yerning sarxoki yiqilg'andanmi yoki qo'rg'on egalari shundan tomga chiqib yurgandanmi, baharhol ustida o'luk tuprog'i yo'q, o'zi ham paxsaning boshqa joylariga qarag'anda pastroq edi. O'luk tuproqli bo'lganda, ostiga nurab tovush chiqarishi mumkin va bu To'ychiboyevga matlub emas edi.

To'ychiboyev quloyliq bilan o'zini pastqa oldi. Biroz katni kuzatib turgandan so'ng binolar yoni bilan og'ilxona, oshxona, uy va eng oxirda boyag'i xurullag'an tovush eshitilayotkan ayvonga keldi. Yoniga beshik qo'ygan bir er va bir xotin dong qotib to'shakda uxlar edilar. Biroz to'xtab, ayvonning narigi yoniga o'tdi. Bunisi darvoza yo'lagi edi. Yo'lakka kirib, darvo-

zagacha bordi. Qorong'uda timiskilab zanjirni topdi, taajjublandi, chunki zanjir ochiq edi. Mashaqqatlanib tomga chiqib yurganig'a pushaymonlandi.

Sekin-sekin yerni bosib, hovli o'rtasidagi katda uxlovchi ustiga keldi. Uxlovchining bosh tomoniga o'tib tiqildi, aniqlash mumkin emas edi. Yuqoridag'i bo'g'otdan mo'ralab turuvchiga qo'li bilan "hazir bo'li!" ishorasini berib, qo'lig'a gugurtni oldi. Qutichadan cho'pni chiqara boshlaganda, bo'g'ot yonidagi Zuhurov bir narsa ishoratlar qila boshladi. To'ychiboyev unga qaramadimi yoki qarasa ham uning qo'rqqolig'ig'a tahammul qildimi, baharhol cho'pni doriga surtush uchun tegizganda, yo'lak tomondan darvozaning asta g'ijirlag'ani eshitildi... Buni ilgari-dan sezib turgan Zuhurov qo'li bilan "qoch, yashirin" ishorasini bera-bera tomning narigi tomoniga emaklab ketdi. To'ychiboyev qo'rg'ong'a kishi kirmaqda ekanini fahmlag'an edi... Katdan chetlashib ketishga vaqt topolmadi, sekin turg'an joyiga cho'kdi, ikkinchi harakatda o'zini kat tagiga oldi. Shundan bir-ikki soniya ham vaqt o'tmadi, yo'lak og'zida bir ko'laga ko'rindi. Ko'laga ayvonga o'tib qarag'andan so'ng to'g'ri katga tomon kela boshladi. Katning xuddi To'ychiboyev yashiringan joyiga kelib to'xtadi. To'ychiboyev keluvchining oyoqlaridan quchoqlab olsa mumkin edi. Ko'laga uxlovchining yastig'ig'a engashdi:

— Solih, Solih! — deb shivirladi va qo'li bilan uxlovchining manglayini turti. — Solih, Solih!

Solih cho'chub uyg'ondi, bir necha vaqt ko'zini yaxshi ocholmay turdi.

— Men, men, Hamroboy.

Solih biroz uyqusini qochirib, ko'kdagi yulduzlarga qaradi.

— Vaqt yetdimi?

— Yetdi, Hulkarga qara.

— Quli?

— Quli shunda.

Solih o'rnidan turub o'lturdi, ustiga kiyimini ildi va shundayoq etigini kiya boshladi.

— Siz chiqa bering, men hozir! — dedi Solih.

Ko'laga shipillab yo'lakka o'tdi. U darvozaga yetar-yetmas, Solih ham katdan tushdi.

Zuhurov darvoza tevaragida bir necha kishilarning yurganlarini, darvoza g'ijirlatganlarini, katda so'zlashkanlarini aniq-taniq payqab yotdi. To'ychiboyev to'g'risidagi onglashilmov-chilik, yana, uning nazarida, o'n qat ortdi.

Darvoza tevaragi tinchib, oyoq tovushlari bitkach, asta yotgan joyidan boshini ko'tardi va emaklab bo'g'ot yoniga keldi, katka va kat tevaragiga qaradi. Katda birov yotadimi-yo'qmi — buni ajrata olmasa ham kat yonida To'ychiboyevni ko'rolmaganidan so'ng sahdagi har bir qorani diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi. "Tomga chiqqanmi?" — deb tevaragiga qarandi. Narida To'ychiboyevning tujurka va etigidan boshqa qora ko'runmas edi... Bir necha vaqt sahnini ta'qib etib turgandan so'ng ajablana boshladi: osmonga oshtimi, yerga kirdimi?

Yoki... yoki, uning o'zi aytkancha, yordamchilari bilan yana bir zararkunandalik sari qadam qo'ydimi?

Yana o'n daqiqa chamasi kutkandan so'ng zerikdi. To'ychiboyevning tujurkasi turgan joyiga emaklab keldi. Bunda tag'in biroz kutkandan so'ng ortiq chidashga toqati qolmadi, etikni tujurkaga o'rab, yerga tashladi, miltiqning o'qini bo'shatib, qo'lig'a oldi. Bir necha vaqt yerga tushishga qulay o'run izlab, boya To'ychiboyev qo'rg'ong'a tushgan nahradan qulayroq o'runni topolmadi. Bir muncha qiynalib, axirda yerga tushdi, miltiqni yangidan o'qlab, biroz ilinjli holda To'ychiboyevning kiyimlari ustida ikkilandi. "Kiyimlarini olib qaytaymi yoki shu yerga tashlab keta beraymi?" — degan taraddudda edi. Axiyri, olib qaytish fikriga keldi. Kiyimni ko'tarib, yo'lga tushdi.

Qo'rg'ondan qirq-elli odim yiroqlashgan edi. yaqin oradan

to'pponcha tovushini eshitdi. Yana o'n qadam bosmasdan, ikkinchi, uchunchi martaba o'q otilib, Zuhurovning quloqlari tikkaydi va to'xtadi... Ko'ngliga qo'rquv aralash taajjub joylashgan edi. Yana o'q otildi... O'q tovushi oldindan kelmakda edi, Zuhurov odimini tezlatdi. Endi, ora-chora qulog'ig'a kishilarning ola-g'ovuri ham kela boshladi. Ola-g'ovur kelgan tomonni aniqlash uchun yo'l uvatida o'sgan devpechak yonida to'xtadi. Shu holda yo'l yoqasidagi g'o'za paykaldan shatir-shutir g'o'za tuplariga to'qung'an tovushlar eshitib, devpechak orqali paykalga mo'raladi: g'o'zalar ichidan suzub uch ko'laga oshiqa-oshiqa shu tomonga kelmakda edi... Zuhurov biroz taraddud ichida turgandan so'ng o'zini sekin devpechak ostiga oldi. G'o'za ichida suzuvchilar birin-birin uvat orqali yo'lga chiqa boshladilar. Uchinchisi ham yo'l ustida to'xtadi. Zuhurov ulardan birisining og'ir-og'ir tin olayotganlig'ini sezar edi.

— Izingizda odam bor ekan! — dedi birovi.

— Bor ekan! — dedi ikkinchisi nafasi og'zig'a tiqilg'an holda. — Mening oyog'img'a o'q tegdi, etigim qong'a to'ldi!

— So'zlashib turish vaqti emas, — dedi uchunchisi, — bundan siljib qolaylik!

Har uch ko'laga Zuhurov kelgan tomonga qarab yo'l oldi, ulardan birisi oqsab, orqada qolib bormoqda edi.

Zuhurovning qalbi qattiq tepib, nafasi og'ziga tiqilib kelgandek bo'ldi.

Yana shu holda tovushlandi:

— Qochma, otilasan!

Hali o'n qadam ham bosmagan ko'lagalar birdan yo'l ustida to'xtadilar. Biroq devpechak ostida turgan Zuhurovni birovi ham ko'rolmadi.

— Bizda asbob yo'q, deb o'yladingmi? — dedi birovi va qars etdirib to'pponchadan o'q uzdi.

Devpechak ichidan ham qarsillagan tovush chiqdi. Ko'la-

gadan birisi mukkancha yerga yiqildi... Qolmish ikki ko'laga ikki tomonga ajralib, oldinga yugurub ketdi.

Zuhurov miltig'idan bo'sh gilzani chiqarib, yangi o'qni joylaguncha qochqunchilar ko'zdan yo'qoldilar. Zuhurov o'qlangan miltiqni qo'lida ushlagan holda nima uchundir qalt-qalt titrar edi va yigirma qadam narida jon chekishib yotuvchiga dahshat bilan qarab turar edi.

Devpechak ichidan yana o'q uzuldi. Biroq bunisi hadafsiz otilg'an o'q edi. Zuhurovning qaltiragan barmog'i tepkiga ehtiyotsiz to'kungan edi...

Zuhurovning shang'illashgan qulog'i allaqancha oyoq to'vushlarini eshitdi. Ko'z ochib yumgunchalik, o'z tevaragida o'nlab ko'lagalarni ko'rdi. Zuhurov devpechak ostidan chiqa boshladi. Kishilar yo'l o'rtasida xirillab jon chekisha yotuvchining ustiga to'quldilar.

— Kim buni otdi?

— Otilgan kim o'zi?

— Yopiray!

— Voy, qudratingdan ketay!

Birov jon chekishuvchining yuziga gugurt yoqib tutdi.

Yana ola-g'ovur ko'pti:

— Hamroboy-ku!

— Quloq!

— Hamroboying ho'kuz o'g'rusi bo'g'an ekan-da!

— Kolxozning bedasiga o't qo'yish hunari ham bor, desang-chi!

— G'o'zani suvga oldirishga ham usta!

— Imonini o'gur, Jonboy, og'zidan qoni kepti!

Hangama va kulgi...

— Kim otgan buni-a? Boplapti-ku!

To'dadan tovushi do'rillagan allakim ovoz qo'yib chaqirdi:

— Zuhurov, o'rtoq Zuhurov!

Zuhurov qo'lida miltig'i bilan o'rtag'a kelib kirdi.

— Men... o'rtoq To'ychiboyev, sizmi?

— Men, men...

Yana gugurt yoqildi, hammaning ko'zi Zuhurovga tushdi.

— Voy, otangga rahmat, Qurvon Zuhurov!.

— Mergan ekansiz-ku, Zuhurov!

Zuhurov olqishlarga quloq solib turmadi, chunki uning ko'zi To'ychiboyevning qip-qizil qong'a belangan o'ng qo'lig'a tushgan edi.

— A, a, sizga o'q tegdimi, o'rtoq To'ychiboyev?!

Boshqalar ham o'z ichlaridagi bu begona yaradorga iltifot bilan qaradilar. To'ychiboyev majruh qo'lini qursog'i to'g'risig'acha ko'tarib, so'l qo'l bilan to'pponchasini ushlagan holda iljayib turar edi.

— Siz yaxshi shogirdsiz! — dedi kulib To'ychiboyev. — Kommunistlikka loyiqsiz!

Zuhurovning qulog'iga maxtov kirmadi; qo'lidagi miltiqni, birovga berib, o'zi To'ychiboyevning majruh qo'lini ochib, qaray boshladi, ikki-uch tomondan gugurt yoqilib, o'rta obdon yoridi.

— Arzimaydi, sal! — dedi To'ychiboyev. — O'q o'pib o'tdi!..

* * *

Zuhurov darvozani uch-to'rt karra to'xtab qoqqandan so'ng zanjir ochilib, ichkaridan ko'ylakchan, yalangoyoq birov chiqdi.

— Kim bu?

— Men, Zuhurov.

— Xush kelibsiz!

— Vaqtsiz sizni betinch qilg'anim uchun kechirasiz,

Xoliqov, — dedi Zuhurov. — Go'yoki... go'yoki aytishlarig'a qarag'anda, qo'rg'oningizda qishloq uchun zararli hisoblangan birov turar emish... Biz shu kishini tekshirgali...

Holiqov boshini qashidi, taraddudlandi.

— Kim ekan... Oti nima?

— Solih.

Holiqov chuqur sukutga bordi... Biror daqiqa chamasi Zuhurovni kutdirdi.

— Yoningizdagi kim? — deb so'radi oxirda.

— Yonimdagi... yonimdagi Solihning sizning qo'r-g'oningizda turg'anlig'iga ma'lumot olgan kishi!

— Qorong'u kechada kishini tinchsiz qilishga kim unga haq bergan?

— Sizning xiyonatingiz! — dedi zaharxanda bilan To'y-chiboyev va Zuhurovga murojaat qildi. — Siz bu odam bilan hozircha bahslashib turmangiz!

Shu so'zni aytib, so'l qo'li bilan to'pponchasini qinidan chiqordi va ichkariga kira berdi. Zuhurov ham miltig'ini otishga o'nglab To'ychiboyevni ta'qib etdi. Holiqov darvozaning taba-qasig'a suyangan holda qoldi...

Ikkisi yo'lakdan qo'rg'ong'a yuzlanmay turib, qo'rg'on tashqarisida "tut, tut" degan tovushlar eshitildi. Olag'ovur qo'pti... Ikkisi orqag'a qaytishg'a majbur bo'ldi.

Tashqaridan qo'rg'onni qurshab olgan kolxozchilar devor-dan oshib qochmoqchi bo'lgan Solihni tutib keltirdilar.

— Quli qayerda? — deb so'radi Solihdan To'ychiboyev.

Solih javob bermadi.

— O'rtoq kolxozchilar! — dedi To'ychiboyev. — Tong yorig'uncha qishloq sho'rosi idorasida saqlab berish uchun Solihni va Holiqovni sizlarga omonat topshiramiz!

Kolxozchilar darhol ikkisini qo'ltuqlashib oldilar.

— Mening nima gunohim bor? — deb yolbordi Holiqov.

— Siz o‘z uyingizdan o‘g‘rug‘a joy bergansiz! — deb kuldi To‘ychiboyev.

Xalq tarqala boshladi. Solih va Holiqovni yetaklab Shera-yotgan kolxozchilardan: “To‘g‘ri yur! Siltanma! Qadamingni chaqqon uz!” degan mag‘rur va amirona hayqiriqlar eshitildi.

Kun bo‘yi uyqusiz kechingan To‘ychiboyev bilan Zuhurov indashmasdangina qo‘rg‘onga qaytib borar edilar. Ko‘p qon oqqandanmi yoki tong salqini tushkandanmi, baharhol To‘ychiboyev o‘z vujudida bir uvishish, titroqqa yaqin bir qaltirash his qilar edi.

Qishloq ustidan kecha qorong‘ulig‘i biroz ko‘tarilib, tabiat quyuq tuman ichida kabi go‘zal ko‘runar edi. Tevarakdan xo‘roz qichqirg‘an tovushlar eshitilib, onda-sonda qush sayroqlari ham quloqqa kirar edi.

Yaqin o‘rtadagi bir eshak, hiq-hiq-hiqillab turg‘andan so‘ng juda ham bahaybat hangrab yubordi. Bu hangrash bilan allaqaysi daraxtda o‘lturub “chili-vili”, “chala-chili” degan ohangda sayrab o‘lturgan jibilajibon sayrog‘i eshitilmas bo‘ldi.

Sharq ufuqidan asta-sekin qorong‘ulik ko‘tarilib, o‘rniga subhi sodiq joylashmoqda edi.

1819-YIL YODGORI

(*ocherk*)

Uchqo'rg'onli o'rtoqlar mening Umarxon va Madalixon davriga oid tarixiy ma'lumotlar yig'ib yurganligimni sezgach: "Bizning qishloqda Ahmad amirkonchi ismli bir chol bor, uch-rashsangiz, ehtimolki, undan ba'zi ma'lumotlar olarsiz", — degan taklifda bo'ldilar. Uning yoshini 116 da deb eshitgach, borib ko'rishga qiziqsindim. Uchqo'rg'on rayon ijroqo'mi raisi o'rtoq Obid Mahzumov va yana bir necha do'stlar hamrohligida Ahmad amirkonchi turgan joyga yayovlab ketdik.

Uchqo'rg'on qishlog'i Norin daryosining yoqasiga qurilgan, manzarasi go'zal bir qishloqdir. Norinning telba suvi toshlarga to'qinib, "shuv-shuv" tovush chiqarib, turli shakllar hosil qilib oqadi; kunning eng qizg'in shamoli betga urinib turadi.

Qishloqdan anchagina yiroqlashib, temir yo'ldan kesib o'tgach, uzoqdan daryo ustiga solingan ko'pruk (temir yo'l ko'prugidan boshqa) ko'rinadi. Bu ko'prukning bu yuzi-O'zbekiston, narigi yuzi — Qirg'iziston hisoblanadi. Ko'pruk yoniga yaqinlashgach, ko'cha yuzida o'sgan tut daraxti ostidagi katda yostiqqa suyanib o'ltirgan bir cholni ishorat qildilar. Bu boyagi Ahmad amirkonchi emish. Ilgari yirik gavdali bo'lsa ham hozir eti qochib, suyaklari o'ltirgan, orqadan qaraganda, 12-13 yoshli bola holini eslatadi. Yuzidagi behad ajinlar oftobda qovjiragan shaftolini esga tushuradi. Soqol-murti oz, qovoq halqimlari orasidan arang-arang ko'z chizig'i seziladi. Oppoqqina yuvilgan, oldi ochiq, keng chit yaxtagining bog'ichini bo'shgina bog'lab, tek o'ltiradi. Qatning ostida ingichka, uzun bo'yli bir suv qovog'i

yumalab yotadi. Kat tevaragida bizlarni ko'rgach, qovjiragan ko'zini kattaroq ochishga tirishib, qaddini rostlantirab o'ltirdi va har qaysimiz bilan qo'l olishib ko'rishdi, qulog'i biroz og'ir, tovushni bir muncha ko'taribroq gapirishga to'g'ri keldi. Mening uning ziyoratiga maxsus kelganligim anglatilgach, o'ltirishga joy ko'rsatdi.

Bundagilar cholning bu qadar yoshga kirganligiga ishonib yetmaydilar. Shuning uchun men uni biroz sinamoqchi bo'ldim:

— Sog'-salomat, tetikkina yotibsizmi, ota?

— Shukur, o'g'lim.

— Asli qayerda tug'ilgansiz, ota?

— Menmi? Men Xo'jandda tug'ildim.

— Uchqo'rg'ong'a kelganingizga ko'p yil bo'lganmi?

— 90 yildan ortdi.

— Nima kasb uchun keldingiz?

— Mana shu ko'priikka qorovul bo'lib keldim.

— Hali ham qorovulmisiz? — deb kulib qo'ydim.

— Ha, qorovulman.

Aytishlariga qaraganda, chol hanuz o'zini ko'priikka qorovul deb biladi.

— Xonlardan kimlarni ko'rib-kechirdingiz?

— Xonlardan... xonlardan Madalixon, Sheralixon, Xudoyorxon, Mallaxonlarni ko'rdim.

— Siz Jannatmakonni¹ ko'rmadingizmi?

— Yo'q, men ko'rmadim.

Madalixonning 1256-hijriy yoki 1834-melodiy yilda Buxoro amiri Nasrullo tomonidan o'ldirilganligi menga ma'lum.

— Siz Madalixonni necha yoshda ko'rdingiz, qayerlarda ko'rdingiz?

— Men Madalixon vaqtida 15 yoshlar chamalik bola edim.

¹ Eskilar Umarxonni "Jannatmakon" laqabida yaxshi taniydilar (A. Q.).

O'zini Xo'jandda ko'rdim.

Qo'limdagi ba'zi tarixiy hujjatlar va kishilarning rivoyatlariga ko'ra, men bir daraja Madalixonning qiyofat va siymosini bilaman. Binobarin, unga bu to'g'rida savollar berdim. Javob qo'limdagi hujjatlarga muvofiq chiqishi bilan barobar chol menga majhul nuqtalarni ham so'zlab chiqdi.

Yana bir qancha voqealar ustidagi savollarimga yaxshi javoblar berdi. Jumladan, Mallaxon to'g'risidagi bir hikoyasi xonlar vahshatini ochiq gavdalantirdiki, uni ko'chirib o'taman.

— Men bir vaqt Xo'jandga bordim, — dedi Ahmad ota. — Mallaxon Xo'jand tevaragiga qo'rg'on oldirmoqda, shaharning yoshi-qarisi, xotin-qizlari zo'rlik bilan devorga ishlatilmoqda ekanlar. Har qanday uzrni ham xon va kishilarni qabul qilavermas, xon oldida o'limdan boshqa narsa ularga o'tmas ekan... Oy kuni yaqin bo'lgan bir homilali xotin shotida turib, qo'rg'onga loy irg'itar ekan, tug'ib yubordi... Bolasi yerga tushib, jon berdi; o'zi ham shotidan bolasi ustiga yiqilib, shunda o'ldi. Bu holga chidolmagan xalq xong'a qarshi qo'zg'olon ko'tardi...

Ahmad otaning "amirkonchi" deb atalishiga sabab uning bir kasbi etikchilik bo'lib, dastlab amirkon teri tikib, Uchqo'rg'on tevaragiga tarqatganligi uchundir. Hanuz uni "Ahmad amirkonchi" deb ataydilar. Chol bir necha martalar uylangan. Xotinbolalari o'lib ketgan. Hozir o'zi yashaydi. Shundagi ko'pruk qorovuli va qishloq mehnatkashlari undan xabar olib turadilar. Bu yordam bo'lmagan kunlarda chol qiynaladi.

Xayrlashar ekan:

— Oxunboboyevni ko'rsangiz, aytasiz, holim og'ir... Agar o'lsam, o'zi ko'msin. Esingizdan chiqarmangiz! — deb zorillab qoldi.

KACHIDA IKKI HAFTA

(ocherk)

Menga Tataristonning Archa rayoniga qarashli Kachi ovulida ikki haftalab qolishg'a to'g'ri keldi. Ovulni, undagi kolxozni va xalq ahvolini o'rganish uchun kelgan bir kishiga ikki haftali bir muddat juda qisqa bo'lsa-da, ko'p narsalar o'rgana oldim. Tatar ovul dehqoni qanday ishlaydi, nechuk yashaydi, uning moldorligi, kolxozga uyushgandan so'nggi holi kabi jihatlarni ko'zdan kechirib qaytg'ach, o'z taassurotim bilan gazeta o'quvchilarini ham tanishtirgim keldi.

Ruslardan bir necha qayta: "Tatarlar juda ham tirishqoq xalq, ular yer ishida bizning mujikdan ham yuqorida turadilar", — degan so'zni eshitgan edim. Tatar ovulida bo'lg'ach, men bu holni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Chindan-da, tatar dehqoni yiqil-sa, yer tishlayturg'an bir xalq ekan. Ertadan kechga qadar ko'ngil qo'yib ishlash, hatto kechalari ham uy hayvonlari uchun xashak hozirlab yurish hozir bu xalqqa rohat bo'libgina ko'rinadi. Yana erta bilan soat 5 larda choy va ikmakin¹ yeb-ichib, qir ishlariga yugura beradi.

Umumiy dam olish kunlaridan boshqa vaqtlarda kunduzlari ovul (qishloq) butunlay deyarli bo'sh bo'ladi. Hatto bolalar ham bola bog'chasida, faqat uyda qolgan ishga yaroqsiz chollargina ko'rinadilar, ovul ko'chalarida turkum-turkum g'ozlargina g'o-g'illashib yuriydilar.

Ovulning jonlanuvi kech soat 6-7 miyonalarida bo'ladi: qir ishlaridan qaytayotgan yosh yigitlar ovulni boshga ko'tarib, qo'shiq aytadilar, unda-munda garmon tovushlari eshilib, bir-birisi

¹ Ikmak — non.

bilan o'ynashib, shayarib¹ qaytgan tatar qizlarining, kumush tanga to'kilgan singari, jaranglab kulishlari yurakka to'qinadir. Shu vaqtda ovulning podasida (qutuvida) yaylovdan qaytib, sigirlar buzovlarin sog'inib ma'raydilar, sariqlar² qo'zilarni qo'm-sab, baaa-buu qiladilar. Ovul juda ham ko'ngilli hol oladi...

Bunda har kim ishlaydi, bola-da, qart-da. Hatto sakson yoshlik bir chol Muhammadrahim Valiyev staxanovchi bo'lishga tirishib yuribdir. O'zi sakson yoshda. Uch o'g'li "oq"lar bilan urushda o'lgan. Hozir Muhammadrahim boboy kolxoz xirmonida soqchiliq xizmatini o'tab turadi. Men u bilan so'zlashishga qiziqsinib: "Qari kishi ekansan, senga yaltarga vaqt", — deyman.

Boboy menga tushunolmay, qarab turgandan so'ng aytadi:

— Kuch bo'lgach, nek ishlamaska?

— Seksanga kirib qolibsana-ku!

— Men sening tikli yoshlardan do'rtisin barib yig'am ali!

— dedi va g'ayratlangandek qo'lidagi tayog'in yerga to'qillatib qo'yadi. Shu orada bizning yonga bir necha yosh kolxozchi yigitlar kelib to'xtaydilar.

— Bizning babay yigit shekilli edi, — deb kuladi yigitlardan birisi.

— Mena, mena, chinin ayta ul, — dedi boboy, — yosh qizga uylanasingina!

Kulishamiz. Chol ham kulib qo'yadi. So'ngra jiddiy bir tus oladi:

— Uch malayim (o'g'lim) "oq"lar bilan so'g'ishda o'ldi... Alar kolxoz uchun so'g'ishdilar. Mena men malaylarim menim uchun yasab qaldirg'an shushi kolxozda ishlam, — dedi va biroz to'xtab turadi. — Shulay, shulay... kolxoz ali chachqa³ atib

¹ Shayar — sho'xlik.

² Sariq — qo'y.

³ Chachqa — gullamoq.

ketmagan. Men, bilim sizliy, deb tursam, birda chachqalamas ul!
— deydi.

Shunday, “Avangard” kolxozi hozirdanoq gullay boshlagan. Besh o‘n sigirdangina boshlangan “Avangard”ning sut fermasida yildan yil nasli yaxshirtila borgan 116 sigir va tana bor, 182 ot, 864 g‘oz va tag‘in allanarsalar.

Kolxoz a‘zolarini yuz protsent sigirli qilish to‘g‘risida ham haligi sigir fermasi zo‘r rol o‘ynaydi. Sigirsiz a‘zolarga 60 lab tana tarqatib, kolxozchilarni yuz protsent sigirli qiladi. “Avangard” bu bilangina to‘xtamaydi: kolxozchilarning har qaysilarida uchmadan tortib, to 10 ga qadar sariq va echkilar, 10-20 lab g‘oz, 20-30 lab tovuqlar ham bo‘lib qoladi.

Ovul yetti yillik maktabga ega bo‘lishi ustiga tevarak ovulardan kelib o‘qiyturg‘an 200 lab yoshlarni kolxoz tomonidan yopilgan zo‘r yotoqda tarbiyalaydi.

Ovulni elektrlash bu yil tug‘ilg‘an yangi masaladir. Hozir Kachi ovulini ikkiga bo‘lib o‘tgan Qozonka suvini bo‘g‘ib, kichkina xidrostansa qurilib bitajak. Ovulning madaniy bir tus olishiga sabab bo‘lajak bu xidrostansa kilovatt kuchga ega bo‘lib, kolxozning mexaniklashgan bir tegirmonini yuritish bilan birga butun ovulni yoritajak.

Ayniqsa, mening bunda diqqatimni jalb etgan narsa kolxoz tomonidan yangigina ko‘kartirilgan olma boqchasi bo‘ldi. Chindan-da, tatar ovullari uchun yangilik maqomida bo‘lgan bu olma boqchasi har kimni ham qiziqtirarliqdir. Zo‘rgina bu olma boqchasini Tataristonning Michurini maqomidagi Sobirjon abziy Bashirov tarbiyalaydi. 2100 tupdan iborat. Sobirjon abziyning o‘z tanlashi va payvandi (yalg‘avi) bilan o‘sgan besh-olti yoshli olma daraxtlari bu ovulning porloq istiqboli kabi go‘zal bo‘lib o‘sib yotadi.

Mening o‘zim qisman olma boqchalari o‘lkasida o‘sganligimdan qayta-qayta Sobirjon abziy yoniga borib, suhbatlashib,

olma daraxtlarining o'stiriluvini qarab yurdim. Bizning o'lka (O'zbekiston) tajribasicha, ba'zi bir noto'g'ri o'stirilgan tuplar haqida savollar berib, o'z bilganlarim bilan o'rtoqlashdim. Sobirjon abziy menim tanqidlarimga bosh egish barobarida, boqchaning ikkinchi bir qit'asida o'sgan olma tuplarini ko'rsatdi:

— Mana bular haqida qanday fikrlaysan? — deb so'radi.

— Juda to'g'ri o'stirilgan!

Sobir abziy noto'g'riroq o'stirilgan daraxt haqida uzrini aytdi.

— Men bir o'zim 2100 tup olma og'ochig'a qarab chiqishga yetisha olmayman. Shundan boshqa menim tarbiyamga qarab turgan yangidan yalg'omchi yosh olma va boshqa og'ochlar bor. Kolxoz esa menim yonga doimiy yordamchilar bermaydi. To'g'ri kelgan kishilar bilan ish olib borishga to'g'ri kelgach, albatta, shunday bo'ladi-da!

Sobir abziy — 65 yashar chamali tajribali bir bog'bon. O'rtoq Stalin huzurida qabul qilinib, rahmat qog'ozi olgan. Ayniqsa, Tatariston uchun uning tajribalarining ahamiyati juda katta. Kachida o'n to'rt kunlar turuvim asnosi kolxozning ko'pgina yutuqlarga ega ekanligini ko'ruv bilan birlikda bir qancha kamchiliklarga ham yo'liqdim.

Ovul yashilcha (ko'kat) jihatdan juda ham kambag'al. Bunda piyoz, bodring, savzi, pomidor, karam, qizilcha va shuning singari ko'k ekinlar ekilmaydi deyarli. Bu ovulga chetdan keluvchilar emas, ovulning o'z kishilari ham bunday narsalarni Archadan olib kelishga majburlar. Men bu haqda ibdashlarga savollar berib: "Bizda yashilcha ekish odat emas", — javobini oldim. Ba'zi dehqonlar esa: "Ekishga ekamiz, biroq yaxshi bitmaydi", — degan sababni ko'rsatdilar. Albatta, bu sabablar uzr bo'lolmaydi, chunki tuproq juda yaxshi (qora), bundan boshqa yerni go'nglash uchun ham imkoniyat juda katta. Ovul ko'chalari go'nglar bilan to'lib yotadi, bu yetmasa go'ngni

chiqarib, Qozonkag'a oqizganlarini ham uchratishga to'g'ri kel-
di. Yashilcha go'ngni juda yaxshi ko'rganlikdan mana shu
go'nglardan foydalanish juda muhim. Endi yashilcha ekishga
odatlanmaganlik to'g'risig'a kelsak, bu u qadar og'ir bir ish
emas. Yashilcha tarbiyasi bilan ot chiqarg'an rayonlarga kishilar
yuborib, o'rganib kelish yoki shunday rayonlardan bir-ikki tajri-
bali dehqonlar oldirish bilan bu masala hal qiling'an bo'ladi.

Bunda buloq suvlaridan ekin ekish uchun foydalanish ham
yangi masala bo'lib ko'rinadi. Men ovulni qarab yurgach, ovul
o'rtasidan chiqib oqqan kattagina bir buloqqa yo'liqdim. Bundan
ovul xalqi kundalik ehtiyoj uchun foydalanib turadi. Ortiqcha suv
esa bekorga Qozonkag'a oqib ketadi. Holbuki shu buloqning
tagida o'n gektarlab kartoshka yog'insizlikda qovjirab yotadi.
Agar shu buloq suvi bizning tomonlarda bo'lsa eng ozi 25 gektar
yer sug'orilib, allaqancha yashilcha olingan bo'lur edi. Bu
to'g'rida ham bundagi dehqonlar bilan so'zlashdim:

— Suv yuritib qaradik, unum bo'lmadi, — deyдилar.

Dehqonchilig'i sug'oruv asosida bo'lgan o'lkalardan bir
necha dehqonni bir mavsumga chaqirilsa, sug'oruv bilimsizligi-
dan tez qutulish mumkin va yog'insiz yillar xavfidan ham hiyla
kutulgan bo'linadi. Bundan boshqa, xidrostansa qurilayotgan te-
varakda yuz gektarlab tekis yerlar bor. Shuningdek, yog'insiz
yillarda elektr kuchi orqali Qozonkadan yetarli suv chiqarish
imkoniyati turgan gap.

“Avangard”lilar tarafidan ishlangan ishlar yuqorida biz
so'zlagan ba'zi kamchiliklarni yo'qotish ular uchun hech narsa
emasligini ko'rsatib turadi.

G'IRVONLI MALLABOY AKA

(*ocherk*)

Irvodan jamoa (hozirgi Quybishev selsoveti) G'irvon qishlog'ini, ehtimolki, O'zbekistonda bilmagan va eshitmagan kishi yo'qdir. Ayniqsa, "G'irvon" yoki "g'irvonli" so'zi har kim uchun ham birmuncha qiziqroq eshitaladi; bu qiziqlik g'irvonlilarning soddaliklaridan, ulardan ba'zilarining emas, aksariyatining qiliq va harakatlarining o'zbeklar orasida zarb ul-masal bo'lib yurishidandir.

* * *

G'irvonlilardan birisi o'choq sotib olish uchun eshak minib, Namanganga tushadi. (G'irvon Namangan shahrining qo'sh-nisidir.) O'choqchidan bir katta tanirni savdolashib olgandan so'ng g'irvonli eshagiga minib o'tiradi va o'choqchidan tanirni o'z ustiga kiydirib qo'yishni so'raydi. Uchoqchilar ikki kishi bo'lib, tanirni eshak ustida o'tirgan g'irvonlining boshidan kiydiradilar. Tabiiy, zo'r tanir g'irvonlini ko'mib qoladi. Bu yoqdan qarovchig'a faqat uning do'ppisigina ko'rinadi. Shundan so'ng g'irvonli tanirning ichidan turib:

— Eshagimning boshini G'irvong'a to'g'rilab, haydab yuboringiz, — deydi.

O'choqchilar eshakni G'irvon tomonga to'g'rilab, yo'lga soladilar. Eshak yo'lga tushadi. G'irvon Namangandan to'rt chaqirimcha bir joydir. Tanir ichida borgan g'irvonli, holbuki soatlab yo'l yursa ham G'irvong'a borib yetolmaydi. Oxirida yo'l

yurushdan zerikib, yo'lovchilar so'rashga majbur bo'ladi:

— G'irvong'a yetayozdimmi, birodar?

Yo'lovchilar tanir ichidagi "marhum"ning holidan kulishib oladilar va ahvolni anglatadilar.

— G'irvon qayoqda? Hozir siz Uychi qishlog'ig'a yaqinlashdingiz.

Shundan g'irvonli o'z xatosiga tushunadi, ulardan eshakning boshini G'irvong'a to'g'rilashni so'raydi. Yo'lovchilar eshakni orqaga — G'irvonga qarab qaytarib, yo'lga soladilar... G'irvonlik tanir ichida yana soatlab eshakni yo'rg'alatadi. Vaholanki, G'irvong'a yetish imkoniyati sezilmaydi. Uzoq borgandan so'ng g'irvonlining qulog'ig'a guzardagilarning ola-g'ovuri eshitiladi: "O'z qishlog'imga yetdim", — deb o'ylaydi g'irvonli. Ikki oyog'ini uzangiga tirab, astagina qaddini rostlab, tanirdan boshini chiqaradi. Biroq... endi, baxtga qarshi, Namanganning Chorsusiga kirib borganligini sezadi.

* * *

Ekinga bir tuya kirib, palakni payhonlab yurganligini sezgan g'irvonli bir dehqon yordamga qo'ni-qo'shnilarini chaqiradi. Tuyani quvlab, ekindan chiqarish o'rniga orada maslahat boshlanadi.

— Agar hayvonni quvlasak, ekinni battarroq payhonlaydi, — deydilar, — Yaxshisi shuki, ilgari tuyani tutib, oyoq-qo'lini bog'lash kerak, so'ngra hammamiz birdan sudrashib ekindan chiqaramiz!

Maslahat shunga to'xtagandan so'ng tuya tutiladi, oyoq-qo'li bog'lanib yiqitiladi va tevarakdan ha-halashib tuya sudraladi. Ming balo bilan tuya ekindan tashqarig'a chiqarilsa ham, lekin palakning uchdan biri kishilar va sudralgan tuya ostida ezilib nobud bo'ladi.

* * *

Namanganga birinchi martaba temir yo'l ishlanib, sinov parovoz kelish xabari G'irvong'a ham yetadi. Bug' quvvati bilan yuriy turg'on hayvonning dunyoda yashaganligini g'irvonli og'aynilardan hech birining boshiga sig'ib yetolmaydi.

— O'zi qop-qora bo'lsa, yurganda damba-dam pishqirsa, chanqaganda qichqirsa, ming chelaklab suv ichib, ochiqqanda bo'kirsa — bu, albatta, zo'r bir hayvon bo'lsa kerak! — deb o'ylaydi g'irvonliklar.

Oradan ko'p o'tmay, g'irvonlilar orasida parovoz "qora ayg'ir" ismini ham olib qo'yadi.

Sinov parovozi kelishidan biror kun ilgari G'irvonda "qora ayg'ir"ga peshkash hozirligi ko'riladi. Parovoz kelib yetishdan biror soat ilgari stansa yonida g'irvonlilarning peshkashlari hozir turadi, U ham bo'lsa, "qora ayg'ir"ga deb hozirlangan o'n arava ko'k beda, ellik put chamasi arpa bo'ladi.

— Issiq kunda ochiqib kelsa kerak, G'irvonning muzdek ko'k bedasini yeb, bir to'yib olsin qora ayg'ir! — deydi g'irvonlilar.

Orada "qora ayg'ir"ning ko'k beda bilan kifoyalana olmasligini ehtimol tutuvchilar ham bo'ldi.

— To'ymasa, mana ellik put arpani ham oldiga to'kamiz, — deydi g'irvonlilar...

* * *

Shunday, Oktabr inqilobigacha g'irvonlilarni biz faqat yuqoridag'i singari zarb ul-masal soddaliklar yo'sini bilan taniymiz. Agar birov bizga: "Shu senga o'zining soddaligi, muhokamasizligi bilan tanilgan G'irvon Oktabr inqilobi barakasida

O'zbekiston bo'yicha birinchi hisoblangan va paxtachilik dunyosiga eng muhim yangilik bergan ustoz yetishtirib berajak!" — desa, o'sha vaqtlarda biz bu so'zga aslo ishonolmas edik. Vaholanki, bugun bu bir haqiqatdir.

G'irvonli Mallaboy aka Boqiboyevni O'zbekistonda kim tanimasin, uning "shaxmat usuli" deb mashhur ixtiro kartasini paxtakorlargina emas, O'zbekiston jamoatchilik ommasidan kim bilmasin?! Shubha yo'qki, bir necha yilning ichida Mallaboy akening "shaxmat usuli" butun O'zbekiston kolxozchilari tomonidan ommaviy ishga tadbiiq qilina turg'an qishloq xo'jalik moshinalari bilan tug'ushg'an oz mehnat va serunum bir usuldir. G'irvonli Mallaboy akening ismi ham butun dunyo paxtachilari tomonidan xayriyat qilina turg'an bir ismdir,

Mallaboy aka Boqiboyev 1889-yilda G'irvon qishlog'ida oz yerli bir dehqon oilasida dunyoga keladi. Oilaning o'z yeri maishatlari uchun kifoya qilmag'anlikdan yosh Mallaboy aka yoz kunlari paxtachi boylarga yollanib ishlaydi.

Mallaboy aka bir qancha boylarga xizmat qiladi. Jumladan, Badanov ismli armani boyida o'n bir yil, In'om kvaschi ismli o'zbek boyida bir necha yil yollanib ishlaydi. Bu endi Oktabr inqilobigacha; inqilobning birinchi besh yili Mallaboy akani u qadar jonlantirmaydi. Chunki o'zaro urush va bosmachilik bilan dehqonchilik, ayniqsa, Farg'onada paxtachilik juda ham orqag'a ketib, Mallaboy aka kabi talantli kishilar yaxshigina saktaga¹ uchrab oladilar.

Mallaboy akening jonlanish davri yer islohotidan so'ng boshlanadi. Mallaboy aka, boshqalar qatorida, islohotdan yer oladi va 1924-yildan artelga uyushib, paxtachilikka kirishadi.

Garchi artel bo'lib ishlagan yillarda paxta shartnomasini yuz foiz bajarib kelingan bo'lsa ham, biroq bunda bir qancha

¹ Sakta — turg'unlik.

jihatlar bilan Mallaboy aka norozi qoladi. Masalan, artel a'zolari-ning o'zlariga xos alohida yerlari bor. Shu yerga, o'z bilimlari-cha, paxta ekadilar. Kuz yetganda, olingan hosilni bir qozong'a solib, Paxtaqo'mg'a topshiradilar. Olingan oqcha o'rtada barobar taqsim qilinadi. Mana shundan yoz bo'yi tinmay ishlagan, hosilni plonga nisbatan ikki yuz foiz bajargan kishi ham, nomiga artel a'zosi, otiga paxtakor bo'lib, yoz bo'yicha yalqov va dangasalik bilan kelgan hamda plonni ellik foizga yetkazolmagan odam ham kuzda daromadni barobar bo'lishib olaveradi.

Mana shuning singari haqsiz ishlar Mallaboy akaning artel-dan havsalasini sovutadi. 1927-yilda shu artel "Qizil omoch" ismi bilan kolxozga aylanganda ham yana ishga Mallaboy aka sovuq qaraydi: "Eski tos, eski hammom", — deb o'ylaydi.

Mallaboy aka boshqalarg'a nisbatan katta tajribalarga ega va bir o'zi ikki-uch kishining ishini qila turgan devkor yigit, shu soyada garchi boshqalarning biri bit, biti sirka bo'lmasa ham Mallaboy aka yer islohotidan so'ng anchagina to'qlanib qoladi: qo'sh uchun yaxshi oti, sog'ish uchun sig'ir, qo'y degandek o'rta dehqonlar qatorig'a kirgan bo'ladi.

1930-yilga qadar kolxozning ishchi-hayvon kuchlari birlashtirilmagan. 1930-yilda ishchi-hayvon kuchlarini birlashtirish masalasi ko'tariladi. Bu masala Mallabop akani anchagina xafa qiladi.

"Essizgina, mollarim rasvo bo'laturgan bo'ldi", — deb o'ylaydi va yo'lini topsa, kolxozni tashlab qochish fikrigacha borib yetadi. Chunki Mallaboy akaning o'sha vaqtdagi fikricha, shuncha mashaqqat bilan topgan mollarining besh kunda haromga chiqishi aniq gap...

Mallaboy aka bo'lmaganda, kolxozning gullay olmasligini sezgan ba'zi o'rtoqlari uni zo'rlab bo'lsa ham kolxozda qoldiradilar va o'zini kolxozning hosilot sho'rosi raisi qilib belgilaydilar.

Hosilot sho'rosiga belgilangach, Mallaboy akadagi boyagi "Otim haromga chiqdi", degan qanoat birdan zoyil bo'ladi¹. Chunki Mallaboy akaga qolsa, otinigina emas, butun xo'jalik, jon va asboblarni haromga chiqaruvchi omil ko'p ishlab, natijada hosilni kam olishdir. Hosilni mehnatga yarasha olib turganda, mol va jonga baraka kirdi, degan so'zdir.

Mallaboy aka: "O'z boshimga ishlagan yillarda bir kunlik yerdan o'n besh qopg'a yetkazib hosil olganman", — deydi. G'irvon va atrof dehqonlarning istilohicha, bir kunlik yer ikki tanob bo'ladi va bir qop sakkiz put paxtadan iborat. Shu hisobda ikki tanob yer 120 put paxta berishi kerakdir. Ya'ni, xektar hisobiga olganda, bir xektar besh tanob bo'lsa, 300 put hosil yoki 50 sentner tevaragida hosil olish lozimdir. Mallaboy akaning "Otim haromga chiqdi", degan fikridan qaytargan narsa esa kolxozning hosilot sho'rosiga rais belgilanishi va shu vositada bir xektar yerdan 300 putga yetkazib hosil undirish orzusi bo'ladi.

— Hosilot sho'rosiga rais bo'lganimdan so'ng kolxozni chinlab gullatishga yeng shimardim, — deydi Mallaboy aka.

Mallaboy aka yosh chog'ida In'om kvaschida xizmatkor ekan, paxta ishlashda ajoyib bir usulni tajriba qilib qo'yg'an. Biroq bu usulni — "shaxmat usuli"ni — shu topqacha o'z xo'jaligida tadbiiq etgan bo'lsa ham ko'pchilikka o'tkazolmagan. Bunga ham sabab, birinchidan, uning usuliga ko'pchilikning parvosiz qarashlari bo'lgan. Bugun kolxozga uyushgandan so'ng hukumat kolxozni qishloq xo'jalik moshina asboblari bilan ko'mib tashlamoqda — demak, moshina yetarli. Undan keyin Mallaboy akaning o'zi — hosilot sho'ro raisi!

Biroq kam mehnat, serunum shaxmat usuliga kolxoz a'zolari ishonib yetmaydilar. Birinchi yil (1930) shu usulni juda oz, arzimagan miqdorda tadbiiq etishga to'g'ri keladi. Baharhol

¹ Zoyil bo'lmoq — yo'qolmoq.

birinchi yilning tajribasi. Mallaboy aka yoniga birmuncha xayrixohlar keltirib qo'shadi.

1931-yilda Mallaboy aka o'zining "shaxmat usuli" uchun yana kurash olib boradi, har qancha kurashsa ham natija ko'ngil-dagicha emas.

— Biz bir xektarga yuz ming tup ko'chat ketkazamiz, vaholanki, sizning "shaxmat"ingiz yetmish olti ming tupdan ortig'ini qabul qilmas ekan! — deydilar.

— "Shaxmat usuli" uchun paxtani yuz foiz moshinalash-tirish, bu nima degan so'z, ketmon urmasdan, yerdan paxta olib bo'ladimi? — deydi kekxa kolxozchilar.

"Shaxmat usuli"ga qarshilik ko'p. Biroq Mallaboy aka ham bo'sh kelmaydi.

Natijada 1931-yilda yangi usulni yana biroz kengaytirishga muvaffaq bo'ladi.

1932-yil ekin mavsumida Mallaboy aka o'z usulini amalga oshirish uchun juda qattiq kirishadi.

— Hammangizdan yashirin emas, — deydi Mallaboy aka, — sizning eski ketmon usulingiz odamdan ikki barobar kuch sarf qilishni talab qiladi. Menim "shaxmat usuli"mda aksar ishni ot va moshina bajarganidek, kishi kuchini siznikidan to'rt barobar kam talab qiladi. Hosilga kelganda, eski usuldan kam unum ber-maydi. Menga ishonib, yangi usulga o'tishingizni talab qilaman!

Bu taklif oldida kolxozdagi muhokamali kishilar chinlab o'ylab qoladilar. Lekin orada yangi usulga hanuz ishonchsiz qarovchilar ham ko'p bo'ladi.

Shu yil kolxoz to'rt brigadaga bo'linib, har bir brigadaga xektardan yer taqsim qilinadi. Yerning kuchli va kuchsizligi ham o'zaro ittifoq bilan tekislashtiriladi. Kuzgi va ko'klam haydovlari ham har to'rt bo'lakka barobar berilib, punkt bilan 16 yarim sentnerga shartnoma tuzuladi.

Yuqorida so'zlangancha, hanuz Mallaboy aka usuliga qar-

shilik zo‘r. Buni quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin:

	jo‘yak usuli (xektar bilan)	shaxmat usuli (xektar bilan)
1-brigada boshligi Bo‘taboy Yunus o‘g‘li	1 1/2	1 1 2
2-brigada boshlig‘i Eshonxo‘ja Qodirxo‘jayev	5 1 2	15 1/2
3-brigada boshlig‘i Abdilhalil Badalboy o‘g‘li	10 1 1	10 1.2
4-brigada boshlig‘i Tursunboy Xudoybergan o‘g‘li.....	21	—

Shunchalik muvaffaqiyatdan ham suyungan Mallaboy aka har to‘rt brigada ustidan rahbarlik qilib turadi. Brigadalarga bo‘linish natijasida bu yil kolxozchilarda yaxshigina jonlilik ko‘riladi. Brigadalar astoydil ishlaydilar. Ayniqsa, eski jo‘yak usulini oldinga surgan 4-brigada boshqalarga qaraganda ham jonbozlikni ko‘proq qiladi. Chunki eski usulni yangi moshina usuliga nisbatan ortiqlicini ko‘rsatish xam kerak.

Kuz yetadi, terim boshlanadi. Har qaysi brigada chiqitsiz suratda o‘z paxtasini topshirishga harakat qiladi. Terim bitib, g‘alvir suvdan ko‘tarilgandan so‘ng ma‘lum bo‘ldiki, Mallaboy akaning “shaxmat usuli” juda ham o‘ktam bir usuldir. Chunonchi:

To‘rtinchi brigada yuz foiz jo‘yak — olgan hosili planga nisbatan 104 foiz, uchinchi brigada elli foiz jo‘yak va elli foiz shaxmat — olgan hosili 108 foiz. Ikkinchi brigada 25 foiz jo‘yak va 75 foiz shaxmat — olgan hosili 112 foiz. Birinchi brigada 95 foiz shaxmat — olgan hosili 116 foiz.

Mallaboy akaning g‘alaba tantanasi boshlandi. Eski usulni ortiq hisoblab, yoz bo‘yi terlab kelgan to‘rtinchi brigada bosh-

lig'i o'rtoq Turg'unboy Xudoybergan o'g'lining izosi ichiga tushgan, bosh ko'tarolmaydi. Masalaga ishonchsizroq qarab, o'z ekinlariga eski usulni aralashtirgan boshqa brigadalar: "Nega yuz foiz shaxmat qilmadik", — deb pushaymon yeydilar.

Mallaboy akaning g'alabasi yolg'iz o'z brigadalari orasidagina chegaralanib qolmaydi. Bu dovriq rayon bo'ylab ketadi. Chunki bu yil rayonda faqat "Bauman" kolxozigina plonni bajarib, boshqa kolxozlar orqada qolg'an bo'ladilar. Yani rayon bo'yicha ham shu "shaxmat usuli" barakasida birinchilikni Mallaboy akaning "Qizil omoch" kolxozi oladi. Rayon Mallaboy akani 300 so'm pul bilan mukofotlash bilan birga "shaxmat usuli"ni boshqa kolxozlarga tadbiq etishga bel bog'laydi. Bir bugina emas, "shaxmat usuli" dovrig'i butun O'zbekiston bo'yicha yurib ketadi; gazetalarda bu haqli muhokamalar yuritilib, Mallaboy akaning ismi gazetalardan gazetalarga ko'chadi.

"Qizil omoch" kolxozchilari o'zlarining umumiy majlislarida kelasi 1933-yil ekin mavsumida 100 protsent "shaxmat usuli"ga o'tishga qaror chiqarishlari bilan barobar kolhoz ismini ham "Qizil shaxmat" deb o'zgartiradilar.

Maqolamiz "shaxmat usuli"ning nazariyot va tajribasi uchun bag'ishlanib yozilmaganlikdan biz bu o'rinda u jihatlarga tegmaymiz, lekin shunisi borki, bu usul bizning shu kungacha bo'lib kelgan usullarimizga nisbatan ko'p sodda, qulay va ishga tadbiqi oson bir usuldir.

DUMBASI TUSHIB QOLGAN EMISH

(kichkina fileto 'n)

Eski shahar oziq sho'basiga bag'ishlayman

Go'sht...

Otingdan o'rgulay, o'rgulay, go'sht!.. Necha muncha o'zingni bizdan aziz tutding? Biz sening qadringga yetmadikmi?..

Men o'quvchining go'sht haqidagi holini bilmayman. Lekin o'zim go'sht otini eshitsam, og'zimdan kalaba-kalaba suvlar keladir. O'zini qassob okalar qanorasida ko'rgandami? — Ko'rganda, vasliga yetolmay yurgan ma'shuqangg'a uchrashkan kabi xush boshingdan uchadir, ixtiyorsiz ichingdan gulduros ila "Ey, go'sh-sh-sh-sht" degan so'z tashqariga otiladir. Jonajoning, mehriboning bo'lgan go'shtning ikki qadog'ini zolim, noinsof qassobning qanorasidan ajratib olmoqchi bo'lub, qahramononasiga jekirib:

— Go'shtning qadog'i qancha?..

Badbaxt qassob avzoini buzmay:

— Go'shtning qadog'i o'ttuz olti so'm, mulla aka!

— (O'l, mulla aka!) O'ttuz olti so'm?

Eshitgach, daming ichingga tushib ketar. Bir so'z qaytar-may mazlumona go'shtka termula-termula o'z yo'lingga jo'nay-san. Do'sting bo'lgan go'sht ma'yusona bir ravishda orqangdan qarab qolur. Mana, lofchiga yozmoqqa havasli bo'lgan yoshlarga material!..

Ramazón iydidan biri jonvor go'shtning ishtiyoqida oh-voh ila kun kechirib, oziq sho'basining marhamatiga intizorlikda

kelmoqda edim. To'g'risini aytmoqg'a majburdirmanki, bu orada butun kechalar go'sht ishtiyoqida uxlay olmadim. Ko'z ilinganda, ko'rilgan tushka ham go'shtdan boshqa nimarsa kirmaydi.

Qoq o'ttuz birinchi kun deganda, xalq tilida "Ertaga oziq komiteti go'sht berar emish" degan xabarlar yuriy boshlab, yuragim azbaroyi xursandlikdan tars yorila yozdi. Bu xabar halidan hali to'g'riligig'a chiqib, dilim urmoqg'a boshladi. Butun sabr-u qarorim qo'ldan ketdi... Uy ichimizni endi surishtirmay ham yetti yashardin tortib, to yetmish yasharigacha go'sht xursandligiga chiday olmay, raqsga (tansaga) kelgan edi. Shu kun mahalla komitetidan go'sht varaqasini olganimni o'zim ham sezmay qoldim. Ertagi go'sht shodligi ila bu kun kechasi butun uy ichimizda uyqu o'rniga ertaga oladigan go'shtning qay xilda tomoq qilmoq maslahati edi. Oyimga manti durust emish, yangamga somsa yaxshi emish, hammadan ham akamniki qiziq: ertaga qorindin boshqasini yesa, o'zini-o'zi shahid qilar emish; buni ham qo'ying, dadamga bir six bo'lsa ham kabob tuzuk emish.

Endi meni ham tilagimni eshiting: menga hammasi bo'lsa ham noz qiladigan o'rnim yo'q...

Erta birlan uy ichidan fotihani olib, "yo hu, yo man hu"ni tilga jo qilib, qo'lda kattakon xalta ila: "...nchi qassoblik do'koni qaydasan", — deb yo'lga ravona bo'ldik. Uydagilar, nuqul go'shtning kalta biqinini, moyning esa nuqul dumbasini olmoqg'a ta'kidlab duolashdilar.

Endi yo'lda go'shtning beriladigan miqdori haqinda rivo-yatlar ko'b; birovi: "Jon boshiga ikki qadoq", — desa, birovi: "Bir qadoq", — deydi. Ikki qadoq deganning og'zidan o'pking, bir qadoqliqni bo'g'ging keladir. Yog' xususinda rivoyatlar uch xil. Birov jonga bir qadoq, ikkinchisi chorak qadoq, tag'i bir shaytonrog'i: "Yog' olaman, deb ovora bo'lmanglar, komitet qo'ylari daladan kelishda dumbasini yo'lda tushirib qo'yibdir", — deydi.

Menga qolsa, dumbasi o'g'irlangan bo'lsun! Ishqilib, go'shti yog'lir oq bo'lsa bo'lgani!..

Mana! Yigirma ...nchi do'konning oldig'a yetdim. Odamlar o'ttuz quloqch dum; o'ttuz birinchi quloqchning boshlamasiga biz turdik. Lekin hali go'sht kelgani yo'q emish; dumga turgan chog'imda soat o'n birlar chamasi edi, oftob peshonadan uradir. Biz qovrilib, peshonadagi terni surib turamiz. Oradan bir soat o'tdi, go'sht yo'q. Biz komitetdan koyishib tag'i bir soat turdik, lekin hamon go'sht yo'q. Uzoqdan bir aroba ko'rinib qolsa, ana-ana, go'sht, deb hovriqishib bir-birimizni ilgarig'a qarab itarishib siqamiz; ichimizdan allakim: "Dod, siqildim", — deb yuborsa, tag'i orqaga qaytib, orani bo'shatamiz.

Oradan tag'i yarim soat vaqt o'tib ketdi! Lekin, hamisha: yo'q, yo'q, yo'q. Oftobning issig'i quvvatlanib, qob-qora terga tushib ketdik. Holdin toyganlar: "Go'sht-yog' yemagan o'libtimmi?.." — deb raddan chiqib keta boshladilar. Oz fursatni ichida o'ttuz quloqchlik dumda manga o'xshash o'lugi bir pullardin besh-olti kishi qoldiq.

Oradan tag'i bir soat vaqt o'tgach, kunduz soat ikkilarda uzoqdan go'shtlik aroba ko'rinib qoldi. Tabiiy, bu arobadagi go'sht bizim uchun edi. Uzoq-uzoq "uh" tortishib qo'ydik. Aroba do'konning oldiga to'xtagach, na ko'z ila ko'raylik, bir aroba qip-qizil o'pkaga o'xshagan go'sht, yigirma martaba ag'darish-to'ntarish qilganda, chigitdek moy topish mumkin emas. Buning ustiga, ustob terisi so'yulib olingan bo'lganligidan go'sht ustiga chang, tuproq o'lturib, allanichkalangan. Go'shtka qo'ygan muhabbatimning o'rmini hozir bir nafrat oldi. Ko'ngil ag'dorilib, qayt qilayozdim. Mana, sanga go'sht! Bechora qo'yning govdasiga xitoban: "Ey bechora qo'y! Sen nima gunoh qildingki, seni bu holga tushurib ozdirdilar?", — dedim. Ixtiyorsiz qo'ylarga rahmim kelib, ko'zim yoshlandi. Biz: "Qo'yning dumbasini ikkinchi arobadadir", — deb o'ylab o'lturgan edik. Lekin

ichimizdan kimdir birov “Moy qani?” — deb qassobdan so‘radi. “Moyi yo‘q!” — dedi qassob. Men ixtiyorsiz xaxolab kulib yubordim. Ertalabki shaytonning: “Komitet qo‘yining dumbasi tushib qolgan”, — degan so‘zi esimga tushkan edi. “Ha, badbaxt, rost gapurgan ekansan!” — deb qo‘ydim.

Go‘sht jon boshiga yarim qadoq emish.

To‘rt qadoq shaqir-shuqir so‘ngakni uyga ko‘tarib kelganimda, uydagilarni ham tarbuzi qo‘ltug‘idan tushkan edi...

BOZOR SURISHTIRMAYDIR

(kichkina fileto 'n)

Men o'zim ishyoqmas dangasaman. Buning ustiga, biroz dadamizga kekim ham bor. Kaminalariga ma'lum bo'lsa kerak: aksar yalqovlar o'zlari uchun foydalik bo'lgan ishlarga dangasalik qilib, foydasiz bo'lgan ishlar orqasinda umr o'tkazalar.

Men ham bir ishyoqmas bo'luvim sifati-la, ba'zi o'zim uchun foydasiz, ammo ko'bincha kalamni aylantirub yurgan bir ish to'g'risida biroz gapurmoqchiman. Hovlining bir yonida etukchi bir qo'shnim bor. Uyqudan bo'shagan vaqtimdan foydalanib, haligi etukchining ishxonasida yonboshlayman. Yo'q, so'zni shundog' boshlaganda, tuzuk chiqmaydirg'ang'a o'xshaydir.

"Ishtirokiyun" gazetasig'a ba'zi vaqt ko'zim tushib qoladir: ilgariroq (agar yodimdan ko'tarilmagan bo'lsa) "Ishchi" degan burov — Xurshidmi, Murshidmi degonning va allakimlarning yozgan teatr kitobini tanqidmi-manqidmi qilib (sistemaga solib) yurar edi.

Ammo keyingi vaqtlarda haligi "Ishchi" deganimiz suvga urib ketdimi, osmonga uchib ketdimi — hartovur tanqidini yozmiy boshlab suv quygandek jimjit bo'ldi.

Endi haligi suvga urib ketkanning o'rniga mulla Mirmullami, domlo Mirmullami degan tag'i birisi bosh ko'tarib: "Falonchi o'yun bo'ldi, pistonchining asari edi. Orsizlar (orsizmi-ortismi chiranishga uncha aqlim yetmaydir) tuzuk o'ynamadi, asar buzuq edi, falonchi, pismadonchining asari edi!" — deb ilgarisig'a o'xshash jovrab, oh-voh qilib, boshini tog'-toshka urib keladir. Ikkalasining ismidan chiqibmiz; bu so'ngg'isi "teatrmuziqa"

yozganda, “Qo’shtut ko’li”, “Bo’shtut ko’li”, “Mozor ko’li”... allanima balo ko’li qamalidir”, — deb yozadir. Lekin “qo’li” deganiga tushunmoq uchun lug’at ko’rolmadim. Mana manim endi shu “teatr-muziqa” yozib, dod-voy qiluvchiga xunofim keladir. To’g’risini etkanda, bechoraning holiga rahmim keladir. Ko’bdan beri shu dod-voy ichini shu balodan qutqazishka bir chora izlab yuraman va o’ylab-o’ylab tegiga yetolmay, boshim og’rib ketadir. “Endi mundan so’ng “teatr-muziqa”sini yozmas”, — deb turganimda, tag’i lo’p etib, dod-voyi yozilib chiqadir. “Bu bechoraning boshi og’rimasmikin-a?” — deb achinib, bechorani shu balodan qutqazuv chorasini asta-xizil izlayman, ammo topolmayman...

Tag’i “teatr-muziqa”, tag’i “orsiz o’yunni buzdi”, tag’i “hazrat pistonchi bir safsata yozdi”...

“Hoy, boshi og’rimagan bechora, o’zing kambag’al odamga o’xshaysan: biror kasalga chalinib qolma, qo’y! Orsiz buzsa, buzsin o’yunni, safsatami-papsatami yozsa yozipti! San bechoraga nima kerak? O’zingni boshqa kasaling yo’qmi?” — deyman. Shu so’z og’zimdan chiqib tugamaydir, tag’i birini yozib, “dod, qaroqchi” qilibdir.

“Endi bechoraga chinlab yordam bo’lmas ekan”, — deb kecha biroz etukchining ishxonasida yonboshlab o’yladim.

Haligi “teatr-muziqa”ning buzuqligi to’g’risida o’ylabman. “Nega bizning “teatr-muziqa” shundoq kishi buzuq bo’lur ekan?” — deyman.

Etukchining qo’li-qo’liga tegmay, biliska taqadir, bigiz tiqadir, quvda uradir, teri kesadir, “Tilish til”, — deb shogirdini koyiydir, gazan qayraydir. Xulosa, shogirdi ila o’zi jonlik mashina; man chalqancha yotaman, etukchining harakati taajjubimning mujibi bo’ldi. Tikkan etugini olib ko’rdim, baxyasi katta, chokiga qo’l sig’adir, san’at yo’q. Kiyganda xizmat qilsa, bir kunga chidaydir. Mendak yalpi odam Toshkandning toshsiz, qishki loy

deganidan o'n qadam kechsa, ish tamom.

“Bu o'tukungni kim oladir?” — dedim. Etukchi: “Hayf bo'lmasun, bozor surishtirmaydir”, — dedi. Tag'i chalqancha yotdim. Fikrim “bozor surishtirmaydir”da to'xtadi. Yana “teatr muziqachi”ning tashvishig'a tushdim. “To'xta, — dedim, — hozir “teatr-muzika”ni ham bozor surishtirmas ekan”, — dedim.

Etukdo'zning javobi “teatr va muzika” ila azoblanuvchiga naq to'g'ri javob edi.

Bozor surishtirmas, manim ham qo'pol etuk tikib, usta falonchi bo'lib foydalangim keldi. Endi haligi “muzika”ga qarshi azoblanuvchiga aytaman:

Etukchi aytkandak, orsizlarning ham bozori ko'targani uchun o'yunni buzuv o'ynaydirganlardir! Pyesa yozuvchilari ham bozor surishtirmagani uchun qaydagi safsata, cho'b, xashak, supurindilardan har soat bir pyesa yozsa, dunyoda o'zlaridan asar qoldirmoqg'a harakat qiladiganlardir.

Azoblanuvchi o'rtoq! Hozir, ma'lumki, har bir narsaning bozori “usta, manga ber!” Qo'poldo'z etukchi qo'shnimning so'zidan ma'lum bo'ldikim, bozor surishtirmas ekan!

Har kim bo'lsa ham o'tmas matohini o'tkuzib qolsun. Vaqt kelur, bozor kasod bo'lur, xalq molning yaxshisini tilar, har kasbda haqiqiy ustalargina qolur. Boshqalar o'z chorug'ini sudrar va sudrashka majbur bo'lur. Shungacha-chi, o'rtoq: tishni-tishka qo'yib, damni ichka olib, tinchkina yurmoq kerak!

Ammo hozir bozor surishtirmaydir!!!

Toshka yomg'ur kor qilmaydir!!!

KULA-KULA O'LASAN...

(kichkina fileto'n)

Bir vaqtlarda atoqli bir lo'ttichi turli lo'ttilar (fo'kislar) ko'rsatar edi.

Ayniqsa uning chigildak bir qog'ozni og'zug'a solub, hech bir poyonsiz uzun qilub og'zidan chiqaruvchi bizni hayron qoltirar erdi. Lo'ttiboz yo'q kunlarda aning o'niga lo'ttichilik qila turgan bir majnun bor edi.

— Kishilar-kishilar! Potino-potino! (Chunki lo'ttiboz xalqni yig'moqchi bo'lganda, "Patino" degan bir ashulani aytar edi.).

Xalq majnunning atrofiga quruq bir mazax uchun yig'ilganda, majnun yana bir marta "potino"sini aytub olgach, cho'n-chagidan bir changal qog'oz chiqarub, xalqqa ko'rsatub chiqar edi. (Lo'ttichi og'ziga solaturg'on chigildak qog'ozni chigitdak yalmalkan ekanligin xalqdan tasdiq ettirar va og'zini xam ochub, boshqa qog'oz yo'qliqni ko'rsatar edi.).

Majnun qulunch bir holda xalqqa og'zini a...a... qilib ochub, kuldirgach, boyagi bir changal qog'ozni og'zig'a solub, qiziq bir vaziyat ila yamliy boshlar va bir qancha vaqt chaynab, qog'ozni uvitub, yana "potino-potino"sini aytub, qog'ozni lo'mbozdek qilub olur va hunarini xalqqa g'ururlanub ko'rsatub chiqar edi. Majnunning bu ishi lo'ttiboznigidan ham xalqqa ortiq kulgi berar, hammamiz bu vaqt kula-kula o'lar edik.

Ishchining kichkina fileto'ni bo'lgan "Ost-ustiga"si bosilub chiqdi, bunisi "kichkina fileto'n"i emish. "Ost-ustiga"si emish "Eram-Eram bog'i" emish. Eski shahardagi inqilob shunga o'xshar emish. Kelishmagan qiluq o'lsun, deymi? Buni o'qub,

kula-kula o'lasan!..

Nashriyoti G'ozzi Yunusdan besh yuz qirq bir va qirq ikkinchisi bo'lgan "So'yelayturgan qo'g'urchoq" ila "Turkiston tabibi"si bosilub chiqdi. Nashriyoti G'ozzi Yunusning yo'llarida ham besh yuz qirq nechalanchi martaba noshirdan bir-ikki so'z bor. Buyuk noshir G'ozzi Yunus janoblarining nashriyotlarida bo'laturgan bir-ikki so'zlari haqida bir o'rtog'im:

"Har bir asarning boshinda bir-ikki so'z yozub, qog'ozni bemaza qilub yurgandan ko'ra bir-ikki so'zlarni hammasini birga yig'ub, "Noshirdan bir-ikki so'z" isminda bir narsa yozub, nashr etsa, kitobning boshig'a yozg'ong'a qaraganda G'ozzi Yunus ismini chiqarishg'a qulayroq xam bir asar maydonga kelgan bo'lmasmi?" — degan edi.

Bu so'zlarga kula-kula o'lasan!..

"So'zlayturg'on qo'g'irchoq" ozarbayjonchadan buyuk noshirning o'z tabdillari ekanki, tantana ila imzolari asar boshinda qo'yilmishdir. Birov "Kalning tanigani sho'ra", desa, tag'i: kula-kula o'lasan!

Musulmoncha "Rusta" gazetasining Eski shahar sho'basining vakilligiga mashhur eslikli yoshlardan G'ulom Zafariy ta'yin etilgan. Rivoyatlarga qaraganda, Toshkentda bu o'rin uchun o'zindan boshqa eslik kishi topolmag'ach, G'ulom Zafariy o'zini ta'yin etdirgan!

"Bu o'rtoq shu kundan boshlab o'z atrofiga esikli yosh o'smirlarni yig'a boshladi", — dedilar...

Tag'i: kula-kula o'lasan!..

IJMOLI SAYOSIY

(kichkina fileto 'n)

Yuqoridagi sarlavhani o'qug'ach, miyangizga Xenuya konferensiyasi, Lo'yd Jo'rjning ich og'rig'i-yu Anqaraning itlanishi va boshqa shuning kabi bir-birisiga zid bo'lg'an fikrlar qatorlasha boshlar.

Agar chindan ham shunday fikrlar qatorlashqon, cho'chitkan va yuragingizni bezillatgan bo'lsalar, siz tinchlana ko'ringiz. Chunki maning "Ijmoli sayosiy" sarlavhasi ostida yoza turg'an maqolam boshqa to'g'ridadir. Agar ichingiz kelmay, "Ijmoli sayosiy"imni hozirdan bilub olmoqqa yuragingiz shopirinib ishtibohingiz kuchaygan bo'lsa, "berdi"sini ham aytib qo'ya qolay. Oting qurub, egasiz qolg'ur masalaning ta'biri ham qiyin... Nima deb ta'bir etsam ekan?!

Masalaning mavzu'i "Imlo ijmoli sayosiy" yo'q, bu kelishinqiramadi. "Ijmoli sayosiyl imlo", endi bu ta'bir uttasidan ham qo'polroq chiqdi. Bundagi ta'birlarning ikkalasi ham o'zimga yoqmaydir. Lekin siz bu ikki to'mtoqdan bir narsa sezgan bo'lsangiz, faqiringizga yetar. Joyi kelganda shuni ham aytib o'tay: fikringiz janobi oliy hazrat Darvesh kabi alsabasn-ai, sharqiyai, g'arbiyai, qalmoqiyalardan ta'birlar to'qumoqqa va suxan gulistonining bulbuli, xush alxoni bo'lmoqqa qo'limdan kelmas.

Maqsadg'a ko'chaylik:

Sharq sayosat duiyosining, aynuqsa turklik olamining miyasini aylandirgan masalalardan biri va birinchisi imlo siyosatidir. Sharq sayosiyunlarining ba'zilarining so'zlarig'a qara-

g'anda, Sharqning butun ozodlig'i ham shu imlo sayosatiga kelib bog'lanur ekan.

Bu kungacha imlo politikasi qochiq urushuvlari kabi, undan-bundan, part-purt tovish chiqarib qo'ysa ham, lekin keyingi kunlarda, aynuqsa Toshkanda jiddiy suratga kirib ketdi. Toshkanda maorif qurultoyi bo'lub, belgulangan qurultoy "Imlo harb maydoni" tusini olib yubordi. Butun qish bo'yi bir-birisiga qarshi tishini g'ijirlatib kelgan ikki firqa ixtiyorsiz suratda bir-biriga hujum qilishdi. Ahvolning bitishiga qarag'anda, chaplarning muvaffaqiyati ochiq ko'rinib qoldi. Chunki chaplarning avang'ardlaridan bo'lg'an Fitrat xalfa Buxorog'a ketkanidan beri kecha-kunduz tinmay, o'zining negiz qo'yg'an masalasiga muvaffaqiyat tilab, hazrat Bahovaddinning daxmasidan bir qarish ham ajralmag'an; rivoyatlarga qarag'anda: "Uning duosi mustajob bo'lg'an", — deydirlar. Biroq o'nglarning boshliqlaridan sanalg'an Munavvar qori garchi hazrat Shayxovanditahur mozoridan bir qarish ajralmay, tunab va kunab chiqqan bo'lsa ham lekin: "Buzrukning nazari asnosida ko'pincha mudrab g'ofil qoldi", — deydirlar. Xo'jand atrofi Ashurali Zohiriy imoratida bo'lsa ham biroq ul amaliy ishlar ishlay olmag'an. Chunki bu kungacha ul chapanlar bilan birinchi to'qnashuvda olg'an jaro-hatini tuzatmay bilan sargardon bo'lub boshqa hozirliqlar ko'ra olmag'an ekan.

Ishonchlik matbaalardan oling'an xabarlarga qarag'anda, bu dahshatlik foji'ani o'z foydalari bilan bitirmak uchun har ikki tomon o'z vakillarini duogo'y Nazir mahzum uzlatxonasiga kirgizib, nazir berib, xolisona duolar olg'an ekanlar. Birinchidan, Nazir mahzumning ko'nglining yumshoqlig'i, ikkinchidan, o'zining ham qaysi yoqqa o'tmakka bo'lg'an taraddudi sabablari bilan hali bir tarafka ham duoyi xayr qilganlig'i ma'lum bo'lmay, bir tomonning muvaffaqiyati va ikkinchining mag'lubiyatiga yo'l bermay qolg'anlig'i ma'lum bo'ldi.

Imlo politikasidan boshqa masalalarga o'tkanda, qurultoy a'zolarining turluk tomong'a turub ketib, ustal yonida prizidiumning yolg'uz qolg'an vaqtlaridag'i tinchliklardan ko'z yumub o'tilsa, "Muhoraba qonliq bordi", demakka arzig'uliqdir.

Bu to'g'ridag'i afkori umumiyaga kelganda, ishlar bundaydir:

Toshkandning Yahyaxo'ja eshon, Etemas eshon va Cho'p-qo'y mas eshonlari kecha-kunduz yig'lab-sixtab Munavvar qori va Avloniy haqig'a duo qilib, chaplarga la'nat yog'dirib yotadirlar.

Sharqda imlo sayosati va xorijiy davlatlarning qarashi masalasiga to'xtag'anda, ish bunday boradir.

Lo'yd Jo'rij lo'rdlar palatasida: "Sharqdagi yangi imlo politikasi agar ishka oshsa, Hindistonning isyonig'a ham buyuk ta'siri bo'lmay qolmas", — degan. Puanqara o'zining Oliy Sho'roda so'zlagan so'zi orasida: "Xenuya kanferensiyasi biz uchun na daraja mash'um bo'lsa, Sharqning imlo politikasi ham shunchalikdir", — degan.

"Narimon Narimonov o'zining bir to'rba lotin harflarini orqalab, Turkiston yo'lig'a chiqdi", — degan xabarlar yursa ham, biroq bu ishonchliq manbadan oling'an xabarga o'xshamaydir.

Har holda, imlo muhorabasi juda dahshatlik bir ravishga kirib, butun dunyoning diqqatini o'ziga tortmoqdadir.

Har ikki tomonning qahramonlari, safka!

AZOB BOG'CHASIDA YIG'I-SIG'I KECHASI

(kichkina fileto'n)

23-aprel devorda Rohat bog'chasida bo'laturg'on "Qiziq kechasi"ning O'ratepaning sufrasiday bashoratnomasini (apishasini) ko'rdim-da, darrov himm... isni biska qo'ymasdan, miyam zolig'a umumiy majlis yig'ib, bu kun kechqurun "Qiziq kechasi"ga tashrifi qudum etmakka qaror ham berib qo'ydim. Chunki ko'bdan beri bunday qiziq kechalaridan chetda — nuqul qayg'u kechalari, kulfat vodiylarida kezib, buningdek kechalarga mushtoq edim, tashna edim. Kechqurun o'zimiga o'xshag'on bir do'stimning bormag'anig'a ham qo'ymasdan sudrab, "Qiziq kechasi"ga yugurdik. Bog'chada kishilar ko'b bo'lmasalar ham yo'q emas edilar.

Do'stim bilan man ko'bdan beri bunday "Madaniyat bog'cha"larig'a kelmaganligimizdan yurish, turishimiz va kiyim-solimimiz vahshiylarcha bo'lmasa ham dala-toblarcha edi. "Madaniyat bog'chasi"ning "Madaniy" yigitlari bizga: "Shu ahvol-laring bilan sanlarga ham "Madaniyat bog'chasi" haymi?.." — demasalar ham ularning ma'noliq etib bizga boqishlari bu so'zni ifoda qilib bizni turtmoqda edi. Biz o'zimizning bunday tanaz-zulda qolg'anlig'imiz uchun uyaldik, hasratlandik.

"Madaniyat bog'chasi"ning "madaniy" yigitlari o'z yon-larida bitta-bitta topilsa "tutash", topilmasa "baba" yetaklab yur-ganlarini ko'rib, biz afsus qila boshladiq, chunki biz ham ovul-dag'i chechalardan ikkitasini olib kelgan bo'lsak, yetaklashib yurgan bo'lur edik.. Endi keyingi galda uch-to'rttasini olib

kelmakni do'stimiz bilan ahd etishdik.

“Qiziq kechasi”ning boshlanuvi soat 8 ga belgulangan bo'lsa ham ortistlardan ikkisining margi mafojot bilan marhum bo'lub qolmog'i “Qiziq kechasi”ni soat 10 dan boshlamogq'a majbur etdi. Ko'b kishilar bu ikki marhumni turpoqg'a topshirmoq uchun uzatib ketkanlikdan, tabiiy, “Rohat bog'chasi”ning xilvatxonasi tomoshachilardan bo'sh qoldi. Shu holda o'yun boshlanuvini kutub mudrab o'ltursam, butun xilvatxonani “shap-shup, shap-shup” bosub ketdi. Qo'zimni ochub qarasam, qator-qator eshikdan qurbaqalar kiradirlar.

— Xi-xi-xi-xi... qurbaqalar ham maxluqmi?

— Maxluq-maxluq! Bular madaniy maxluqlar! Bog'cha idorasi kishi yo'qliqdan biletlarni qurbaqalarg'a sotmay, kimga sotsun?! Nihoyat, to'rt ko'z, qirq quloq bilan kutkanimiz “Qiziq kechasi” boshlanub, parda ko'tarildi. Birinchi parda — “uy tarbiyasining bir shakli”. To'g'risini aytqanda, chin qiziqliq. Ammo bunda boshlamasidanoq qayg'u-hasrat isi ongqub ketdi. Kulguda ishtirok etkan hamma ortistlar ham margi mafojot bilan marhum bo'lg'an ikki do'stlari uchun qayg'uliq edilar. Qayg'usig'a chidalmagan ortistlardan ikkisi ibtido parda ochilishidan o'pkalarini tutolmay xalqg'a orqa berib, ustinaga salom berib, to'xtadilar. Tag'in birisining ko'zidan oqqan yoshi soqolini ho'l qildi-da, oz qoldiki, soqoli tushub ketib, o'zi sharmanda bo'lsun. Yaxshiki, vaqtida sahnadan qochib qolib, bu rasvoliqlardan qutuldi. Orsizlarning bu hollarig'a biz tomoshachi (publik) larning ham insoniyat hislarimiz jim yota olmadi. Nihoyat, biz ham yig'lasha boshlab piqilliy-piqilliy, arang birinchi pardani tugatdik. Ikkinchi pardada “Tursunali balli bodi” o'ynaldi. Bu pardada ham kulgu o'rnig'a yig'i-sig'i avj olib, sahna bilan zolda arosat boshlandi. Yolg'iz zoldag'i insonlarga'ina emas, hatto tomoshachi qurbaqalar ham churillasha boshladilar.

Zol, sahnada ro'zi mahshar edi. Lekin bu favqulodda

hollarg'a chidolmagan ba'zi tentaklar kecha mudiriga: "Siz bilan ortistlaringizga shu sharmandaliklarning nima zarurati bor?" — deb savol kirguzgan edilar, savollarig'a qarshi: "O'zi bayida shunaqa", — degan javob olib, biroz tinchlandilar.

Man bilan do'stim bunday yig'i-sig'i majlislaridan ortiq to'ygan va uchunchi pardada "Hamshahar manzili" o'ynalaturgan bo'lg'anliqdan bunisini kutmay ketmakka majbur bo'ldiq.

"Birniki mingg'a, mingniki tumang'a", — degandek, yarim yo'lga kelganda, militsiyalar "voyenniy polojeniye", deb bizni ushladilar. Eltub, yerto'laga yotquzdilar. Butun tuni biz yerto'lada "Qiziq kechasi" haqida ajib-g'arib tushlar ko'rub chiqdiq.

Azob bog'chasining muassasalarig'a va o'zbek "orsizlar" to'dasiga margi mafojot tilab, yer to'la ichidan:

Julqunboy Dumbulboy o'g'li.

BILDIRISHLAR

(hangoma)

YO‘QOTDIM

Basharalarini sepkil bosg‘an, yengil xizmatka to‘y qilib olg‘an sakkizbosh marja yo‘qotdim. Da‘volari barishnalik bo‘lsa ham o‘zlari homilaliklar. Darak berguvchilarg‘a suyunchi berilur. Agarda Shayhantohur mozoridan topilib qolsalar, e‘tibordan soqitdirlar.

Mirza Vits

KAMISIO‘NNIY MAGAZIN OCHILDI

Shaharda mashhur ishonchlik muttahamlardan iborat kamisio‘nniy magazin ochildi. Dunyoda bor hamma narsalarni, masalan, odam, qumg‘on, jovli, toshbaqa, qurbaqalarni sotib bermakka qabul qiladir. Kamisiya haqqi juda arzon; sotilib berilgan molning oqchasi — arra. Oqcha berishda ham boshqalar kabi qistatilmaydir. Yarmisini mol sotilg‘anda berilmaydir, qolg‘an yarmisini sira ham berilmaydir.

BAHO ARZON

Butun huquqlari bilan mukammal bir kambag‘alchilik sotilur. Buning bilan tez kunda boyisa bo‘ladir: ertalab choy, non o‘rnig‘a yaxshilab uch-to‘rt martaba og‘izni kappa-kappa ochib, hamyoza tortasiz, tushda bir chimdingina sabr yeb qo‘yasiz, kechqurun yoki yotarda bir hovuch qanoat ichib yuborasiz. Shular bilan bir kunlik ovqatingiz uch pul chiqimsiz o‘tub ketadir. Uch-to‘rt kundan keyin oynag‘a qarab ko‘rsangiz, boyonlig‘ingizni bemashaqqat ajrata olasiz.

Baho juda arzon!!

Bildirishlar muboshiri: JULQUNBOY.

TARBUZ QO'LTUQDAN TUSHTI

(hikoya)

(Henuya kanferensiyasidan oldin)

Ey-y... gapdan xabaringiz bormi hali, hoji pochcha? “Karbalo”mi, “Kirbalo”mi¹ degan mamlakatda “kampirim se”² bo‘larmish. O‘zimizning bolshevoy ham haligi kampirimsegacha qirilgan bo‘lur emish. Katta qironlar kampirimseada bolshevoy vakillariga:

— Kel, endi qo‘y, bechora boylaringning, mulkdorlarning yerlarini o‘zlariga qaytarib ber! — der emishlar.

Katta qironlarning so‘zini qaytarishqa bizning bolshevoyda hech had bo‘lmas emish. Xudo: “Ol, qulim”, — deb yuborsa, sizning yeringiz iligari³ botmon-botmon-u, bizning qo‘ra bilan zavo‘dning oyliq kelimi milyard-milyard-da!!!

— Ha-ha, mulla Hodiboybachcha, hali gap shunday dengchi, siz bilan mening molimiz zakotliqda: na o‘tda kuysun va na suvda oqsun! Hali Farangistonda “kampirim chor”³ bo‘ladir, dengchi?

— Shunday, hoji pochcha, agar ish o‘nglanib ketsa, kampirim segina emas, siz bilan bizning kampirimiz shash³, hoji pochcha, duoda bo‘ling, duoda!!!

Kanferensiyaning borishini ko‘rib:

— Keling, keling, mulla Hodi, ish eblanayozdimi, kampirim sedan nima xabarlar bor?

¹ Karbalo — Henuya.

² Kampirim se, forsiycha bo‘lganda, kampirim uch (uch xotun)

³ Kampirim olti.

— Ey-y-y... bolshevoyning uyi kuysun, hoji pochcha, xuddi toshmetin, padar la'nati!! Qironlar shuncha afsungarlik qilsalar ham bolshevoyning "Chechanboyi"¹ ko'naturg'an balog'a o'xshamaydir. Chechanboy "Mulk qaytarib berish qayog'da, mulk bo'lsa, tag'in ham olaman!" — deydir, noinsof! Bolshevoying juda ham qaytg'ani ekan, xudobexabar!

— Ub-ba, xudobexabar Chechanboye!

— Ha-a-a, hoji pochcha, judayam pes ekan!

— Mulla Burtul² nima deydir?

— Ey-y-y... Hoji pochcha, mulla Burtulboyning so'zi siz bilan bizning foydamiz edi-ya, lekin bo'lmayturg'ang'a o'xshaydir. Mulla Burtul siz va biz uchun chirana-chirana o'layozibdir!..

— O'b bechora mulla Burtul, chulchutning qo'lig'a kirgan narsa qaytub chiqmas, demaymi edim?.. Endi yerimiz badar ketdi, deng-chi, uyi kuysun bolshevoyning, yer yutsun bolshevoyni!

— Qo'ldan chiqdi-ketdi, hoji pochcha, manim qo'ram bilan zavo'dimning o'zi ham eskirib qolg'an edi...

— Siz uni aytasiz, mulla Hodi, yerimning o'rtasidan o'pqon chiqg'anidan xabaringiz yo'qmi hali?..

¹ Chechanbay — Chicherin.

² Burtul — Bortu.

MATBUOT

(hangoma)

Ikkinchi sonig'acha o'n besh kunda bir, uchunchi sonidan boshlab oyda bir, to'rtinchi no'miridan e'tiboran ikki oyda bir, beshinchi sonini, xudoy bilsun, yilda bir chiqa turg'an o'zbekcha "Inqilob" mujallai mubajallasining 4-adadi aliyhirrahmasi bosmaxonadan arang qutilub chiqib, qo'limg'a tushdi. Jurnalning bu soni boshqalarig'a qarag'anda, mundariyasi boy, ma'lumotga to'kus, so'zga ustadir. Jurnalning yozuvchilari ham qurama bo'lub, uch qozoq, to'rt o'rus, yetti tatar, bir tojik, uch o'zbeklardan iboratdir.

Yelimlik til masalasini istisno qilg'anda, jurnal janjallik masaladan bariydir, munnazahdir.

"Inqilob" jurnalining yer yuziga og'a-iniliq tuzumini sochmoqg'a xizmat etuvchi bir mujallai mubajalla ekanligida shubha yo'q. Po'chtalo'nlarining xabar berishlariga qarag'anda, Zuhal bilan Atorud yulduzlarida ham "Inqilob"ni suyub o'qur ekanlar. Mirrixda esa "Inqilob"ning 1-sonlari ortuq bir muhabbat bilan o'qulg'an. Lekin 3-sondan boshlab orada bir onglashilmovchiliq chiqqan va 4-adadda bu onglashilmovchiliq tag'in ham kuchay-sib, Mirrix o'quvchilarini ikkiga bo'linuvlariga sabab bo'lg'an. Mirrix yulduzidan oling'an keyingi po'chta xabariga qarag'anda, onglashilmovchilik kichkinagina bir nuqtada ekan. Shundayki (yer yuzidagi "Inqilob" o'quvchilarig'a ham ma'lum bo'lsa kerak), jurnalning 2-sonida "Asari badi'a" lavhasi ostida marhum qozoq shoiri Oboydan bir namuna yozilg'on edi, mana ushbu badi'a Mirrixdagi Oboy va uning tevaragida bo'lg'an qozoq bovurlarning ruhini naqadar yuqori ko'targan bo'lsa, Navoiy va navoiychi o'zbeklarni shu yanglig' ruhlarini tushirmakka sabab bo'lg'an. Chunki Navoiy birinchi galda namuna uchun o'z

“Asari badi’a”sining “Inqilob”da qo’yilmog’ini kutkan ekan. Xabarlarg’a qarag’anda, Navoiy 3-son “Inqilob”dag’i “Asari badi’a”dan biroz ranjigan bo’lsa-da, lekin 4-sondan umidlanib, “To’rtinchida mandan bir narsa bo’lur”, — deb kutib turgani ustiga lo’p etib tatar shoiri To’qayning “Jaygi tong”i bosilib, Navoiy va navoiychilarg’a tag’in ham yomonroq ta’sir etkan. Rivoyatlarg’a qarag’anda, Navoiy va uning tevaragidagilar “Inqilob”ning o’zbekchaligi to’g’risida shak-shubhaga tushkanlar va hatto sabog’ich qalam bilan “o’zbekcha jurnal” o’rnig’a “qozoqcha, tatarcha jurnal”, deb yozib ham qo’yg’anlar. Masala buning bilangina qolmay, Mirrixning “udabo va shu’arolar yig’ini”da Navoiy Oboy bilan To’qayg’a uchuruq qilib: “Zo’raki shoirlar...” — deb qo’yg’an. Qiziq qonliq Oboy bunga qarshi sukut etishka chiday olmay: “Chidaganga chiqarg’an, piltakach”, — degan. To’qay ham jim tura olmag’an: “Sin bunarg’a bik achulanma, Navoiy hazrat, sheg’ringni tatar anglamidurg’an bir tilda bik yamsiz, bik chuvar yozasin, ul endi shulay bulmiga mumkin tugil!” — degan.

Bularga qarshi Navoiy: “Tatar uchun chig’atoy tilini onglamoq og’ir kelgay”, — deb so’ylay boshlag’on ekan, Mirzo Bobir: “Ash’oring, isming, fazling mashhuri ofoq turur. Arzimag’an ish uchun qizishuving otingga kelishmay turur”, — deb Navoiyni to’xtatg’on. Mana shu Mirrixdagi qon qizishuvlarni istisno qilg’anda, “Inqilob” mutvaafaqun alayhi suyulub o’qulmoqdadir. Oblushkasindagi masjid suratiga ishonib bo’lsa kerak, so’ngg’i kunlarda “Inqilob” domlalar qo’lida ham ko’rinib qoldi. Keyingi son “Inqilob”ning idoradan javoblar qismida: “...Chilbirni o’zimizga tobshirib qo’ysangiz, xalqning taraqqiy va salomatiga muvofiq bir joydan boshlab olib chiqamiz”, — deb berilgan va’da bilan S. Ayniy afandining ham “Inqilob”g’a bo’lg’an ixlosi ilgorigi holig’a qaytg’on. Kimgadir: “Chilbirnigina emas, arqonni ham “Inqilob”g’a topshirdim”, — degan.

QURBONLIQ O'G'RILARI

(kichik hangoma)

“Qurboq hayiti” ham keldi... Bu yil qurbonliqdan qalaysiz, hoji?

— Hayronman, boy, hayit xarjlari ham ko'payib ketdi.

— Qilish kerak, qilish! Xudoning o'zi yetkuzadir. Siz bilan man endi qilmasoq bo'lmas.

— Shunisi ham bor... Alhamdillo, siz va bizning davlat to'g'risidan kamchiligimiz yo'q. Qora molg'a qo'shulsoq mumkin?

— Sheriklik oshni it ichmas. Qurbonliqning eng yaxshisi — qo'y! Qo'y so'ya bering, hoji! O'zingizda boqilg'an bo'r-doqilardan bordir, albatta?

— Bor, uch-to'rtta bor.

— Ana shulardan bittasini ko'tarib uring, qo'ying!

— Bultur imlama qilg'an edik. Endi bu yil mahallada och-oriq ko'b, imlamaga ham qarab turmaslar...

— Etkaningizdek, man ham mahalladagi och-oriqlardan juda to'ydim, o'zlari so'ramasalar ham yosh bolalardan so'ratub, uy ichimizni bezor qildilar. Yaxshisi shuki, “imlama” ham qilub o'lturmang-ku, eng osoni “dimlama” qiling, dimlama, xo-xo-xo...

— Hi-hi-hi... “dimlama”ngiz ham qulog'img'a issig', issig' kiradi-ya, biroq shar'iyga to'g'ri bo'lmasmikan, deyman...

— Qurbonliqning sharti qon chiqarish, bundan boshqa sharti yo'q. Marhum domla ham qilg'an qurbonliqlarini hech kimga bermay, o'zlari pok-pokiza tushirar edilar.

— Hovva, marhum domlaning sadag'alari ketsang arziy-

dir, lekin shunday ham bo'lsa, ko'ngil bo'lmaydir...

— Siz men aytkandek qila bering, savobi sizga, gunohi manga! Agar himmatingiz jo'sh urib kelsa, bizga o'xshag'arlardan bir-ikkitasini chaqirib, duoyi fotiha qilsangiz, tag'in yaxshi, tuzukmi?

— Ey y... bizda jon bor, deysizmi? Bu yil siz ham shunday qilarsiz bo'lmasa?

— Ey-y, siz yosh bolamisiz, hoji? Bizning qurbonliq har yili "dimlama", hi-hi-hi...

* * *

Eshitdingizmi, bu ikki uying kuygurning qurbonlig'ini!

Qurbonliqning borliq hikmat va falsafasi ayyomi saharg'i kunimizdagi och oilalarni to'ydirmoqdir va Olloh dargohida iyd kunlari och yotqan oilalarni to'ydirish niyati bilangina qiling'an qurbonlar maqbuldir va chin qurbon ham shunisidir.

Agar yuqoridagi ikki o'g'rining fikrida bo'lsangiz, sizning ham uyingiz kuysun!..

NEGAKIM

(kichkina fileto 'n)

Elbekga bag'ishlab

— Elbek o'zining maqolasida nega “Negakim”ni ko‘b yozadir?

— Negakim, Elbekning turpog‘i “Negakim” degan yerdan olinub, “Kim-kim” degan daryoning suvidan aralashdirilub loy qiling‘ani uchun.

— Mirmulla aka nega Hamza Hakimni ilgarikidek yerga urmay, maxtiy boshladi?

— Negakim, Hamza Hakim jonidan to‘yganidan so‘ng Mirmullaga sahnada afsun o‘qub, dam urgani uchun.

— Janob Saodat maob muhtaram Namakobning yozgan falsafalariga nega men tushunmayman?

— Negakim, janob Namakob o‘rtacha olim bo‘lg‘ani uchun.

— Nega xalq betoblanub, sayohat jabdug‘in tuziy boshladi?

— Negakim, ramazon oyi yaqinlashgani uchun.

— “Ishtirokiyun” gazetasi nega bir kun chiqub, bir kun chiqmay, oqsay boshladi?

— Negakim, harf teruvchi xizmatchilarni hukumat ortiqcha to‘ydurub, qorun soldirg‘ani uchun.

— Nega gazetalarda turklar borasida dahanaki ur-ur, sur-sur, janjal, to‘polonlar bosilub qoldi?

— Negakim, hamma janjal afandining choponi ustida bo‘lg‘ani uchun.

— Nega men nashriyoti G‘ozi Yunus haqinda yozmadim?

— Negakim, bunga xos qasidaning borlig‘i uchun.

— Nega so‘zingni shu yerda to‘xtatmoqchi bo‘lasan?

— Negakim, bundan ortiqini zamon ko‘tarmag‘ani uchun.

LAYLI VA MAJNUN

(kichkina fileto 'n)

Maqolani sarlavhasini ko'rib, "Layli va Majnun" operasiga tanqid ekan", — deb miyangni aynatib o'ltirma, aka. "Layli Majnun"ni va umuman tiyotr-u kechalarini tanqid qilib: "Mana bu ortist qing'ir ekan, mana bunisi qiyshiq ekan, kitobi unday ekan, dekaratsiyasi bunday ekan", — deb kritika sanayturgan jinni bo'lganimcha yo'q. O'yunni bir ortist buzub o'ynasa, yaxshi belgilaki, "dar bisot" dastmoyaning o'zi shul, tuzatib o'ynaydimi, bunisi ham o'zida bori; bir dramaturg'ning yozg'ani to'rtta shoptoli danakdan iborat bo'lsa, bunga ham haligi "dar bisot"ning o'zi kofiy, shofiy — lo'nda javob.

Kaminaning nazariyasidek faylasufona bir nazariyani kun chiqar bilan kun botarg'a zir yugurub izlasang ham, yaxshi bilgilki, topolmaysan!

Mavzudan chetka chiqdim, shekillik, maqsadga ko'chaylik endi:

O'ng biqinimda samarqandlik birtasi, chap biqinimda qo'qonliknamo yana birtasi bo'lg'ani holda ketdik, "Layli va Majnun"iga qarab.

Hali soat 7. Demak, o'yun boshlanishig'a bir yarim-ikki soatlab vaqt bor. Kuni bo'yi tiriklik orqasida yurub zerikkan xalq kechning latif, yengil shamoli ostida rohatlanib, toza havoda isinmakda edi. Biz ham uchovlashib og'zimizni toza havo sari kappa-kappa ochib, ko'chaning u boshidan bu boshig'a bo'zchining morkisidek borib kela boshladik. Zebobo'y, sarviqadsimon tan, shahlo ko'z, bodomqovoq, yupqa tomoq sanamlar halidan-hali yonimizdan o'tib turadilar. Boshqa vaqtdag'i kabi sitam, iltifotsizlik, noz-u karashma degan gaplar ham, bilmadimki, qayoq-

qa ketibdir, yo‘q. U yoq-bu yoqni, holi ko‘zni shamg‘ilat qilib sanga qaraydurlar-da, qoshlarini uchurib, ko‘zlarini qisib yuboradilar. Bu vaqt manga o‘xshag‘an, jiz ixtiyori qo‘lida bo‘lma-g‘anlar po‘rt uchdi, deyilsa mumkindir...

O‘zimizning bir yigit, haligi qisqichbaqalardan birtasi bir daqiqalik “Imqo‘q” bilan tanishib ham oldilar.

Yigitimiz so‘raydir:

— O‘zingizga o‘xshag‘an Laylilardan tag‘in bormi?

Qisqichbaqa javob beradir:

— Bor. Biz to‘rt Layli.

— Ochin xorosho, biz ham to‘rt Majnun, ay-da!

Qo‘ltuqlashib ham ketadirlar. Savdo ortiq qizg‘in, bozor chaqqon. Ularning Laylisiga yetarlik bizning Majnunlarimiz ham yo‘q emas.

“Kolizey”da o‘lturamiz. Layli va Majnunlar tanaffus choqlarida jadan bezor qiladirlar.

Birinchi qo‘ng‘iroq — Layli-Majnunlar tashqarida; ikkinchi qo‘ng‘iroq — hamon darak yo‘q, uchinchi qo‘ng‘iroq chalinub, parda ko‘tarilgach, zolning ichida duv to‘polon. Sahnada o‘yun, bizning zolda qiy-chuv, taqur-tuqur, xuddi ketmon bozor.

“Uying kuygurlar, ilgariroq harakatingni qilib olsang bo‘lmasmi?” — deya turg‘an tergovchi yo‘q.

Man bo‘lsam:

— Layli va Majnunlar, — deb o‘tura beraman.

Yonimda o‘lturg‘an samarqandlikni boshida eslik yigit deb o‘ylag‘an edim, keyin-da buning ham palchavasi chiqib qoldi. “Oh” tortadir, afsus yeydir. Uning keyinidan bir juft forsiy g‘azal o‘qub yuboradir.

— Ha, nima bo‘ldi, akun?

— Maorif masalasi esimga tushdi...

— Maorifga nima qilibdir?

— Maorifimizning nima bo‘lg‘ani maydonga; Samarqand-

dan maorif ishlari to'g'risiga vakil bo'lib kelgan edim. Toshkenda bo'lg'on maorif ishchilari dumlarini tutquzmaylar..., — deb hasratidan chang chiqara boshladi.

Bizning Toshkandning taraqqiysidan xabari yo'q ko'rindi bechoraning!

— Ey, — dedim, — bizning Toshkandning taraqqiysi oshib ketdi, o'rtoq, — dedim, — bizning Toshkandda maorif degan narsaning tarixga topshirilg'anig'a endi ko'b vaqt bo'ldi... Agar Toshkand maorifi bilan ko'rishmakchi bo'lsangiz, muzai milliyamizga marhamat qilingiz, — dedim.

Chirog' o'chdi.

Parda ochildi.

Layli o'lgan edi, Majnun ham o'ldi.

“Xudo rahmat qilsin!” — dedik-da, ketdik...

Mana, biz “Layli va Majnun” kechasini shunday qilib o'tkazdik.

PAST VA BALAND DUNYODA

(kichkina fileto 'n)

Ish "G'aribxona"dan chiqqunchalik. Chiqdingmi, past va baland dunyoni sayr eta boshlaysan:

— Yoshingni yashab, oshini oshagan o'zimizning cholimiz. Soch oq, soqol oppoq, ko'z nursiz, tish tushkan, bel bukchaygan, qo'ldagi aso ko'maklashmasa, oyoqlar ham yurishka qarshi. "A-ha..." deyish bilan jon chiqarga hozir... Ammo u o'zining bu holi bilan chin bir maslak kishisi: o'zining to'g'ri deb bilgan bir narsasini, bir daqiqa bo'lsin, esidan chiqarmaydir.

Qarshidagi masjid ichidag'i yangigina ochilg'an eski maktabdan yosh bolalarning chuvur-chuvur o'qish tovushlari eshitilgach, cholimizning bukchaygan bellari to'g'rilanib ham ketadirda, go'yo o'zini o'n besh yoshlik bola kabi seza boshlaydir:

— Xudoyo shukur, xudoyo shukur, tovushingdan o'rgulub ketay, bolalarim! Bulturgi yillarda bu kunlar qayoqda edi?! — deb shodlanadir.

— Ko'chaning ikkinchi tomonida yangilardan ikkitasi o'tib boradir:

— Bu yerga ham osilipti, deyman, ot to'rvadan?

— Osilmay nima qilsun?!

— Voqi'an...

Ko'chada favq ul-odat bir hol. Hammaning ko'zi birovda. Qizlarimizdan birtasi yuzini ochibdir, ovrupocha yasanib, oyog'ig'a tufli kiyibdir! Xayr, ochibdur, ochibdur, kiyibdur, kiyibdur, bunga nega buncha ota go'ri, qozixona?!

Bir tomondan birtasi aytadir:

— Ey... esiz musulmonchilik, satqai diyonat! Sani tug‘ub tashlag‘an ota-onangg‘a la‘nat!

Ikkinchi tomondan ikkita dumi qopqonda qolg‘anlar ko‘zlarini to‘latib-to‘latib qaraydirlar-da:

— Ibi, bajo-ku?

— Pichoqqa ilingudakmi?

— Ilinarmikan, deyman!!

Mana bu ikki musulmonning bir ishka ikki xil qarashi. Musulmonlarning haq rohi bo‘lg‘an shari‘at qanday qarar, buni peshvoyi haqiqiylarimizga tashlaymiz... Voy bizning umumiy holimizg‘a!

* * *

Rastaning ichida tapur-tupur janjal, tapur-tupur janjal.

— Ha, nima?..

— Karimjonning benifisi, Mayramxonning gul o‘yumi, boravering tomosha, boravering, tomosha! *Borg‘anlar darmonda*, bormag‘anlar armonda!

Aravaning oldida ikkita tasqara o‘rus, ketida ikkita masxara karnay. Tasqaralarning birtasi xudda Istanbulning “doru vatani”ni ijmol etib chiqqan bir vo‘iz: cho‘zib cho‘zib Mayramxonni maxtaydir, buning orasida maymunlarcha harakatlara ham qiladir...

Bu bir arava tasqaralarg‘a qarshi xalq fikrda, ishda, amalda birlikni saqlaydilar. Hamma dajjol chiqqandek aravaning tevaragida, lablarning tanobi qochg‘an, hamma shu tasqaralar bilan ko‘ngil ochqan; bunga qarshi lom yo‘q, mim yo‘q, xudda xalqning o‘zi shu bir arava tasqara bilan barobar deyarsiz. “Na o‘ro xatar va na o‘ro zafar!” Boravering, tomosha, boravering, Mayramxon!

Bundan bir necha yil ilgari Xadra mavzuida bir katta to'polon chiqqan edi:

— Ha, nima gap?

— Buz hovlilarni, hayda egalarini! Ur, yiqit, tekisla, g'isht keltur, ko'tar tuproqni, ol pudratini, qur viveskani, chaqir ortistkani, yoz piyesangni, solamiz “Sharq sahnasi”ni!

Ol-a... bu orada nechta odam o'lgan-u, nechta cho'loq, nechta mo'log'-u, bir necha o'n milyardlab chiqim-u; yo Rabbim, o'z panohingda asra bu balolardan!..

Tunov kun boshim og'rib, shu majma' ul-ashiyodan o'tub qolurmanmi? Na ahli g'ayratdan darak va na ahli mehnatdan xabar. Bo'lg'usi “Buyuk Sharq sahnasi” binosining o'rnida ba'zi ahli hojatlar o'z ishlari bilan ovoralar...

— Ha, nima jin urdi?

— Ey aka, ploni to'g'ri kelmadi. “Muassasai sah nai Sharq” “muassasai spor”ilikni ixtiyor aylab, “azmi dar bo'yi jangoh” oldilar, deyishlari bormi, jon-ponim chiqib ketib, “Endi tashkandliklarning toza uylari kuyubdir”, — dedim. Chunki u qahramonlar muassasiyorlikni ixtiyor qilg'an bo'lsalar, “Buyuk Sharq sahnasi” uchun na Toshkandning buzulmag'an bir tomi qolsun va na kovlanmagan yeri!..

DAVOSIZ DARDLAR

(hangoma)

Dard ko‘b — davosi yo‘q. Hasrat uzoq — kechalar qisqa, manzaralar ajib — ko‘zlar ko‘r; jart-jurt zo‘r — natijalar kichik; manzil uzoq — rohila oz; vahima katta — to‘y bedarak; osmon uzoq — yer qattiq; bo‘yi bir qarich — soqoli ikki qarich...

Siz o‘qiy bersangiz, man shunaqanggi bir-birisiga teskari jumllarni Mallaxonning lavang‘idek qator-qator sulaytirib-sulaytirib tashlay bersam... “Miftah ul-jinon”ning rivoyatiga qarag‘anda, agar daryolar siyoh bo‘lub, xarilar qalam bo‘lsa, yaproqlar qog‘ozga aylanib, qurbaqalar o‘qug‘uvchi bo‘lsalar, bu ajivai taralalarni chop qilib tarqatg‘uvchn davlat nashriyotining Eski shahar matbaasi bo‘lsa, buning savobi butun Turkiston mamlakatining dumog‘mg‘a xudda sassiq sarimsoqdek ta’sir berib, har qaysi o‘zbeklarning nomai a’mollariga har yili to‘rt faslda xurrakni batang qo‘yg‘an mo‘min va musulmonning a’moli solihasi yozilur ekan.

Endi birozg‘inag‘a falsafa, e’tiqodiyotni qo‘ya turaylik-da, dardi bedavolarimiz ustiga o‘taylik:

— Turkiston istatistiqasi idorasining to‘plog‘an so‘ngg‘i ma’lumotiga ko‘ra, Eski shahardagi “harakatdan barakat” maktablarining soni shu keyingi hafta ichida yuzga-yuz ortib ketkan. Masalan, o‘tkan oyda yetti yuz qirq bir og‘ilxonadan iborat bo‘lg‘on xalq ibtidoiy doriljununlari yarim mingga, qorixonalar besh yuzdan to‘qquz yuzga yetmishdir. (Qorixonalarda bir oz sekinlik.) Bu so‘ngg‘i ochilg‘an ibtidoiy doriljunun va qorixonalarining muallimlarida ham favquloddalik bor, deydirilar. Soqoli ot to‘rbadek, savodi chiqar-chiqmas farishtasurat zotlardan iborat bo‘lib, yosh bolalarimizni bir yil komil deganda muallai boamal,

buning ustiga daqqi, kalvak, og'zing qani, desalar, qulog'ini ko'rsatarg'an dardi bedavo qilib chiqarar ekanlar.

Bu haqda siyosiy doiralarning yurutgan mulohizotlariga qarag'anda, o'zbeklar ishni bu tariqa olib bora bersalar, uch yil komil deganda Turkiston go'yoki ikkinchi Amrmqo-ku, o'zbeklar orasida g'archcha madaniyat, na u yoqqa o'ta olasan va na bu yoqqa, xudda devori qiyomat!

Yana o'shal istatistiqo idorasining bergan ma'lumotig'a qarag'anda, ikkinchi tomonda qiltillab turg'an Eski shaharning maorif sho'rvasi bu madaniyat maktablari qarshisida qaddini ko'tarishg'a o'ylashar ekan. Ammo shunisi bor ekanki, anovlarda yo'q shag'shag'a, anovlarda yo'q dabdaba bizning maorifning sho'rvasidan topilur ekan.

Bul ham bir dardi bedavo!..

* * *

Biznikilar "Bo'rk ol!" desa, bosh olishg'a hozir. Biz mablag'lar desak, ehtimolki, nishka tushgan bo'lurmiz. Ot bilan eshakka soliq solinibdur, xayr, solinsa-solinibdur; bu orada bir eshakchi kambag'alning eshagi ochlikda harom qotibdur, xayr, qotsa-qotibdur.

— O'lgan eshagingning solig'ini beraverasan!

— Bechora eshagim marhum bo'ldi, aka, bu yerda joni uzilib, mana bu yerda yuvuldi; ana u yerda janoza o'qulub, mana bu yerga ko'mildi, aka...

— Yo'q, bera berasan! Eshaging beshdan kam emas!

Bechoraning eshagi o'lgani-o'lgan, ustiga-ustak mana bu bosh olg'uvchilarning fotihaxonlig'i qiziq...

Bul ham bedavo dardlarning birisi.

* * *

Eski shaharning boshdan oyog'i, oyoqdan boshi, yetti yasharidan yetmish yashari qo'tur... Eski shaharning afkori umumiyasi shu qo'tur masalasi bilan mashg'ul. (Bizda afkori umumiya yo'q, deguvchilar noma'qul aytibdurlar...)

Bechora xalq shu qo'tur istibdodidan qutulmoq uchun o'tkan ketkandan iloj so'rashdan bo'shay olmaydir. Ammo berilgan doru-darmonlardan to'qquz chaqaliq foyda yo'q! Hamon har kimni ko'rsang: qirt-qirt, qirt-qirt...

Puvvak boylag'an Yevrupo do'xturlari, nihoyat, kelib kelib bizning "qo'tur masalamiz" ustida e'loni ixdos qildilar. Xalq sog'liqni saqlash bo'limi bu to'g'rida qimir etmaydir. Keyingi kunlarda qo'turlar jamoasi xalq sog'lig'ini saqlash bo'limi emish, degan bir rezolyutsiya qabul etdi.

Mana, bul ham bizning davosiz dardlardan.

OG'ZINGGA QARAB GAPIR!

(hangoma)

“Turkiston”ning 36-sonida muxbirlarimizdan bittasi bir narsani yozibdirkim, o‘qub ko‘rub, nax muxbirning og‘zini yorib yuborg‘um keldi.

Axir, uying kuygur, sag‘al og‘zingga qarab gapir-da!

“Isroflik to‘y” “...Samarqandda o‘rtoq Qurbi o‘g‘ullarini kestirdi, 3-4 kun to‘y berdi; bir-ikki milyard pul ketdi... To‘yga isrof qilg‘an oqchasini “Ko‘mak” uyushmasiga berganda, falon bo‘lardi...”

Zab kurakda turmag‘an vohmalarni qilibsan-a, inim! Sening “Ko‘mak” uyushmang bizning mulla Qurbining kori xayriga qancha ko‘mak berdi? Og‘zing bo‘lsa, gapir-chi, betiyiq! Va yo bu vag‘ir-vug‘uring mulla Qurbining to‘yig‘a qilg‘an to‘yonangmi? Hayf senga-e!

Samarqandlik mulla Qurbi bilan kamina toshkandlik mulla Julqunboyning onalari nima uchun tug‘ub tashladi? Doyachamiz nima deb tang‘layimizni ko‘tardi?

“Yaxshi joylarg‘a kuyov bo‘l, uvalik-juvalik bo‘l, o‘g‘ullaringning to‘y-tomoshasini ko‘r!...”

Ammo: “To‘y qila turg‘an pulingni “Ko‘mak”ga ber!” — deyilmabdi-ku? Bas, shunday bo‘lg‘andan keyin biz ham besh kunlik dunyoda bola-chaqamizning orzu-havasini ko‘raylik. Chiq, eshikka-e, tuf betingga-e...

Muxbir degan har bir maza-bemazani xabar deb gazetaga yoza bermaydir. Andisha kerak, rioya kerak! Agar men shunda-qanggi beandishalik qilib yoza bersam-chi, nax butun Toshkand-ni kiyib yuboraman. Tag‘in menim yozg‘anlarimning eng kich-

kinasi tuyadek bo'lur. Yo'q, men senlarga o'xshash beandisha emasman. Agar men beandisha bo'lsam:

— Falon dahaning boshlig'i pismadonchi o'rtoqning o'zining yoshg'ina xotunining ustiga yana bir xotun olmoq harakatida bo'lub yurganini yaxshi bilaman. Shuni yozsam bo'lmasmi edi?

Agar men rioyasiz bo'lsam:

— Tuppa-tuzuk ishboshi, yaxshig'ina ongi bor bir ta'viya o'rtog'im qaydandir pul topib, imorat soldi-da, uning ketidan guvaladek pul isrof qilib, hovli to'yi ham qilub berdi. O'rtog'imning qilg'an ishi qip-qizil jinnilik, — deb gazetaga yozsam, qo'limdan kelmasmi edi?

Agar men andisha qilmasam:

— Eski shahardagi solinaturg'an teatr-u binosining muboshirlari kam xarj-u bolonishin deb "Jangob"ga solib bergan teatrlarida, qurbaqalar teatr-u boshladilar, deb xabar yozmasmi edim?

Agar Eski shahardagi puli ko'paygan xunosai notantilarining biroz andishalari bo'lsa:

— Besh kunlab ayqirtirib qilg'an to'yimizni, o'n milliardlab to'yg'a qilg'an isrofimizni mahallamizdagi ko'ksini zaxga berib yotkan och-oriqqa berib, olqishlarini olsak bo'lmasmu? — deb andisha aylamasmi edilar?!

Har holda, og'izga qarab gapirish kerak. Buning ustiga bir chimdim andisha ham kerak...

So'z uzoq erdi, muxtasar qildi. Yomon ko'b erdi, muttaham qildi.

Hozircha xayr.

XUSUSIY MAKTUBLARDAN

(hangoma)

Kaminalari xususiy kabinetlarida o'lturub, yangigina po'chtalio'n tomonidan topshirilgan do'st-dushman maktublarini o'qub, goh kular edilar, goh yig'lar edilar.

Do'st-dushman maktubidan bir necha nusxa;

"...Oyog'ingg'a qarab yur!.. Kechagi g'azetda haqimda aljiganingni, bu g'alcha bola-chaqang hurmatiga kechirdim, yo'qsa bitta kallakesarga zakaz berilgan edi...

I m z o...

R e z a l u t s i ya! "O'zim xam jondan to'yganman!"

"Birodar! Qo'chqor podachining sigiri teskari tug'ibdir. Shuni o'xshatib gazetingga yozmaysanmi? O'zi juda qiziq gap-da!...

I m z o...

R e z a l u t s i ya: "Saniki ham ma'qul!"

"O'rtoq! Man saning shaharning chetrog'ida turishingni bilaman, shuning uchun sandan bir iltimos bor. Xudo uchun iltimosimni rad qilma. Oilam ila yaqing'inadan beri bir baloga yo'liqdik. Yolg'uz mangina emas, butun mahalla ahli yo'liqdilar. Bu voqi'aga endi uch oylar chamasi bo'ldi... Kunduzlari har chiku notinchlik bilan o'tkuramiz. Ammo kechalari! So'rama, birodar, bizning holimizga mushuklar yig'lasun! Bir chimdim uxlash yo'q, butun kechasi jonsaraklik. O'zimizni ham qo'ya ber-a, hammadan ham beshikdagi bolani ayt... Ey, bechora-bechora, saning nima gunohing bor edi?!

Tovushing o'chkurning tovushini eshitgan sayin beshikda yotqan gunohsizning o'takasi yorilib shaytonlaydir... Ertasiga butun kun domlaxo'ja qilub umrimiz o'tadir...

“Buning mahallasiga dev borgan ekan”, — deb o'ylay ko'rma, bu uning oldida hech narsa. “Ajdarho paydo bo'lg'andir”, — deb ham o'ylama. Chunki biz ajdar deganingdan nasma olamiz, bu o'zi ajib bir balo, xunuk bedavo!

Endi bo'lmadi, endi uyni tashlab qochaman. Yo'q, u tursun — yo'q, man turay! Sanga iltimos shulki, o'zingga yaqin yerdan bir hovli top, man ko'chaq shu mahalladan. Boshimni olib ketay shu uydan! Bir mangina emas, butun mahalla ko'chish qasdida. Bechoralar: “Shahardan hovli topilmasa, uyezga bo'lsa ham chiqib ketamiz”, — dedirlar. O'zi ajib bir balo, ishonmasang, bir kun kel, butun tun mijja qoqtirsa, har narsa de. Sanga baytalmonning otini aytishka ham yuragim yo'q. Xayr, nima bo'lsa ham aytay:

“Sharq” sahnasi bilan “Turon”ning to'rtta karnayi: g'o-o-o-o-ot, g'o-o-o-tu-u-u g'o-o-o-o-t! G'ort-g'ort-g'ort! Ha, tovushing o'chkur, ha, egasiz qolg'ur!!

Mahsido'z mahalla!

I m z o...

R e z a l u t s i y a: “Shu gapingga noma'qul buzoqning go'shtini yebsan. Jimgina qimirlamay uyingda yota ber. Tovushi saning mahallangga yoqmag'on karnay, Sharq “alt musiqiya”sidan bir nav'idirki, uning insonga uch turluk foydasi bor, deydirilar. Chunonchi:

1. Har inson forsiycha “xar”, o'zbekcha “eshak”, degan hayvonning nag'mai jon so'zini eshitsun va yo karnay tovushini!

2. Musiqashunoslarning so'zlariga qarag'anda, bu ikki jonvorning tovushi ijroi ta'sirda barobar bo'lib, kishining miyasini to'lg'uzar ekan va yana ruhiga oziq bo'lub, tabi'atini ham noziklashdirar ekan!

3. Xususan karnay, bizning xalqqa gipno'tizm qabilidan ta'sir berib, beixtiyor karnay tovushi chiqqan tomong'a yugurtirar ekan. Shu munosabat bilan "Turon" va "Sharq" sahnalari-ning kartina belatlari chaqa pul bo'lub, murodi maqsadga yetilar ekan".

Mana, ukajon, ko'rdingizmi, karnay degan "alt musiqiya"ning "hikmat komediya"sini. Ko'chaman, ketaman, deb o'lturmangki, miyangiz to'lsun va o'zbek millatiga oz deganda bir mahalla musiqiyashunoslar yetishsun!

Tort-e karnayingni, sadag'ang ketay!

IT URISHTIRISH ISHLARI

(hangoma)

Ko'kcha dahasi bilan Beshyog'och dahalarining oralari-dag'i siyosiy munosabat kutulmagan joyda buzilib ketib, san-manga borishib qoldilar. Bu buzilishning ibtidosi Ko'kchaning Chig'atoyi bilan Beshyog'ochning Chaqarida it urushdirish ma-salasidan chiqdi. Chig'atoyning o'n yildan beri suv o'rnig'a sut berib, zo'raytirib kelgan Olaparini Chaqarning ahamiyatsiz gurji-si qochirub qo'ymasunmi, bu voqi'adan ko'kchalikning katta-kichigi hayajonga kelib, Mallaxonning tarixiy itlaridan bo'lg'an davangini maydoni harbga chiqardilar. Bu voqeaga har ikki taraf-dan o'n minglab kishi tantana va dabdaba bilan ishtirok qilib, urushdirish marosimi maxsus duolar bilan boshlandi. Garchi urush maydonlarida bo'lish xavfli bo'lsa ham, na choraki, to'g'ri xabar olmoq uchun muhoraba ustida hozir bo'lmoqqa majbur edim.

Yarim soatlik qonli "g'ov-v-v-v, g'u-v-v-v, ov-v-v-v, ov-v-v-v"dan so'ng Mallaxonning davangisi mag'lub bo'lub, faje' bir suratda yaralandi, ba'zilarning tarbuzlari qo'ltuqlaridan tu-shub, ko'ngil ozishlar ham voqe bo'ldi. Beshyog'och og'a-inilarining bu vaqtdag'i quvonchlari ichlariga sig'mas va pahlavon itlarining og'zidan o'pishlari ham g'ayriixtiyoriy edi. (Urush vaqtida oling'an rasmlar bor: agarda jurnalg'a muvofiq ko'r-sangiz, yuborurman.)

Bu kunlarda ko'kchalik og'a-inilar qayoqdan bo'lsa ham pahlavoni zabardast axtarmoqdalar. Siyosiy doiralarning so'z-lariga qarag'onda, pahlavon topilsa, nurun a'lo nur, bo'lmasa

fidoyi yigitlardan bittasini it suratiga kirgizib, maydonga kirguzar emishlar. Hozirda “tab bosti” uchun har ikki tomon xo‘roz, kaklik, qo‘chqor kabi urush olatlari orqali ish ko‘rib tursalar ham, lekin bular it o‘rnini bosolmaydir.

Bundan uch-to‘rt kun ilgari Samarqand og‘a-inilaridan ikkitasi Ko‘mirsaroyda tuya urushdirib ko‘rsatdi. Kaminangiz tuya urushini umrida birinchi martaba ko‘rishidanmi, “Har holda bu xil tomosha ham bizning Toshkandga kerak ekan”, — degan fikrga keldim. Bu tomoshada o‘n minglab xalq ishtirok etsa, ham lekin itnikidek o‘zaro chirting-pirtinglar bo‘lmadi.

“KO‘R”NING UZIRI

(hangoma)

Ko‘zimni ocholmayman!

Ochar-ochmas ko‘rina turg‘an narsalar ma‘lum:

Antiqua asarlarni saqlash qo‘mitasining g‘ayrati bilan qancha pullar sarf qilinib buzulg‘on, ag‘dorilg‘on, yiqilg‘on eski, antiqa asarlar, madrasa va jomelar...

San‘at sevguvchi, lokin, xalta-cho‘ntakga jon qurbon qilg‘uvchi “ahli g‘ayrat”ning fidokorlig‘i orqasida, Eski Toshkanda, milliardlarcha pul xarjlanib, suvga botirilg‘on, Jangob va Xadra mozorlarig‘a ko‘milgan marhum teatr binosi...

Sharif Buxoroda “ulug‘ mutaxassislar” nazorati ostida qopqop oltun qo‘yulub solina turg‘on davlat teatrining rejasi buzulub qolg‘on burchagi va ul burchakning ustida qora dastro‘mol ushlab yig‘lab o‘lturg‘on shoir-ministr va uning yonida tilini ikki qarich qilib cho‘zub, “Milliy motam” kuyini mingg‘illab yotqon mashhur o‘zbek bastakori “Zuluk pari”...

Xo‘qand shaharida “Farg‘ona” gazetasining idorasiga oyda, yilda bir kelsa ham gazetni “taxti enhisor”iga o‘zicha bo‘lub ketdi!

“Alif”, “qil”dan “fil” chiqorg‘uvchi Ko‘chirali domla...

G‘araz, ko‘zingni ocha olmayman!

“KO‘MAK” UYUSHMASIGA IONALAR

Keyingi kunlarda “Ko‘mak” uyushmasiga berilgan ionalarning hisobi juda ham ko‘payib ketdi. Tushkan ionalarni uyushmaning bitta kassasi epliy olmaganlikdan ikkinchi kassa ochmoqqa majbur bo‘lindi. Keyingi oyda iona bergan saxiylarning ro‘yxati mundaydir:

1. Vali hoji — besh milliard so‘mga arziyurg‘an duo.
 2. G‘ulom-shayx boybachcha — “O‘qushg‘a ketkan yigitlar mullo bo‘lsunlar” degan yaxshi tilak. (Baho qo‘yish kamisiyasining so‘ziga qarag‘anda, bu iona ham 5 milliardg‘a arzir ekan.)
 3. Azimboybachcha ko‘mirchi — sakkiz put toshko‘mir.
 4. “Tujjor” shirkati — ikkita sopol tovoq bilan bitta xurmacha.
 5. “Qamar” shirkati — chorak qadoq olma choy.
 6. Poyafzal bozoridag‘i do‘konlar o‘zaro — bir poy *bachkana etik*.
 7. Chit bozorining do‘konlaridan — bir gaz-u uch chorak gazlama.
 8. Attor og‘a-inilardan — ikki quti upa.
 9. Qassobliqdan — besh dona o‘pka.
 10. Qandolatchilar uch istakon pistashka bilan bir qadoq pashmak va boshqalar.
- Ushbulardan Berlin o‘qug‘uvchilarimizg‘a yuborildi:
Berlin talabalarimiz ortuqcha muhtoj bo‘lg‘anliqlaridan birinchi galda to‘rt put toshko‘mir, ikkita sopol tovoq, bir posilka duo yuborildi.

Muxbir: DUMBUL.

“MUSHTUM”: Oltun olma, duo ol, duo oltun emasmi?!

DARDI YO‘Q — KESAK, ISHQI YO‘Q — ESHSHAK!

— Kalnikiga oshg‘a-a-a!

Gur, gur odam kalnikiga tuz yalab chopadir...

— Ayiq polvon kurash tushadir, Jo‘ra qiziq maymun o‘y-natadir, Farg‘onadan Arava polvon keldi, Jizzaxdan It polvon keldi!..

Ko‘rubsizki, kurash o‘rnini ijaraga olg‘an zarg‘aldoq xo‘jalarning qilg‘an foydalari mindi-mindi...

— Chet ellardagi o‘qug‘uvchi yoshlarimiz foydasig‘a bu kun “Turon”da teatru qo‘yiladir!

La havla va la quvvata... Toshkan musulmonlarini yayzara yer yutubdir va yo katta-kichik, og‘a-ini in-inlariga kirib ketibdir...

Shunga o‘xshash “Sharq sahnasi” yaxshi niyat — yorti mol, deb kino qo‘yadir, “odam obi”larni yig‘moq uchun eshak hurkarlik qilib tomg‘a to‘rtta karnay ham chiqaradir. Lekin shunchalik attorchiliklar, “Surma ket! o‘sma ket!”lar — bir paqir; sahna xazinadorlarining og‘izlarig‘a pashsha o‘lturg‘an o‘yun-xona eshikidan “g‘ing” degan bir chibin uchmaydir. Shu soatda shaharning barcha choyxonalarida g‘ij-g‘ij churvaqa, lim-lim... buzoq.

— Og‘zingmi, o‘rpilgan o‘rmi?

— Basharangmi, badbaxtning dalasimi?

— Qo‘zingmi, po‘stakning yirtig‘imi?

— Engahingmi, yo‘lg‘a chiqq‘an hindining ...mi?

— Ho, ho, ho!

Topg'an-tayang'an sovutmachiq shu: boshqa dastmaya
yo'q. Bangixonada "harb-zarb" olub yurguvchi bir o'rtog'im
nashaning tutuni gurkulagan choqlarda:

Harsak-marsak,
Dardi yo'q — kessak,
Ishqi yo'q — eshshak! —

deb bayt o'qug'an bo'lub jovrar, man bo'lsam: "Bu nima
degani tentakning?" — deb baytiga tushunolmas edim. Endi
kelib-kelib bu baytning ma'nosini Eski shahar sahnalaridan to-
pub, mavridsiz bo'lsa-da, o'zim shu baytni yakkaxonlik
qilmoqdaman:

Dardi yuq — kessak,
Ishqi yuq — eshshak!

Voqi'an, dard bo'lmasa, ishq bo'lmasa, odamning kesak-
dan nima farqi bo'lsin-u, eshakdan nima ayirmasin!

Vaollohi a'lam bissavob.

BIZ KIM VA NIMALARDAN QO'RQAMIZ?

Har kimning o'ziga yarasha qo'rqatg'an narsasi bo'ladi. "Ishtonsizning cho'pdan hadugi bor", — degandek shu vaqtda ishtonlik inson — haduksiz odam ehtimol yo'qdir. Turkiston istatistika idorasining keyingi yiqg'an hisobiga qarag'anda, ishtonsizlar bana'ji ko'payibdir, biz ularni aynan quyida ko'chiramiz:

Mustamlakachi — achchig'lang'an chog'ida sirining ochilishidan qo'rqadi.

Har turluk idora mudirlari — saylov yaqinlashsa, miansabdan tushib qolishdan qo'rqadilar.

Yangi ko'z ochqan hisobsiz, o'zbek shoircha va shoira-chalari — ming mashaqqat bilan azoblanib yozg'an she'rlarining gazetalarda bosilmay qolishidan qo'rqadilar.

Tutanturuqsiz maqola yozishg'a o'rgangan muharrirlar — to'sundan tegib qola turg'an tanqid kaltagidan qo'rqadilar.

Boy va savdogarlar — ayniqsa bularning qo'rqunchlari poyonsizdir. Chunonchi: do'kon sovdasi yaqinlashsa, ijarani oshirib yubora turg'an yakanchilardan qo'rqadilar; qo'llarig'a ko'proq pul yig'ilib qolsa, mollar oshib, pul kursining tushib ketishidan qo'rqadilar; qo'lida anchayin qog'oz ko'targan kishini ko'rsalar, "torg'ovoy nalog" tushmog'idan qo'rqadilar; g'o'za oyi kirib zakot berish eska tushsa, mollar hisobini olishdan qo'rqadilar... Har holda, bu durkum xalq uchun yer ham qo'rqunch, ko'k ham qo'rqunch, faqat qaro yerning ostig'ina tinchdir!

Kambag'al dehqon va ishchilar — kun sayin bozor bahosining birga-bir ko'tarilishidan qo'rqadilar.

Hukumat idoralaridagi bitta-yarimta poraxo'rlar — poraxo'rliq bilan kurash boshlang'andan beri o'zlarining soyalaridan ham qo'rqadirlar!

Ko'kdagi bulutlar — yog'may desa, Xudoning buyrug'idan, yog'ay desa, yerdagi maxluqlarning chirting-pirtingidan qo'rqadirlar!

O'zbek xotunlari — erlarining kaltagidan, qizlari — ko'chaga chiqay, desa onalarining turtug'idan qo'rqub, peslar — moxovdan, moxovlar — pesdan, ajivalar — taraladan, taralalar — ajinadan, qisqasi, katta-kichik, yassi-yapasqi, qing'ir-qiyshuq, uzun-qisqa hammalari ham qo'rqoqdirlar!

Men nima va kimdan qo'rqaman?

Ayniqsa manim ishim juda ham qiyin; yozay, desam, oshna-og'aynining sho'rtumshuqlig'idan, yozmay, desam, "Mushtum" pochchaning jekirigidan qo'rqaman.

Yana bundan boshqa qo'rqa turg'an ikir-chikirlarim:

— Eski shahar ko'chalaridan yursam, betimga loy sachrashidan qo'rqaman.

— Yomg'ur yoqqan kunlarida Eski shahar rastalarining ag'nab ketishidan, savdogarlarning to'ng'uz qo'pishidan qo'rqaman.

— Bilim yurtlari yonidan, boshlang'ich maktablar qarshisidan o'tub qolsam, istiqboldagi alvir-shalvir o'zbek madaniyatidan qo'rqaman!

Har holda, manim ham qo'rqunchlarim o'zimga yetarlik...

MUNDARIJA

<i>Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi</i>	3
Uloqda	5
Tinch ish	16
Juvonboz	24
Jinlar bazmi	34
Otam va bolshevik	40
Shubha	44
1819-yil yodgori	65
Kachida ikki hafta	68
G'irvonli Mallaboy aka	73
Dumbasi tushib qolgan emish	82
Bozor surishtirmaydir	86
Kula-kula o'lasan... ..	89
Ijmoli sayosiy	91
Azob bog'chasida yig'i-sig'i kechasi	94
Bildirishlar	97
Tarbuz qo'ltuqdan tushti	98
Matbuot	100
Qurbonliq o'g'rilari	102
Negakim	104
Layli va Majnun	105
Past va baland dunyoda	108
Davosiz dardlar	111
Og'zingga qarab gapir	114
Xususiy maktublardan	116
It urishtirish ishlari	119
"Ko'r"ning uziri	121
"Ko'mak" uyushmasiga ionalar	122
Dardi yo'q – kesak, ishq i yo'q – eshshak!	123
Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?	125

ADABIYOTIMIZNING SO'NMA S YULDUZLARI

ABDULLA QODIRIY

Hikoya, ocherk va hajviylalar to'plami

Nashrga tayyorlovchi:
Ergashbay **MATYAKUBOV**

Mas'ul muharrir:
Alisher **RAVSHANOV**

Musahhih:
Lolaxon **QO'ZIBOYEVA**

Dizayner:
Feruzbek **VOXIDOV**

Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 yilda berilgan.

Bosishga 05.05.2023 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog'i 8 Shartli bosma tobog'i 11

Garnitura "Times New Roman" offset qog'ozi.

Adadi 1 000 nusxa. Buyurtma № 45

Bahosi kelishilgan narxda.

"BOOK MEDIA PLUS" xususiy korxonasida tayyorlandi.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'pon ota ko'chasi, 28 A.



129447

12000
DABHUTIMLIG
SO'NMA S YULDUZLARI

ABDULLA QODIRIY

Hikoya, ocherk va hajviyalar to'plami

O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning asarlarini o'qir ekansiz, darhaqiqat, adibning qo'rqmasdan, haqiqatni ayta olganiga; o'z davrining muammolarini ko'tarib chiqqaniga, guvoh bo'lasiz.

Adib ushbu to'plamdan o'rin olgan hikoya, ocherk va hajviyalarida asosan o'z davrining muammolarini ko'tarib chiqqan. Masalan, "Uloqda", "Juvonboz", "Tinch ish" hikoyalarida insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydi, behuda narsalarga umrni sarflamay, ma'rifatga, ma'naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g'oyasini ilgari suradi.

Marhamat, zavqlanib o'qing.

ISBN 978-9944-9375-8-1



9 789943 937581